



ALVARO
YUNKE

ATIRGUL O'G'RISI

JAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

UO'K: 821.134.2(82)-32

KBK 84(7Arg)


Yu 53

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Hikoyalar, asosan, hajman qisqaroq bo'lishi, markazidan biror-bir voqea joy olgani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, qisqagina, qiziqarli, kutilmagan voqea bilan tugaydigan hikoyalar kitobxonni zeriktirib qo'ymaydi.

„Atirgul o'g'risi“ to'plamidan ana shunday qisqa va qiziqarli hikoyalar o'rin olgan.



© Ozod Sharafiddinov va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dunder, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Lev **TOLSTOY**
(Rossiya)

ILOHIY NUR

– Uni jazolash kerak! Otib tashlash kerak! Joyi jahannamda!

Erkaklar-u ayollardan jam bo‘lgan olomon arz-u samoni larzaga keltirib baqirardi. Olomonning oldida esa qo‘llari bog‘langan, qaddi raso, bo‘ydor bir kimsa boshini baland ko‘targancha bir-bir qadam bosib borardi. U kelishgan yigit edi. Shu bilan birga uning mag‘rur qiyo-fasida atrofidagi baqiroqlarga nafrat va g‘azab aks etib turganini ham ko‘rish mumkin edi.

Bu yigit... fuqaroga jabr qildi. Ana endi u jazosini olishi kerak. Uni, albatta, qatl etadilar.

„Nachora? – dedi u o‘ziga o‘zi, – bir boshga bir o‘lim deydi. Taqdiri azalda yozilgani shu bo‘lsa, nima ham qilardik?“ Yigit hamon ko‘chani boshiga ko‘tarib shang‘illayotgan olomonga kinoyali iljayib qarab qo‘ydi. Olomon qiy-chuv qilib uni qatl maydoni tomon haydab borardi.

Qatl maydoniga ham yetay deb qoldilar. Shu payt izdihomning etakrog‘idan bir bolakayning hiqillab yig‘lagani eshitildi. Olti yoshlardagi bir bola olomonni tirsaklab yorib o‘tmoqchi bo‘lar, „Dada! Dadajon! Qayoqqa ketyapsiz? To‘xtang! Meni ham ola ketding!“ deb yig‘lardi. Norasida go‘dakning nolasi ta’sir qildimi, xaloyiq bir lahza jimib qoldi, so‘ng g‘ayritabiiy bir kuchga duch kelganday, beix-

tiyor bolakayga yo‘l berdi. Bolakay chirillab yig‘lagancha tobora otasiga yaqinlashib borardi.

– Mushtdekkina ekan bechora! – dedi bir ayol bolaga qarab.

– Senga kim kerak, bolakay? – deb so‘radi yana bir xotin uning boshini silab.

– Dadamning oldiga boraman! – dedi bola chirillab, – meni qo‘yvorinlar, dadajonimning oldiga bormoqchiman...

– Yoshing nechada, bolakay?

O‘g‘il savolga savol bilan javob berdi:

– Dadamni nima qilmoqchisizlar? Nega uning qo‘llarini bog‘lab qo‘ydinglar?

– Hoy bola, oyoq ostida o‘ralashmay uyingga jo‘na, onang izlab yurgandir?

Asir yigit o‘g‘lining iltijosini ham, mujikning uyingga jo‘na, degan gapini ham eshitgan edi. O‘g‘li o‘rmiga o‘zi javob berdi:

– Uning onasi yo‘q, yetim, – dedi qovog‘ini solib. Bola esa olomoni oralay-oralay, nihoyat, otasining oldiga borib oldi. Qo‘llariga osildi. Siynalari qahrga to‘la to‘da hamon, uni osish darkor, yo‘q, otib o‘ldirish kerak, deya hayqirardi.

– Bolam, nega bu yoqqa kelding, uyga bor, – dedi ota.

– Nega bu kishilar sizni bog‘lab qo‘yishibdi? Nima qilishmoqchi? – deb so‘radi o‘g‘il.

– O‘g‘lim, senga bir maslahat bor.

– Nima qilay, dada?

– Katyushani bilasan-a?

– Qo‘shnimizmi? Bilaman.

– Sen hozir o‘sha Katyushalarnikiga borgin-da, o‘tirib tur. Men ortingdan yetib boraman, xo‘pmi?

– Sizni tashlab hech qayoqqa bormayman! – dedi bola va ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

— Nega unaqa deysan? Axir aytdim-ku, men... izingdan yetib boraman, deb.

— Yolg'on. Ular sizni o'ldirishmoqchi. Hali eshitmadingizmi?

— Yo'g'-e, unchalik emas. Ular... ular menga ziyon yetkazishmaydi.

Bandi yigit o'g'lini yerga qo'ydi va xaloyiqqa yetakchilik qilib borayotgan kishining oldiga bordi.

— Menga qarang, birodar, — dedi bandi, — meni qay yo'sinda, qachon o'ldirsanglar ham roziman. Faqat bu ish mana shu bolaning ko'z o'ngida bo'lmasin. Iltimos, ikki daqiqaga qo'llarimni yechib qo'yinglar. — Qo'rqmang, qochib ketmayman. Men o'g'limga bu amakinglar mening og'aynilarim bo'ladi, biz sayrga chiqqanmiz, deyman. Shunda o'g'lim uyga ketadi. Keyin, mayli, qanaqasiga qatl etsanglar ham turib beraman.

Olomon sardori bandining iltimosiga rozi bo'ldi. Ota o'g'lining yoniga qaytdi.

— Bolam, bor endi, uyga borib Katyalarnikida o'tirib tur.

— Siz-chi, siz nega men bilan ketmaysiz?

— Bular mening og'aynilarim bo'ladi. Biz birpas aylanamiz, keyin men ham uyga ketaman. Mana, ko'rding-ku, qo'llarim ham yechilgan. Bora qol.

Bolakay otasining yuziga tikilib, o'ylanib qoldi. Keyin ishonqiramay dedi:

— Rostdan ham uyga borasizmi?

— Boraman dedim-ku, o'g'lim, albatta boraman.

Bola ortiga qaray-qaray istamaygina jo'nadi. U ko'zdan g'oyib bo'lgach, bandi yigit sardorga qarab dedi:

— Endi men o'limga tayyorman, qani boshlasinlar.

Shu payt aql bovar qilmaydigan mo'jiza ro'y berdi. Hozirgina tomoqlarini yirtgudek bo'lib birovga o'lim tilayotgan beshafqat odamlarning ko'ngli birdan yumshadi.

Ularning ko'ksida kishini o'yga toldiradigan ilohiy bir nur paydo bo'lgan edi. Bitta ayol asta gap qo'shdi:

— Menga qolsa... uning gunohidan kechish kerak.

Ayolni kimdir quvvatladi:

— Yaratgan Egam rahmdil bo'linglar, degan. Bu yigit ham Xudoning osiy bir bandasi. Kelinglar, qo'yvora qolaylik...

Biror soatdan beri „Osilsin! Otilsin!“ deb hayqirayotgan xaloyiq endi jo'rovoz bo'lib, „Qo'yvorilsin! Gunohi o'ziga!“ deb qichqira ketdi. Mag'rur bandi yigit esa qo'llari bilan ko'zlarini bekitgancha yig'lab yubordi. U olomonni yorib o'tdi va kallasini osiltirgancha uyiga, o'g'lining oldiga yelib ketdi.

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi

Korrado ALVARO

(Italiya)

KUZ BO'RONI

Yomg'irning daraxt yaproqlariga shiddat bilan urilib, shoshgancha tog' yonbag'irlari sari o'rlagani eshitilar, yo'lovchilar salt otlarini siltab, niqtagan ko'yi hali ham yarqirab turgan yalang cho'qqi tomon qarab qo'yishardi. Daraxtlar bag'rida esa fursat poylayotgan kishilar izdihomining shovur-shuvuri ichra barglar hilpirab, titrab turardi. Shu on chaqmoq chaqdi-yu, shaffof suv zarrasidagi g'ira-shira quyosh aksini chilparchin qilib yubordi. Buning ketidan ko'm-ko'k qirqquloqlar-u qay bir daraxtlarning qo'ng'ir-qizg'ish tanasi yalt etib yorishdi. Qoraqarag'aylar bo'lsa bungacha manzarali daraxtlar yanglig' yorqin tusga kirib, kurtak yozgan, o'sha chog' vodiydan pastda yonbag'irlar bo'ylab oshiqayotgan kishilarni, tumshug'iga ko'z ilg'amas yugan urilgan qoramtir tus jonivorlarni ko'rish mumkin edi. Biroq sal o'tmay quyosh yuzini tuman qoplab, har turli o'nqir-cho'nqirlardan loyqa suv oqimining shovullab quyilishi asnosida tog'ni qaldiriq tutib ketdi. O'z navbatida suv ham muttasil ravishda hayqirib oqa boshladiki, oqibat zaminning yashin urgan har o'ydin-chuqur yeri suvdan to'lib-toshgandi. Tog' ustiga qo'ngan bahaybat bulut vahshat ichra tevarak-atrofga cho'michlab suv purkar, chor-nochor oshiqqancha dengizga tomon yo'nalgan oqimni kuzatmoq uchun uzangan edi. Chaqindan, bulutlarning tuyqus

yemirilishidan paydo aldamchi manzaralar kishi ko'z oldida olis hamda tubsiz makonlarni namoyon etardi. Tepalikka chiqish tadorigidagi sayyohlar ham, allaqaysi bayramdan ko'plashib qaytayotgan o'tkinchilar ham endi ortiq ko'zga tashlanmadi. Xayriyatki, tog'da ko'chmanchi cho'ponlardan qolgan mag'ora-yu boshpanalar bor. Yo'qsa...

Shunda birdan tog' kamarida, alanga yolqini burqsigan yoqdan kuchli yomg'ir ostida xachirini yetovga olgan bir yo'lovchi ko'rindi. U osmonga qarab cho'ziq tumshug'i bilan tepasida turgan bulutlarning uzun to'pigaga monand iskashga tutingan jonivorni daraxtga bog'ladi. So'ngra o'sha odam sudralgancha bir kapaga kirdi. Ayni damda boshpananing poxoli uzra go'yo yomg'ir to'xtab, tinayozganini hatto ko'ngilli bir yakranglik tuyg'usi-la sezayotgandi.

U qirqquloqning qalin yaproqlari bilan qoplangan eshikni yopdi-yu, shu zamon qorong'i yerto'lada odam sharpasiga ko'zi tushdi.

– Qanday ajoyib sayohat, shunday emasmi?

O'z navbatida bunga javoban ayol kishining „Ha, shunday“, degan zaif ovozi eshitildi. Kulba ichida allaqanday hid dimog'ga urildi.

– Bu qanaqasi, tog'da yolg'iz o'zingiz... Tag'in shu havoda-ya?

– Men yolg'izmasman. Otam ikkalamiz minib kelgan otlar qochib ketdi. Hozir ularni izlashyapti. Lekin bilmadim, bu yerlardan topa olisharmikin yo jonivorlarni boshqa yoqqa haydab ketishdimi. O'zi tog'da yomg'ir yog'gan mahal nimayam qo'lingdan kelardi.

Ayol bu so'zlarni boshi quyi solingancha tutilib aytarkan, vujudini kuchli titroq chulg'agani bilinib turardi. Haligi odam darhol plashini yechdi-da, unga uzatdi. Ayol

qo'lini cho'zib, yopinchiqni oldi va yelkasiga tashladi. Erkak esa kamzulining qaytarma yoqasini tuzatib qo'ydi.

— Umid qilamizki, ko'pga cho'zilmaydi. Qolaversa, buni kuz bo'roni deydilar. Ikki yil avval bayramdan keyin xuddi mana shunaqa bo'lgandi. O'tgan yili-chi, bir ayol bola-chaqasiga qo'shilib juvonmarg ketdi.

— Voy sho'rlik...

Bu vaqtda yomg'irning yana zo'r berib zabtiga olgani, uning shiltillay boshlagan tuproqqa urilib, o'z ohangini o'zgartirgani sezilar, go'yo borliq shu bo'yi harakatdan to'xtagandek, halqob suvdan bo'lak hech narsa yo'qdek edi. Rutubatga dosh berolmaganday, chaqmog'-u momaguldurak ham oshig'ich ortga chekindi. Ayol yopinchiqdan haroratli ko'zlarini tashqariga qadagan. Ko'z ochib yumguncha qosh qorayib, qorong'i tushdi. Suvning shovqini o'y-xayolini band etib, ikkoviyam jim qolgandi. Ushbu hol yagona va doimiy marom tusini olgachgina so'z aytmoqqa imkon topildi. Ammo erkak „Tunni shu yerda o'tkazishimizga to'g'ri keladi“, deya og'iz ochgan zahoti tishlari sovuqdan takilladi. „Anavi boyaqish jonivoru yerda!“, qo'shib qo'ydi u. Bu so'zlar xuddiki yurib ketayotgan g'ildirakni to'xtatmoqqa chog'i kelmayotgandek, tishlari orasidan cho'zilib, yoyilib chiqardi. Ayni paytda ayol sim-siyoh, issiqqina kunjakdan boqqan ko'yi so'z qotdi:

— Afsus, meni deb joningiz azobda qoldi.

Aftidan, u yana nimadir demoqchi edi-yu, biroq indamadi. Shu tobda ayol sherigining ko'z o'ngida zim-ziyo tun ichra iliqlik aks etgan yorqin nur misol gavdalandi. So'ng erkak ko'zlarini yumdi-da, boshqa hech narsani ko'rmadi. O'zini baayni daryo yuzasiga qalqib chiqqandek his qildi. U har qancha urinmasin, ko'zini ochishgayam holi kelmay, og'ir uyqu aralash tishlarini g'ijirlatardi. Bir vaqt o'ziga o'zi qop-qorong'i bir zindonda gandiraklab

yurganday tuyuldi: oyog'iga chelaklab suv quyisharmish, uni qurshab olib, kalaka qilisharmish, tirqishdan qarasa, yangitdan bayramga to'plangan xaloyiq kuy chalib, o'yin-ga tusharmish... Sal o'tmay u zindondan qutulib chiqqan-mish. Cherkovdamish. Olomonning hovuridan vujudiga mador enib, isiriq isini tuyarak dadillanganmish...

Ayqash-uyqash bu o'y-xayollar o'tga tushgan muz par-chasi kabi uning chala-yarim uyqusini o'chirib yubordi. Ko'zini ochib bildiki, u rostdan ham isib ketibdi. Plashi-ning bir uchini ustida ko'rarkan, birdan haligi ayol esiga tushdi-yu, qo'lini cho'zib, o'sha zahoti uning ilkini tuydi. Nazarida, ayol joyidan siljimaslikka astoydil urinar, o'zini uxlaganga solardi. Qo'l bo'g'imi, qo'li-yu ko'ksi tutash o'rni quyosh otashi qizdirganday qizigachgina ayol o'rni-dan qo'zg'aldi. Yomg'ir esa endilikda tingan, tog'ning har unguri, pana-pastqam yeri bo'ylab shamol uvlar, odam shaklini eslatuvchi xarsang-u qoyatoshlar o'zlarini yolg'iz sezayotgani ana shu tun bag'rida birgalikda jo'ro-voz fig'on chekardi go'yo.

Erkak biron sirni o'smoqchilab bilib olmoqchidek so'radi:

– Uxlayapsizmi?

„Yo'q“ degan javob bo'ldi.

– Qayerliksiz?

Ayol allaqaysi qishloqni aytdi.

– Men ham o'sha yerlikman. Unda sizni tanisam ke-rak. Ismingiz nima edi?

– Immakolata.

– Qaysi Immakolata?

Ayol dona-dona qilib dedi:

– Immakolata Strano.

– E, o'sha sizmisiz! Sizni kichkinaligingizda ko'rgan-man. Faqat endi tanidim, hatto tun bo'yi birga o'tirgan

esak-da... Bilsangiz, sizning oilangiz bilan biz dushmanmiz. Men Filippo Ligo bo'laman.

Ayol indamadi.

– Yigirma yildan buyon oilalarimiz o'rtasida gap-so'z qochgan. O'shanda hali bola edik. Bir qishloqdan bo'lgan, bir-biriga qarindoshligiyam bor kishilarning bunchalik adovatga borishi qanchalar yomon, shunday emasmi?

– Men buni qaydan bilay? Axir, ayol kishiman...

– Siz to'g'ringizda ko'p eshitganman...

– Otam qayoqlarda yurganiykin-a?..

– Bunaqangi shamolda yo'l yurish mahol.

– Mabodo mendan xavotirlanmayapsizmi?

– Men hech kimdan xavotirlanmayapman. Qachonki g'animing bo'lsa, – davom etdi erkak, – nuqul u haqda o'ylaysan, to'g'rimi? Shunda o'zingni boshqa bir dunyoga, boshi berk ko'chaga kirib qolgandek sezasan.

Shu on ayolning qo'lidan tutgani-yu, uning tafti, haroratini his etgani aks-sado misol davomli bir sezgi-la yodiga tushgandi.

– Plashimning etagini ustimga yopib qo'yib, katta iltifot ko'rsatibsiz. Yo'qsa sovuqdan nobud bo'larkanman-a... Ancha vaqt uxlabman, shekilli... Rahmat.

Ayol hech bir gap-so'zsiz unga plashni uzatdi. O'z navbatida erkak qo'llarida qandaydir jonli, hayotbaxsh narsani tuydiki, undan hali ayol harorati, uyqu nafasi ufurmoqdaydi. Kiyimni qaytarmoqchi bo'luvdi hamki, bir zum unga burkanib oldi-da, so'ng issiq hammomdan chiqqanday junjikib, yelkasidan plashni itqitib tashladi.

– Nega bunday qilyapsiz, dushmanligimiz sababmi? Ushlang buni.

U qo'liga tutqazilgan bejirimgina tufliga istar-istamas qaradi. Nimanidir kutish, mushtoqlik bu odamni junbish-

ga keltirganday bo'lar, fikr-u xayoli esa muqarrar dengiz sari intilguvchi daryolardek o'sha ayol tomon oshiqardi.

— Har holda, — deya gap qistirdi u. — Bu dunyoda nimalar bo'lmaydi deysiz!

Aftidan, tuzalmog'i uchun nima qilishi lozim bo'lsa shu narsaga urinib ko'rguvchi bemorlarda ko'rilgandek, daf'atan uning nafasi bo'g'ziga tiqilayozgan edi. Yuragi-ning tub-tubiga qadar sandonga tushgan bolg'a sur'ati-la gupurib qon tepar, va bundan anchayin kuchli bir sado chiqardi. Endilikda tunning zamin qa'ri singari har turli unsurlardan to'lib-toshgani sezilib turardi. Shunda erkak „Qo'lingizdan ushlaganim yaxshi bo'lmadi, buni o'zim ham xohlamagandim“, dedi. Ayol sirli bir sukutga cho'mgan. O'zini bosib olish uchun bo'lsa kerak, erkak betoqat gugurt axtarib, namiqqan gugurtcho'plardan birini yoqishga tutindi. Oxiri bunga erishdiyam. So'zlayotgan chog'ida esa, nazarida, ovozi tun qo'yniga cho'kib bo-rayotganga, biron tirik jon bilan emas, qandaydir ko'lka bilan gaplashib turganga o'xshardi. Shu payt u chaqilgan o'sha gugurt yorug'ida ich-ichigacha botib ketgan so'lg'in ko'zlarga boqarkan, dali xayoliga ayol kiyimi ichiga xanjar yashirmaganmikin, degan fikr ham keldi. Lekin nigohi uning yuziga qadalgach, ko'ngli osoyish topdi. Shamol bo'lsa ayni dam hilviragan yelkanday pasayib borar, ikkovining-da xayolidan bir o'y kechardi: „Hademay tong otadi“...

Ayol urinib-surinib eshikni ochganida toza bir nurga tashna borliq kunchiqar yoqqa qarab yastangan daraxtlarning mahzun raftori aro kulrang tusda zohir bo'ldi.

Yulduzlar o'chayozgan alanganing so'nggi cho'g'lari kabi hali yonib turardi. Ayol chiqishga chog'langandi, ammo erkak „Ketmang, yana ozgina kuting“, deya o'tingach, ho'l kokilini buradi-yu, boshini burib, ostona-

ga o'tirib qoldi. Erkak unga yondasharkan, „Eshitdingizmi...“ dedi va o'sha on ikkovi ham bir-biriga yaqinlashib, bir-birining ko'ziga termilganча boshqa hech narsani ko'rmadi. Bo'rondan keyin tomlardan oqib tushayotgan yomg'ir tomchilarining shov-shuvi ostida lablar asta lablarga tutashdi. Biroq ikkovi tezda ko'zini ochdi-yu, ma'yus, umidsiz nigohlar yana to'qnashdi. Birdan ayol sherigining ko'ksiga mushtlab, yuzini timdalay boshladiki, bundan erkak tentaklarcha kulardi... Saldan keyin esa ayolning tutam sochlari yelkasiga yoyilgan ko'yi qay tariqa devonavor yugurgani-yu osmon barobar balandlab, yonbag'irlikka yetganda to'xtagani hamda o'zi tomon qaragani ko'z o'ngida zuhur etdi. So'ngra ayol asta-sekin pastga qaytib tusharkan, „Nima qilay axir, nima qilay?.. Yaxshisi, qo'ying, ketaman“, derdi.

Endi u yuvosh tortib, mo'min-qobil, itoatkor bo'lib qolgandi. Ayni shu lahzalarda bir-biriga ko'zga ko'rinmas rishta bilan bog'langan, birgalikda bu yerlardan bosh olib ketishni ixtiyor etib, bir-biriga yovuq kelgan edilarkim, mana ular – biri ikkinchisiga yuzma-yuz turgan, bo'y-basti o'zaro uyg'un, mutanosib ikki kishi, dunyodagi eng oddiy, eng birinchi tuyg'u sababchilari – erkak va ayol – o'zga hech bir kishi emas, balki o'zaro nimanidir yo'qotib qo'ygandek biri ikkinchisiga diqqat bilan tikilgan ikki kishi...

Ana shunda ayol titroq ichida „Agar otam bizni ko'rib qolsami...“ degan zahoti erkak qo'llarini yozgancha so'z qotdi: „Ketmoqchimisan? Haliyam vaqting bor. Ket“.

Haytovur, ayol ketmadi-yu, „Taqdir ekan“, deya qo'lini bukib, „Xo'sh, qayoqqa boramiz?“ deb so'radi. Sherigi bo'lsa xachirga minayotib, uning ham chiqishiga ko'maklashish uchun qo'l uzatarkan, „Chiq qol“, dedi...

...Jonivor tog' oralab arang ko'tarilardi. Oftob xush-ta'm sharobday qaynoq nur purkadi. Ularning bahaybat

qizg'ish soyasi tong yog'dusida tobora qisqarib, kichrayib borar, ikkovlon qumda shunday iz qoldirib ketishardiki, bu hol kishida ayolni haligi erkak olib qochgan degan tasavvur uyg'otardi. Yaydoq jonivor esa belanchakning tebranishidek bir maromda yo'rg'alar edi.

– Mahkamroq ushla, pastga qarama, hozir tik jarlik chiqadi.

Darhaqiqat, rang-barang qoyatoshlar orasida o'sha jarlik ko'rindi, va yana pastga qarab tarmoqlangancha shovullab oqayotgan jilg'a...

...Ayolni mahkam ushlarkan, erkak dastpanjasi bilan uni tasmasidan tortib, surib qo'yardi.

– Qayoqqa ketyapmiz? Qishloqqa bo'lmasa kerak, albatta?

– Yo'q, boshqa uzoqroq joyni izlab ko'ramiz.

Ikkovi bir-biridan ayrilishi mumkinligini xayoliga ham keltirishmasdi. Baxt deganlari alaloqibat shu bo'ldimiki, noma'lum bir musibat qarshisida go'yo kimdir orqalaridan ta'qib etib, ularni ma'mur bir o'lkadan quvg'in qilgandek edi. Shu narsaga ahamiyat berganday, ayol ta'kidladi:

– Agar otam bizni topsa, o'ldiradi...

Italyan tilidan

Rustam IBRAGIMOV tarjimasi

SO‘Z QADRI

Muharrirning ism-sharifi Uorren Juks edi. Bo‘yi baland, barmoqlari uzun, boqishlari jiddiy. Chakka sochlari oqara boshlagan. U odatdagidek stol ortida, urf bo‘lgan kastum-shimda o‘tirardi. Trevaten uning oldida xuddi hozirgina inidan chiqqan ayiqdek ko‘rinardi.

– O‘tir, Jim, – iljaydi Juks. – Seni ko‘rishdan doimo xursandman. Faqat „Yangi hikoya olib keldim“, dema. Senga hayron qolaman. Hikoyani xuddi daraxtni silkitib terib olayotgandek juda tez olib kelasan. G‘oyani qayerdan olasan? Menimcha, bunaqa savollarga javob beraverib charchagan bo‘lsang ham kerak.

Trevaten haqiqatan ham charchagandi, lekin bir xil savolga javob beraverishdan emas.

– Nahotki?

– Sen bilan oxirgisi haqida gaplashgani keldim.

– Kecha bu haqda gaplashgandik-ku, – Juksning yuzida hayrat ifodasi paydo bo‘ldi. – Telefonda. Hikoyang yoqqanini, jurnalimizda bosishimizni aytdim. Nomi nima edi? Qandaydir so‘z o‘yini edi, esimdan chiqib qolibdi.

– „Sirtmoqdagi jinoyatchi“, – eslatdi Trevaten.

– Ha-ha. Ajoyib sarlavha, yaxshi sujet va mohirona ifoda. Muammo nimada?

– Pulda, – dedi Trevaten.

– Pul kerak bo‘lib qoldimi? – jilmaydi muharrir. – Yaxshi, bugunoq hisob yozib beraman. Kelasi haftaning

boshida chekni olasan. Afsuski, bundan ortiq yordam berolmayman.

– Men pulning qachon to‘lanishini aytmayapman, – dedi Trevaten. – Miqdorini aytmoqchiman. Hikoyam uchun qanchadan to‘laysan, Uorren?

– Har doimgidek. Unda nechta so‘z bor? Uch mingtami?

– Uch yarim mingta. Yana uyingga olib borib berishini ikki kunlab kutib o‘tirmaysan. Qanchadan to‘laymiz, Jim. Doim shunaqa to‘laganmiz.

– Qanchadan beri yozaman, Uorren?

– Bir necha yildan beri.

– Yigirma yildan beri, Uorren.

– Nahotki?

– O‘tgan oyda senga birinchi hikoyamni sotganimga yigirma yil bo‘ldi. Ikki ming ikki yuzta so‘z bor edi. Menga bir yuz o‘n dollar to‘lagansan.

– Nima, yomonmi?

– Men yigirma yildan beri yozaman va o‘sha paytda qancha olgan bo‘lsam, hozir ham shuncha olaman. Hamma narsaning narxi oshyapti, mening daromadim esa o‘zgarishsiz qolyapti. Birinchi hikoyamni yozganimda bitta so‘zim uchun olgan besh sentga shokolad sotib olishim mumkin edi. Sen shokolad sotib olmaganingga ancha bo‘libdi, shekilli, Uorren?

Juks qorniga ishora qildi.

– Adashyapsan. Yigirma ikki sent. O‘ttiz besh sentga olti oydan keyin chiqqan. Keyin ellik, oltmish, yetmish besh bo‘ldi. Hozir qancha turadi? – dedi Trevaten.

– Bir dollar.

– Sen esa muallifingga hali ham bir so‘z uchun besh sentdan to‘layapsan. Senda vijdon bormi, Uorren?

Juks og‘ir uf tortdi, stolga tirsagini tirab, kaftlarini bir-lashtirdi.

– Jim, sen bir narsani unutib qo‘yyapsan. Jurnal hozir bundan yigirma yil oldingichalik daromad keltirmayapti. Rostini aytsam, undan ham oz. Sen qog‘ozning narxi qanchalik ko‘tarilib ketganini bilasanmi? Qog‘oz bilan shokoladni solishtiradigan bo‘lsak, ularning narxi o‘zgar-magan deyish mumkin. Bosmaxona xarajatlari, tarqatish xarajatlari-chi? Senga eshitishning qizig‘i yo‘q boshqa chiqimlar-chi? Sen bir dona jurnal bir dollar ekanligini ko‘rib bizni pulga ko‘milib ketishyapti deb o‘ylaysan, aslida, unday emas. Yigirma yil oldin bizga yaxshiroq edi. Daromad zo‘r edi.

– Lekin bitta narsaning, eng asosiysining narxi o‘zgar-masdan qoldi.

Juks so‘z qotdi.

– Talab va taklif, Jim.

– Nima, nima?

– Talab va taklif deyapman. Men uchun jurnalga material topish qiyin deb o‘ylaysanmi? Mana bu qo‘l-yozmalarni ko‘ryapsanmi? Bularning hammasi bugun kelgan. O‘ntadan to‘qqizta hikoya havaskorlar tomonidan yozilgan. Ular ijod namunasi jurnalda chiqishi uchun qalam haqidan voz kechishga tayyor. Qolgan o‘n foiz hikoya mahoratli qalamkashlarniki, ammo ular har bir so‘zi uchun besh sentdan to‘laganimga ham xursand bo‘lishadi. Qo‘lyozmalarini qaytarmaganimga shukr qilishadi. Sen esa, Jim, nima olib kelsang ham sotib olaman. Menga hikoyalaring yoqadi, ammo bu yagona sabab emas. Sen biz bilan yigirma yildan buyon ishlaysan, biz esa qadrdon-larimizni e‘zozlaymiz. Sen narxni oshirishimni xohlayapsan, ammo buning iloji yo‘q. Biz hech kimga har bir so‘z uchun besh sentdan ortiq to‘lamaymiz. Birinchidan, xarajatni ko‘paytirishga yo‘l qo‘yolmaymiz, ikkinchidan mualliflarga ko‘p pul to‘lashga zarurat ham yo‘q. Narxni

oshirgandan ko'ra hikoyangni qaytarib berganim osonroq. Boshqa ilojim yo'q.

Trevaten jim qoldi. U yana bir nechta savol berishni o'yladi. Masalan, muharrirning oyligi necha barobarga oshdi. Ammo foydasi yo'q edi. Uning oldida ikkita yo'l bor edi: har bir so'zi uchun besh sentdan yozish yoki umuman yozmaslik. Juks munozaraga nuqta qo'ydi.

– Albatta. Shuning uchun har safar hikoya olib kelganingda suyunaman. Bu jurnalda muharrir men ekanman, sening har bir hikoyangni sotib olaman. – Endi...

– Bilaman, hammasi senga bog'liqmas, Uorren. Faqat, qadrimga achinaman.

– Albatta. Balki, boshqa janrda yozib ko'rarsan? Faoliyat doirasini kengaytirishning kechi yo'q.

– Buniyam o'ylab ko'raman, – dedi Trevaten.

„Bir so'z uchun besh sentdan“.

„Bir so'zga ming dollardan“.

Nimaga u bir so'zi uchun ming dollardan ololmaydi? Nima uchun o'zini boshqa sohada sinab ko'rmasligi kerak? Nima uchun?

– Uorren? Maslahatingga amal qildim.

– Yana bitta hikoya yozdingmi? Xursandman.

– Yo'q. O'zimni boshqa sohada sinab ko'rmoqchiman.

– Barakalla. Menimcha, bu sening qo'lingdan keladi.

Kattaroq narsaga qo'l urdingmi? Romanmi?

– Yo'q, judayam qisqa.

Rus tilidan

Dilshodbek ASQAROV tarjimasi

Ernest XEMINGUEY
(AQSH)

ODDIY TEKSHIRUV

Tashqarida qor derazani ko'mib yuborguday yog'gandi. Quyoshning zaif nurlari deraza tirqishlari oralab, kulba ichiga quyilarkan, ular ayniqsa, kulbaning yog'och devoriga osib qo'yilgan xarita yuzini yoritib turardi. Oftob tobora yuqorilagan sayin uning shu'lalari ham qor uyumi tepasida shuncha ko'p tovlanardi. Kulbaning bir tomoniga chuqur handaq ham kovlab qo'yilgandi, quyosh charaqlab turgan kunlari nurlar devor ustida turli shakl-u shamoyil yasab, ajib o'yin etishar, ular xuddi oxirgi sovuq qordan o'ch olmoqchiday bor taftini to'kishardi. Martning oxirgi kunlari edi. Kulba ichida devorga tirab qo'yilgan stol yonida bir mayor o'tirardi. Stolning narigi tomonidan esa unga hamroh ad'yutant joy olgan.

Mayorning ko'zi atrofida quyoshda qor ko'zini qamashtirmasligi uchun tutib yuradigan ko'zoynakdan qolgan ikkita oppoq aylana iz paydo bo'lgandi. Yuzining qolgan qismini oftob olgan, qoraytirgan, o'sha qoraygan tanasi issiq harorat taftida yanayam kuyib ketgandi. Shishinqiragan burni terisi ham negadir po'rsildoq-po'rsildoq bo'lib yorilib qolgandi. U qo'lidagi gazetalarga tez-tez ko'z yugurtirib chiqar, ayni damda chap qo'lini yonidagi moy solingan likopcha tomon uzatib, barmoqlarini moyga bular va uni butun yuzi bo'ylab yaxshilab surkardi, uning barmoqlari bu vazifani juda ma-

yinlik bilan bajarmoqda edi. Boshliq qo'llarini likopcha chetiga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan olib borar, moy yuqi singib qolmasligi uchun nihoyatda muloyim harakatlarnardi, peshonasi bilan ikkala yonog'iga ham o'shanday ehtiyotkorlik bilan moy surtib olgach, eng oxirida shishgan burni atrofini ham barmoqlari bilan zo'r hafsala qilib ishqalay ketdi. Nihoyat bu ishini tugatib, mayor o'rnidan sekin turdi-da, moy solingan likopchani ko'tarib, dam oladigan xonasi tomon yo'naldi.

– Men biroz mizg'ib olmoqchiman, – deb qo'ydi u ad'yutantga qarata. Ad'yutant bu armiyada boshqa harbiylar singari hech qanday buyruqqa javobgar ofitser emas, balki o'z holicha mustaqil bir harbiy edi.

– Sen bemalol yeb-ichib o'tiravergin.

– Mayli, senor Maggore, – deb javob bergan bo'ldi ad'yutant. Shunday dedi-da, u ham stuli orqasiga bor gavdasini tashlab, uzoq esnab qo'ydi. Ozgina vaqt o'tgach, paltosining cho'ntagidan qog'ozga o'rog'liq qandaydir kitob olib ochdi-yu, biroq uni darrov stol ustiga tashlab qo'ydi, so'ngra bamaylixotir tamakisini olib tutatdi. Ad'yutant tamakini yutoqib tortib, buruqsitib tutun chiqardi-da, boyagi kitobni o'qish uchun stol ustiga eringancha engashdi. Ammo baribir o'qishga shash-ti bo'lmay, uni tag'in yopdi-yu, qaytarib cho'ntagiga solib qo'ydi. Busiz ham ad'yutantning bir dunyo ishlari, o'ylaydigan o'ylari ko'p edi. O'sha ishlari bitmaguncha kitob o'qish ad'yutantning kallasiga sig'masdi. Tashqarida esa mart quyoshi sekin-asta purviqor tog'lar ortiga bota boshlagan, kulba devorlari ustidagi o'ynoqi nurlar raqsi ham ohista so'nib bormoqdaydi. Shu paytda xonaga qandaydir bir askar yigit kirib qoldi, u hech narsa demay, burchakda uyulib turgan qarag'ay shoxlarini ol-

di-da, ularni har xil uzunlikda chopib, pech ichiga birma-bir tashlay boshladi.

– Sekinroq, Penin, – deb ogohlantirgan bo'ldi uni ad'yutant o'tirgan yeridan. – Mayor dam olyapti.

Penin mayorning qo'l ostidagi askarlardan edi. U qorachadan kelgan, nimjonroq yigitcha edi, u imkon qadar ovoz chiqarmay o'tinlarni joylagach, pech eshigini yopib, yana kulba orqasiga o'tib ketdi. Ad'yutant endi gazeta o'qishga tutindi.

– Ad'yutant! – Birdan ichkari xonadan mayorning ovozi keldi.

– Nima gap, senor Maggore?

– Peninni mening oldimga kiritib yuborgin.

– Penin! – o'sha zahoti yigitchani chaqirdi ad'yutant. Xonaga Penin kirdi.

– Seni boshliq ko'rmoqchi.

Yigitcha indamasdan katta xona orqali o'tib, mayorning eshigi oldiga keldi. Qiya ochiq turgan eshikni qo'rqa-pisa ikki marta taqillatgan bo'ldi.

– Senor Maggore...

– Kiraver, Penin, – ad'yutant mayorning boshliqlarga xos buyruqomuz ohangini eshitdi. – Eshikni orqangdan yopib kir.

Ichkarida mayor o'zining koyka devorga o'rnatilgan karavotini to'ldirib, yoyilib yotardi. Boshining tagiga allanarsalar solingan ryukzagini yumaloq yostiq qilib qo'yib olgandi. Boshliqning uzun, oftobda kuygan, yog'langan semiz yuzi yosh askarga boqdi. Penin mayorning adyol ustiga uzala tashlangan jundor, baquvvat qo'llari tarafga nigohini olib qochdi.

– Yoshing o'n to'qqizdami, Penin? – deb so'radi mayor yigitchaning chehrasiga diqqat bilan razm solarkan.

– Xuddi shunday, senor Maggore.

– Hmm, shunaqa degin, – deb qo‘ydi mayor jiddiy qiyofada. Keyin yana o‘shanday ohangda ta‘kidlagannamo qilib savol berdi: – Umringda hech sevib ko‘rganmisan?

– Meni kechirasiz, bu gapingizga tushunmay qoldim, senor Maggore?

– Men sevganmisan, deb qizlarni nazarda tutyapman?

– Ha, qizlar bilan gaplashib turaman.

– Yo‘q, tushunmayapsan, men sendan buni so‘ramadim. Men sendan biron-bir qizga ko‘ngil qo‘yganmisan, deb so‘radim.

– Albatta, senor Maggore.

– Haa, demak, hozir kimnidir sevasan, shundaymi? Unga xat ham yozib turarkansan. Men hamma xatlaringni o‘qib chiqdim.

– To‘g‘ri, men rostdanam bitta qizni yaxshi ko‘raman, – deb tan oldi Penin, – ammo unga birontayam xat yozgan emasman.

– Yo‘g‘-ey, aniq yozmaganmisan?

– Ha, gapim rost, aniq yozmaganman.

– Ad‘yutant! – mayor xuddi avvalgi ohangini buzmasdan ofitserni chaqirdi. – Mening gaplarimni eshitib turibsanmi sen?

Narigi xonadan hech qanday javob kelmadi.

– U bizni eshitmaydi, – deb qo‘ydi mayor Peninga qarab. – Xo‘sh, demak, o‘sha qizni chindanam sevishingga ishonasanmi?

– Ishonaman, senor Maggore.

– Unday bo‘lsa, – mayor askarning yuziga bir qur ko‘z yugurtirib oldi, – sen hech qanday ahloqsizlik ham qilmagansan?

– Sizning ahloqsizlik, deb nimani nazarda tutganingizni bilolmadim, senor.

– Yaxshi, juda soz, – deya xulosa chiqargan bo‘ldi mayor o‘zicha, – u holda sendan hech qanaqa boshliq chiqmas ekan.

Penin boshini egib, ko‘zlarini polga qadadi. Mayor uning qoracha yuzlariga, oriq qo‘llariga, ozg‘in gavdasiga boshdan oyoq bir-bir qarab chiqdi. So‘ngra yana avvalgi-day jiddiy, kulmagan tarzda gapida davom etdi:

– Demak, sen chin dilingdan istamayotgan ekansan, – mayor sukut qildi. Penin hamon poldan ko‘z uzmay turardi. – Eng buyuk orzuying haqiqiy emas ekan unda – Peninning ko‘zlari haliyam polda edi. Mayor gapdan to‘xtab, ryukzagi ustiga suyandi-da, jilmaydi. U yurak-yuragidan yengil tortgandi. Armiyadagi hayot jiddiy hayot ekan, u yoshlarni bulg‘amay, matonatli, rostgo‘y, toza qilib tarbiyalabdi. Mayor negadir xursand bo‘lib ketdi.

– Yaxshi bola ekansan, – dedi u biroz yumshoqlik bilan. – Sen yaxshi bola ekansan, Penin. Lekin bu gapimga ko‘pam taltayib ketmagin, senga otalarcha gapim, yigitcha, doimo kimdir-birov zimdan poylab kelib, orqangga pichoq urib ketishidan hazir bo‘lib yurgin.

Penin hamon boshlig‘ining karavoti yonida boyagiday sukut saqlagan ko‘yi jimgina turardi.

– Mendan qo‘rqma, – dedi mayor unga mehribonlik bilan tikilib. U adyoli ustidagi qo‘llarini bukdi. – Men senga hech narsa qilmayman. Istasang, o‘zingning vzvodingga qaytib ketishing ham mumkin. Lekin eng yaxshisi, menda, mening askarim bo‘lib qolganing ma‘qulroq. Bu yerda seni hech kim o‘ldirib ketolmaydi.

– Mendan yana nimadir so‘ramoqchimisiz, senor Maggore?

– Yo‘q, – dedi mayor, – chiqib ketaver, xohlagan ishing bilan shug‘ullanaver. Ha-ya, chiqishingda eshikni ochiq qoldirgin.

Penin eshikni yopmasdan tashqariga chiqdi. Ad'yutant yigitchaning xonadan o'ng'aysizlanib yurib o'tib, kulbadan chiqib ketishini kuzatib turdi. Penin pechga qalash uchun yana qarag'ay shoxlaridan ko'tarib kirganida, butunlay qip-qizarib ketgan, harakatlari ham oldingidan ancha o'zgarib qolgandi. Ad'yutant yosh askarning bu holatini kuzatib turib, miyig'ida kulib qo'ydi. Penin tag'in tashqariga chiqib, yana-da ko'proq o'tin ko'tarib kirdi. Ichkari xonada esa devordagi mixga osib qo'yilgan qishki ko'zoynaklari bilan lattaga o'rab qo'yilgan kaskasiga termilganча mayor o'z karavotida o'y surib yotar, biroq uning quloqlari qo'shni xonadagi Peninning qadam tovushlarida edi. „Voy kichkina shayton-ey, – deb o'ylardi boshliq kulimsirab, – ehtimol, u meni aldab qo'ygandir“.

Ingliz tilidan

Qandilat YUSUPOVA tarjiması

Jek RITCHI
(AQSH)

USHLAB TURILGAN XAT

Yigitlar aniq yanglishishdi. Ular Xarli Pedltonni o'g'irladik, deb o'yladilar. Biz u bilan rostakamiga o'xshashmiz, faqat u – „Pedlton aerochanasi“ firmasining xo'jayini, men esa bor-yo'g'i uning xizmatchisiman.

Bu voqea dushanba kuni, tushga yaqin, janob Pedlton kabinetining eshigini ochib qabulxonaga nazar tashlagan va unda birgina odam – sizning sodiq xizmatchingizni ko'rganida bo'lgan edi.

U menga mashina kalitini uloqtirdi.

– Ulber, mashinamni hozirlang, moyning miqdorini va shinalardagi bosimni tekshiring. Kechqurun Medisonga boraman, vaqtim yo'q...

– Xo'p bo'ladi, ser, – dedim va paltomni ilib pastga tushdim.

Avtomobillar to'xtash joyidagi yozuv butun dunyoga „Pedlton“ deb jar solardi. Men xo'jayinimning „linkoln“i oldiga keldim.

Biroq, kalitni qulfga solmagan edim hamki, orqamda och yashil sedan kelib to'xtadi va undan ikki yigit sakrab tushdi.

Ular meni tutib olib, o'zlarining mashinasi orqa o'ringining poliga tiqqancha bosishdi.

– To'xtang, o'zi nima gap? – so'radim men.

Ustimda o'tirgan yigit menga kinoyali qaradi.

– Bu o'g'irlikmi? – tinchlanmadim men.

– Aynan shunday, janob.

Men kulib yubordim.

– Unda qovun tushiribsizlar, yigitlar. Mening ismim Uilber Krouford. Sizlar esa, tushunishimcha, janob Pedltonni o‘g‘irlamoqchi bo‘lgansizlar.

– Jim bo‘l, – orqamdagi beparvolik bilan g‘uldiradi.

Men tag‘in qo‘shig‘imni boshladim, ammo biqinimdan tepki yedim va taqdirga tan berishga qaror qildim.

Mashina polida yotgan odamga har qanday safar adoqsiz ko‘rinadi. Tasmollashim bo‘yicha, mashina mayda shag‘al ustida pokrishkasini sharaqlatib to‘xtatgunicha ikki soatdan ko‘p vaqt o‘tgan edi.

Mening o‘g‘rilarim o‘rtasida kechgan suhbatdan shuni bilib oldimki, haydovchining ismi Maks, ustimda o‘tirgan yigitniki esa Klarens ekan.

Nihoyat, so‘nggisi biqinimdan oyoqlarini oldi.

– Tush, yetib keldik.

Biz firma yaqinidagi nochorgina qishloqchada edik. Men juftakni rostlab qolmoqchi bo‘ldim, biroq Klarens tirsagimdan mahkam ushlab oldi va uy ichkarisiga itarib soldi. U yerda men yana aniqlik kiritishga taraddudlandim.

– Mening ismin Uilber Krouford, hech qanaqa Pedlton emasman. Firmada ishlayman, lekin uning egasimasman.

– Ha-ha, – devonaday baqirdi Klarens, – ilohiy haqiqat!

U meni ikkinchi qavatga sudrab olib chiqdi va tor xonaga itarib kirgizdi. Qulf sharaqladi va men yolg‘iz qoldim. Yagona deraza mustahkam panjara bilan to‘silgan edi. Ular hammasini oldindan o‘ylab qo‘yishgan, shekilli.

Men uy oldida turgan mashinaga nazar tashladim. Balki, u o‘g‘irlangandir? Biroq o‘g‘irlangan mashinani ikki soatdan ortiq haydash juda qiyin, ayniqsa, unda garovdagi odam bo‘lsa. Mashina anavilardan biriga tegishli bo‘lsa kerak. Shu payt o‘ylab qoldim: raqamini eslab qolish lozim.

Hamma joyni tekshirib ko'rib, shamol purkagich panjarasini ko'rib qoldim va emaklab pastga engashdim.

Pastda, mehmonxonada Maks va Klarens televizor orqali yangiliklar dasturini ko'rishayotgan edi.

„Bugun tushda „Pedlton aerochanasi“ zavodi yaqinidagi avtomobillar to'xtash joyida Uilber Krouford o'g'ir lab ketilgan. Uni ikki kishi qanday qilib mashinaga kirgizayotganini payqagan guvoh mashina raqamini ko'rish mumkin bo'lmagan uzoqlikda bo'lgan. Uning so'zlariga ko'ra, mashina oxirgi modeldagi och yashil sedan bo'lgan. Politsiya ehtimoli bo'yicha, o'g'rilar Kroufordni Xarli Pedlton, firma prezidenti deb o'ylab adashishgan...“

Klarens so'kindi va stuldan turdi. Uning zinadagi qadam tovushlarini eshitdim. U eshikni lang ochib yubordi va menga tirg'aldi.

– Demak, sen rostdan ham Xarli Pedlton emassan?

– Sizga tushuntirishga uringanimdek.

U menga darg'azab nigoh bilan o'qraydi.

– Demak sen uchun bir sent ham ololmaymiz.

– Ko'rib turganingizdek, – jilmaydim, – endi meni qo'yib yuborsangiz ham bo'ladi.

Klarens sukutga cho'mdi.

– Nega endi biz seni qo'yib yuborishimiz kerak?

Tomog'imga havo tiqilib qolay dedi. Vaqtni cho'zish kerak edi.

– Umuman olganda sizlarga qandaydir naf keltirishim mumkin. Yaxshigina o'lja. To'lov talabi bilan Pedltonga xat yo'llang.

– Nega? U sen uchun ikki yuz ming to'laydimi? Oddiy xodim uchun-a?

– To'lamay bo'pti. Gazetachilardan qo'rqadi. Meni taqdir zulmiga tashlab qo'ysa, u haqida nimalar deb yozishlarini tasavvur qilavering. Uni odam emas, maxluq

deb atashadi. Nima kerak unga bunaqa reklama? Agar u men uchun o'sha arzimasi ikki yuz mingni to'lasa, odamlar uni qahramon sanaydi.

– Ehtimol, bunda biror narsa bordir, – o'ylab ko'rib rozi bo'ldi Klarens.

Men shasht bilan bosh irg'ab ma'qulladim.

– Ana-a. Butun Amerikani uning aerochanasi egallaydi. Hali ishlab chiqarishni kengaytirishiga to'g'ri keladi. Pullar daryo bo'lib oqadi...

– Bo'пти, chalg'itma! – o'shqirdi Klarens. U meni pastga olib tushdi va qog'oz hamda sharikli ruchka berdi. – Aytganimni yoz: „Ular men uchun ikki yuz ming dollar talab qilishyapti. Pullarni bankdagi yopiq hisobga o'tkazing. Muddat – bir hafta.“

Konvert ustini to'ldirdim va markani yopishtirdim, keyin Klarens meni yuqoriga eltib qo'ydi. Endi meni o'ldirmasliklariga umid qilsam ham bo'laverardi. Balki, yana boshqa bir xat yozishga to'g'ri kelib qolar?

Oradan dushanba, seshanba, chorshanba... o'tdi. Payshanba kuni ertalab xavotir ola boshladim, xat ko'zlangan maqsad bo'yicha yetib bordimikan?

Tush vaqti soat ikkida derazadan mashinalarning uydan yarim mil narida to'xtaganini ko'rdim. Ulardan odamlar tushib keldi va hudud bo'ylab yoyilib, firmaga qarab yashirincha yaqinlasha boshlashdi.

Men shamol purkagich tuynukka televizor tomosha qilayotgan Maks va Klarensni kuzatish uchun engashdim. Politsiya xonaga otilib kirdi. To'satdan qo'lga tushgan o'g'rilar o'sha ondayoq taslim bo'ldi.

Pastga tushganimda Klarens bo'lgan voqeadan ajablanayotganini baralla oshkor qilardi.

– Bizni qanday topdingiz? – katta politsiyachidan so'radi Klarens.

U miyig'ida kulib qo'ydi.

– Xat konvertidan. Pochta indeksi noto'g'ri edi, xatni ushlab turishga to'g'ri keldi. Indeks shunchalar ahmoqona ediki, balki, janob Krouford bizga qandaydir muhim nar-sani, masalan, mashina raqamini xabar qilmoqchi bo'lgan-dir, deb o'ylab qoldik. Shunday bo'lib chiqdi ham. Biz raqamni tekshirib ko'rdik va bu och yashil sedan kimga tegishli ekanini bilib oldik.

Maks Klarensqa xo'mrayib qaradi.

– Qanday qilib mening mashinam raqami yozilgan xatni jo'natding-a?

Klarens yelka qisdi.

– Bu la'nati raqamni bilishi qayerdan kelsin xayolimga?

Ishda meni qahramonlardek kutib olishdi. Keyingi du-shanba kuni esa janob Pedlton kabinetining eshigini ochib nazar tashladi va boshqa hech kim yo'qligini ko'rib men-ga mashina kalitini uloqtirdi.

– Uilber, mashinamni hozirlang, moyning miqdorini va shinalardagi bosimni tekshiring. Kechqurun Medison-ga boraman, vaqtim yo'q...

Bu safar meni hech kim o'g'irlab ketgani yo'q.

Rus tilidan

Sarvinoz OMONOVA tarjimai

Lourens **BLOK**
(AQSH)

„BU KISHI O‘LSA“

Kechki payt Edgar Kraft Saratogdagi to‘rtinchi yo‘lda ishtirok etayotgan Chipor Tasma laqabli otga ikki yuz dollar tikdi. Sheyla laqabli ot g‘olib bo‘lishi taxmin qilingandi, ammo u birinchi burilishda muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Chipor Tasma marraga yaqinlasha boshladi. Kraft endigina yutgan pulini hisob-kitob qilmoqchi edi, ammo Chipor Tasma sakrab chopishga o‘tdi va u marraga yetib kelganidan so‘ng poygadan chetlatildi. Kraft bor pulidan ayrilib uyiga qaytdi.

Tabiiyki, ertalab uning kayfiyati juda yomon edi. Kutilmaganda shu maktub kelib qoldi. U hammasi bo‘lib oltita xat olgandi. Dastlabki beshtasi u hali-beri to‘lay olmayotgan to‘lov talabnomalari edi. Shuning uchun ularni boshqa talabnomalar turgan tortmaga tashladi. Oltinchi xatjildan esa uning baxtiga talabnoma ham, kreditga olingan avtomobili va mebelini musodara qilish haqidagi ogohlantirish ham chiqmadi. U o‘rtasida bir nechta so‘z yozilgan varaqni o‘qidi. Unda dastlab kimningdir ism-sharifi yozilgandi:

„Janob Jozef G. Naymann“.

Pastda esa quyidagi so‘zlar bor edi:

„Bu kishi o‘lsa, siz besh yuz dollar olasiz“.

U hozir hazil ko‘taradigan ahvolda emasdi. Butun poyga davomida oldinda borgan ot marraga yetay degan-

da sakrab chopsa odamning kayfiyati, albatta, tushadi. U varaqning orqa tomoniga qaradi. Ikkinchi tarafida hech narsa yozilmagandi. U xatni yana bir marta o'qidi. Xatjildni oldi. Faqat uning ism-sharifi va manzili bilan mahalliy pochta bo'limining muhri bor, xolos. Kraft ahmoqona hazil qilgan notanishni bo'ralab so'kdi va xatjildni burda-burda qilib axlat chelakka tashladi.

Keyingi hafta davomida bu g'alati maktub haqida eslamadi ham. O'zining muammolari yetarli edi. U hech qanday Jozef G. Naymanni tanimas, shuning uchun uning o'limidan keyin besh yuz dollar olishiga umid qilmasdi. U bu maktub haqida xotiniga aytmedi. Bunday kutilmagan „meros“ haqida qarzni so'rab qo'ng'iroq qilgan „Superfinans“ uyushmasi xodimiga ham lom-mim demadi.

U oylik maoshi xarajatlariga yetmasligi haqida o'y surgancha ishga borib-kelishda davom etdi. Ikki marta poygaga bordi. Bir marta o'ttiz dollar yutdi, ikkinchisida yigirma uch dollar yutqazdi. U Jozef G. Naymanni butunlay unutib yubordi.

Shunda ikkinchi maktub keldi. U shoshib-pishib xatjildni ochdi. Buklangan varaqni oldi. Stol ustiga ellik dollarlik o'n dona pul tushdi. Varaqda esa shunday so'z yozilgandi:

„Minnatdorman“.

Edgar Kraft ikki xat orasidagi bog'liqlikni darrov anglab yetmedi. U besh yuz dollar jo'natishgani u yoqda tursin, qaysi qilgan ishi uchun undan minnatdor bo'lishayotgani haqida uzoq o'yladi. Shu payt esiga birinchi xat tushib qolib ko'chaga yugurdi, tonggi gazeta sotib oldi va ta'ziyalar sahifasiga ko'z yugurtirdi.

Rostdan ham bir kun oldin, uzoq kasallikdan so'ng Park-Pleysdagi 413-uyda yashagan Jozef Genri Naymann

oltmish yetti yoshida okrug kasalxonasida vafot etgandi. Undan bir beva, uch farzand va to'rt nabira qolgandi.

Kraft uch yuz dollarni bankka qo'ydi, ikki yuzini hamyoniga joyladi. Avtomobil uchun navbatdagi to'lovni, uy haqini, mayda-chuyda qarzlarni to'ladi. To'g'ri, uning qarzlari hali ham bor edi, lekin Jozef Genri Naymanning o'limi sharofati bilan u erkinroq nafas olish imkoniga ega bo'lgandi.

„Superfinans“ uyushmasi xodimi qarzning ma'lum qismi qaytarilganidan qanoatlandi va uni birmuncha vaqt bezovta qilmadi.

O'sha oqshom Kraft ippodromga xotini bilan bordi. Hatto xotiniga ham istagan otiga pul tikishiga ijozat berdi. U qirq dollar yutqazdi, ammo aslo qayg'urmadi.

U keyingi maktubni ochmadi. Xatjild ustidagi bosma harflardanoq xat jo'natuvchi kim ekanligini bildi va bir necha daqiqa ochmasdan ushlab turdi. U notanish saxiy nimadir so'rashi va olgan besh yuz dollari evaziga biror nima qilib berish kerak bo'lishidan xavotirda edi.

Nihoyat, xatjildni ochdi. Hech qanday iltimos bitilmagandi. Boshqa ism-sharif yozilgan oddiy varaq.

„*Janob Raymond Andersen*“.

Pastroqda quyidagi yozuv:

„*Bu kishi o'lsa, siz yetti yuz ellik dollar olasiz*“.

Keyingi bir necha kun davomida Edgar Kraft janob Raymond Andersenga hech qanday yomonlik tilamayotganiga o'zini ishontirib yurdi. Axir Edgar uni tanimas, u haqda eshitmagan, unga o'lim tilamasdi. Ammo baribir...

Har kuni ertalab u gazeta sotib olar va darhol ta'ziyalar sahifasini ochib, beixtiyor janob Raymond Andersenning ismini qidirardi. „Men unga yomonlik tilamayman“, derdi u har safar ichida. Ammo yetti yuz ellik dollar... Agar

junob Raymond Andersenga biror nima bo'lganida edi, u pulli bo'lib qolardi. Lekin Andersenga narigi dunyoga ravona bo'lishga yordam bermaydi. Yo'q, yo'q, faqat bu emas. Ammo unga biror nima bo'lsa...

„Biror nima“ yuz berdi. Besh kundan so'ng u tonggi gazetada uzoq kasallikdan so'ng vafot etgan qariya Andersenga yozilgan ta'ziyanomani o'qidi. Uning yuragi gupullab urib ketdi. U o'zini aybdordek his qildi. Ammo nima uchun o'zini ayblashi kerak? U hech qanday yomon ish qilgani yo'q-ku. Andersendek qari, kasal chol og'ir azoblardan qutulgani uchun o'limidan faqat xursand bo'lishi kerak.

Lekin unga kimdir nima uchun yetti yuz ellik dollar to'lashi kerak?

Ammo to'ladi. Maktub ertasiga ertalab, uyqusiz tundan so'ng keldi. Kraft kechasi bilan xat kelish-kelmasligini o'ylab uxlay olmasdan u yonidan bu yoniga ag'darilib chiqdi. Yetti yuz ellik dollar pul va „*Minnatdorman*“ degan tanish so'z yozilgan xat keldi.

Nima uchun? U aslo tushunmasdi. U xatni tortmaga tashlashdan oldin bir og'iz so'z yozilgan varaqqa uzoq tikilib turdi.

„Tez-tez yozib turinglar“, deb qo'ydi ichida.

Ikki hafta xat kelmadi. U „Saxovatpesha notanish meni unutib qo'ymadi“, degan umidda har kuni pochta qutisini tekshirib ko'rardi. Ba'zan yigirma-o'ttiz daqiqa bo'shliqqa tikilgancha pul va xat haqida o'ylab o'tirardi. U ish qilmoqchi bo'lar, lekin xayoli sirli saxovatpesha tomon ketib qolardi. U yiliga besh ming dollar olar va bu pul uchun haftasiga qirq-ellik soat ter to'kib ishlardi. Endi esa ikkita xat bilan barmog'ini ham qimirlatmasdan bu pulning chorak qismini topgandi.

Yetti yuz ellik dollar uni qarzlaridan batamom qutqarmagan bo'lsa-da, ancha yordam berdi. Xotini kutilmaganida uyni ta'mirlatmoqchi bo'ldi. Uy haqi, avtomobil uchun pul to'lash vaqti keldi. Bir kuni poygada pul yutdi, oxir-oqibat bor yutug'iga qo'shib yana yigirma dollarni boy berdi.

Shunda yerto'la uchun havo tozalagich taklif qilingan va allaqanday xayriya jamg'armasiga pul o'tkazish iltimosi bo'lgan xatlar bilan birga uchinchi xat keldi. Havo tozalagich va xayriya jamg'armasi xatlari axlat chelakka ravona bo'ldi, uchinchi xatni esa ochdi. Yana o'shanday, faqat ism-sharif o'zgargan.

„Janob Klod Payrs“

„Bu kishi o'lsa, siz ming dollar olasiz“.

Xatni tortmaga solgan paytda Kraftning qo'llari qaltirayotgandi. Ming dollar: to'lanadigan pul miqdori boshni aylantiradigan darajaga yetgandi. Janob Klod Payrs. U birorta Klod Payrsni taniydimi? Tabiiyki, yo'q. Kim u? Tuzalmas kasallikdan o'layotgan qariyami?

Kraft bunga judayam umid qilardi. U bunday bema'ni o'ylari uchun o'zidan nafratlanar, ammo o'zini to'xtatolmasdi. U Klod Payrsning o'lishiga umid qilardi.

Bu safar u ma'lumot to'plashga kirishdi. Telefon ma'lumotnomasidan Xonideyl-drayv ko'chasida yashovchi Klod Payrsni topdi. Ma'lumotnomani yopdi va ishini qilmoqchi bo'ldi, ammo bo'lmadi. Yana ma'lumotnomani ochdi, bu kishi nimadan vafot etishini taxmin qilib telefon raqamiga uzoq tikilib turdi. Kraftga uning o'limi muqarrardek tuyulayotgandi. Agar u biror insonning ism-sharifi yozilgan xat olsa, o'sha kishi albatta o'lar, Edgar Kraft esa pul olardi. Demak, Klod Payrsning hayoti ham qil ustida turibdi.

U qo'ng'iroq qildi. Go'shakni ayol kishi oldi. Kraft janob Payrsni so'radi.

— Janob Payrs kasalxonada, — deyishdi unga. — Kim so'rayapti?

— Rahmat, — deb Kraft go'shakni qo'ydi.

„Albatta“, o'yladi u. Ular kasalxonada o'lishi muqarrar bemorlarni topishadi va bemor vafot etishi bilan Edgar Kraftga pul to'lashadi. Nima uchun pul to'lashayotgani esa Kraftni tashvishlantirmasdi. Balki, o'sha odam televizorda hikoya qilishgan telbaga o'xshar. O'sha telba har hafta odamlarga million dollardan tarqatgan. Agar biror-tasi Kraftga pul jo'natmoqchi ekan, Kraft bunga qarshilik qilmaydi.

U o'sha kuniyoq kasalxonaga qo'ng'iroq qildi. Klod Payrs ikki kun ilgari operatsiya qilinganini aytishdi. Operatsiya yaxshi o'tgan, bemor o'zini yaxshi his qilyapti.

„Bu vaqtinchalik“, o'yladi Kraft. Payrs o'limga mahkum. U Payrsga achindi, keyin esa kechki poygani o'ylay boshladi. Unga Malla Yulduz laqabli ot yoqqandi. Bu otni u anchadan beri kuzatayotgandi, balki, bugun utar.

Kraft otchoparga bordi. Malla Yulduz uning ishonchini oqlamadi. Ertalab u gazetadan Payrsga atalgan ta'ziyanomani topolmadi. Kasalxonadagilar bemorning ancha tuzalib qolganini aytishdi.

„Bunday bo'lishi mumkin emas“, o'yladi Kraft.

Klod Payrs uch hafta kasalxonada yotdi va bu vaqt davomida uni davolovchi shifokordan ko'ra Edgar Kraft uning sog'ligi bilan ko'proq qiziqdi. Bir kuni Payrsning salomatligi to'satdan yomonlashdi va hushidan ketib qoldi. Hamshiraning ovozida qayg'u sezildi va Kraft taqdiridan minnatdor bo'ldi. Ammo ertasiga Payrs o'ziga keldi. Hamshira bu haqda quvonch bilan ma'lum qildi, Kraft esa g'azabga mindi.

Shu kundan boshlab Payrsning sog'ligi yaxshi tomonga o'zgarib boshladi. U kasalxonadan chiqdi. Kraft qanaqasiga bunday bo'lganini hech tushunolmasdi. Hammasi chappasiga aylanib ketgandi. Payrsning o'limidan so'ng u ming dollar olishi kerak edi. Payrs kasal bo'ldi, Payrs hayot va o'lim chegarasiga bordi va kutilmaganda Kraftni ming dollardan mahrum qilganicha o'lim changalidan qutuldi.

Kraft keyingi maktubni kutardi. Ammo maktub kelmadi.

Uy haqini to'laydigan muddatdan ikki hafta o'tib ketdi. Avtomobil uchun to'lov ham kech qoldi, unga yana „Superfinans“ uyushmasi xodimi qo'ng'iroq qila boshladi. Kraftning boshi qotib qoldi. „Bu kishi o'lsa“, deb yozilgandi xatda. Axir, Payrs abadiy yasholmaydi-ku. Hech kim yasholmaydi. Payrs o'lishi bilan Kraft ming dollarga ega bo'ladi.

Aytaylik, Payrs bilan biror noxushlik yuz beradi...

U beixtiyor qayta-qayta shu fikrga kelardi. „Muammo bo'lmaydi“, o'zini tinchlantirardi u. U Klod Payrsqa qiziqayotganini hech kim bilmaydi. Yaxshi tayyorgarlik ko'rsa, hammasi silliq kechadi. Politsiya hech qachon undan shubhalanmaydi. Axir u Payrs bilan tanish emas-ku... Shunday ekan...

„Qo'limdan kelmaydi, – dedi Kraft o'ziga o'zi. – Bunday qilolmayman. Begunoh bir insonni o'ldirish... Aslo“.

U o'sha ming dollarsiz ham kun ko'rishga qaror qildi. Oldin shu pulsiz ham yashagan-ku. Ha, shu pullar bo'lsa yomon bo'lmasdi. Qanday sarflashni yaxshi bilardi. Ammo na iloj.

Ertasiga ertalab Klod Payrsning ismi gazetalarning birinchi sahifasida bosilib chiqdi. Tunda kimdir uning Xonideyl-drayvdagi uyiga kirgan va uxlayotgan joyida

bo'g'izlab ketgandi. Qotil kimligi aniqlanmagandi. Qotil-likka nima sabab bo'lganini ham hech kim aytolmasdi.

Kraft bu xabarni o'qirkan, o'qchigisi keldi. Payrsni haqiqatan o'ldirgandek o'zini aybdor his qilardi. U hech qanday yomon ish qilmaganini, hech kimni o'ldirmaganini yaxshi bilardi. Ammo bu haqda o'ylagan, Payrsga o'lim tilagandi.

Pul ertasiga keldi. Yuz dollarlik o'n dona – jami ming dollar pul. Va bittagina so'z yozilgan bir varaq qog'oz:

„*Minnatdorman*“.

„Menga minnatdorchilik bildirishning keragi yo'q, – o'yladi Kraft pullarni mahkam siqimlaganicha. – Minnatdorchilikning keragi yo'q“.

* * *

„*Janob Leon Dennison*“

„*Bu kishi o'lsa, siz bir yarim ming dollar olasiz*“.

Kraft bu xatni o'qirkan, yuragi qinidan chiqib ketgudek urardi. U xatni ikki marta o'qib chiqdi, so'ng xatjildga solib, mayda-mayda qilib yirtidi va axlat chelakka tashladi.

Kraftning boshi og'rib qoldi. U dori ichdi, ammo bosh og'rig'i qolmadi. Tushgacha u ishxonada hech narsa qilmasdan o'tirdi. Tushlik paytida qahvaxonaga kirdi, ovqat ta'mini sezmasdan ovqatlandi. Ishga qaytgach, kechki payt Saratogda bo'ladigan poyga haqida o'ylamoqchi bo'ldi. Ammo xatdagi satrlar uning ko'z oldidan ketmasdi. U ishdan ertaroq chiqdi va ko'chani aylanib yurdi.

„*Janob Leon Dennison*“.

Dennison Kedbyuri-avenyudagi uyda yashardi. Go'shakni hech kim ko'tarmadi. Dennison advokat bo'lib, telefon ma'lumotnomasida ishxonasining raqami ham bor

edi. Kraft qo'ng'iroq qilib ko'rdi, kotiba janob Dennison yig'ilishga ketganligini aytdi.

„Bu kishi o'lsa“.

„Ammo Dennison hali-beri o'ladigan emas“, o'yladi Kraft. Har qalay, kasalxonada o'lmasligi aniq. Dennison o'zini juda yaxshi his qilyapti, ishlayapti va xatni yozgan odam bu haqda biladi.

„Bir yarim ming dollar“.

Ammo qanday qilib? Uning to'pponchasi yo'q, qayerdan olishni ham bilmaydi. Pichoq? Klod Payrsni pichoqlab o'ldirishgani uning yodiga tushdi. Pichoqni topish ham oson. Ammo... buni istamasdi.

Unda qanday qilib? Avtomobil? Amalga oshirsa bo'ladi. U Dennisonni xoliroq joyda poylashi va bosib ketishi mumkin. Lekin politsiya birpasda topadi. O'lgan shaxsga tekkan bo'yoq yuqidan, avtomobil bamperida qolgan qondan. U qanday qilib topishlarini aniq bilmasa-da, avtomobilda odam o'ldirganlarning aksariyati panjara ortiga tushishini bilardi.

„Bu fikrni miyangdan chiqar, – dedi u o'ziga o'zi. – Sen qotilmassan“.

Lekin bu fikrni miyasidan chiqarolmadi. Ikki kun boshqa narsalar haqida o'ylashga urindi, ammo bo'lmadi. Xayoli Dennison va va'da qilingan pulga ketaverdi. Bir yarim ming dollar. U qotillik qilish haqida o'ylardi.

„Bu kishi o'lsa“.

U bir kuni ertalab turdi va Kedbyuri-avenyuga bordi. Leon Dennisonning uyini uzoq vaqt kuzatdi. Dennison uyidan chiqdi. U avtomobili oldiga borish uchun yo'lni kesib o'tayotganida Kraft oyog'ini gaz tepkisiga qo'ydi va Dennisonni mashinasiga qapishtirib tashlash uchun tepkini bosishiga sal qoldi. U vaqtida o'zini to'xtatdi va Dennisonning mashinaga o'tirib ketishini kuzatib turdi.

Keyin bu ishidan xursand bo'ldi. Aytaylik, uni ushlab olishdi. Uning xat jo'natayotgan odam bilan hech qanday bog'liqlik joyi yo'q. Hamma xatlarni yo'q qilib tashlagan, xatlar bo'lgan taqdirda ham ularni jo'natgan odam kimligi noma'lum.

„Bir yarim ming dollar“.

Payshanba kuni tushdan so'ng u xotiniga qo'ng'iroq qildi va ishdan keyin to'g'ri Saratogga ketishini aytdi. Xotini odatdagidek norozilik bildirdi, ammo tortishmadi. Kraft Kedbyuri-avenyuga bordi. Eshikbon qahvaxonaga kirib ketishini kutib turdi va yugurib uyga kirdi. Leon Dennisonning xonadoni eshigini topib, qalamtarosh yordamida qulfni ochdi. U qulfni ochguncha xuddi politsiya kelib ushlab oladigandek terlab ketdi. Ammo hammasi xamirdan qil sug'urgandek bo'ldi, u ichkariga kirib, eshikni yopdi.

U ostonadan ichkariga qadam qo'yishi bilan unga nimadir bo'lgandek bo'ldi. Qo'rquv, vahima, hayajon – hamma-hammasi g'oyib bo'ldi. Dennisonning xonadoniga xuddi boshqa Edgar Kraft kirgandek edi. „Hammasi aniq, – dedi u o'ziga o'zi. – Jozef G. Naymann hukm qilingandi. Raymond Andersen ham, Klod Payrs ham. Hammalari o'lishdi. Endi Leon Dennison o'limga mahkum va nima bo'lmasin u ham o'ladi“.

Hammasi aniq va tushunarli. U, Edgar Kraft katta bir o'yinda bor-yo'g'i bir piyoda. U o'ziga ajratilgan vazifani bajarishi lozim. Hammasi rejadagidek bo'lishi shart.

Hammasi rejadagidek bo'ldi. U Leon Dennisonning kelishini uch soat kutdi. Eshik qulfi shiqirlaganda Kraft qo'lida kamin uchun o'tin yoradigan boltachani baland ko'targanicha oyoq uchida eshik ortiga bordi. Eshik ochilib, Dennison ichkariga kirdi.

Boltacha zarb bilan tushdi.

Leon Dennison ovoz chiqarishga ham ulgurmay quladi. Boltacha yana ikki marta uning boshiga tushdi. Leon Dennison na qimirladi va na ovoz chiqardi. Kraft eshik tutqichini, barmoq izlari qolishi mumkin bo'lgan hamma joy va buyumlarni artib chiqdi. So'ng uydan bildirmay chiqib ketdi. Uni hech kim ko'rmadi.

U tuni bilan vijdoni qiynalishini kutdi. Ammo vijdoni qiynalmaganidan hayron qoldi. U allaqachon, Andersenga o'lim tilagan, Payrsning o'limini rejalashtirgan paytdayoq qotilga aylanib bo'lgandi. Xayolan qotillik qilishni amalda qo'llash unga deyarli qiyin bo'lmadi.

Ertasiga xat kelmadi. Maktub oradan bir kun o'tgach keldi. Xatjild anchagina qalin edi: ichidan o'n besh dona yuz dollarlik pul va bir varaq qog'oz chiqdi.

Bu safar matn o'zgargandi. Odatdagi „*Minnatdorman*“, degan so'zdan keyin quyidagi so'zlar yozilgandi:
„*Yangi ishingiz yoqdimi?*“

*Rus tilidan
Dilshodbek ASQAROV tarjimasi*

Nodar DUMBADZE

(Gruziya)

YURAGIMNING BIR PARCHASI

Jo'ka daraxtining ostida boshini quyi solganча buzoqlarining arqonini ushlab yaltirbosh bolakay o'tiribdi. Yoshovsiragan ko'zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikib o'y suryapti: „Bu chol dadamning xuddi o'zi! Oppoq sochlari... Qop-qora qoshlari... Keng burni... Chiroyli ko'zlari... Ovoziyam mayin, shirali... Ko'zimni yumib tursam tovushidan dadam deb o'ylayman!..“ Bola ko'zlarini yumdi.

– Men shuning uchun sizni bezovta qildim, azizim Kishvardi... Ortiq darmonim qolmadi. Umuman qo'ldan chiqib ketdi bu yaramas. Hamma bolalar bir go'r – kitobga yaqin yo'lamaydi, buyam shu. Kechasi-yu kunduzi mana shu buzoqlari bilan birga. Uchinchi chisloda nima qilganini bilasizmi? Gospodzedagi mahalla qudug'iga xumday tarvuzni uloqtiribdi! Mana, bir haftadan beri ikkita xonadon suv o'rniga sharbat ichib o'tiribmiz!..

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o'g'lim?! Mayli, siqilmang, azizam Yuliya. Men uni Guriyaga opketaman, chinning uchiga oyog'idan osib qo'yaman. Qo'yday yuvosh bo'lib qoladi!

– Nimaga uni osib qo'yasiz bilmadim-u, lekin bir gap xayolinga keldi: onasining juda baxti kulgan ekan – bu yaramasni ko'rmay o'tib ketdi. Aytganday, otasiniyam baxti kulgan...

– Nima deb o‘ylaysiz, qadrdonim Yuliya, uni eplay olarmikanman?

– Bilmayman, hech baloni bilmayman... O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: yaqinda uni tegirmonga bergandim. Eng zo‘r, saralab qo‘yilgan makkajo‘xorini o‘g‘irlab gumdon qilgan. Qo‘lida besh funt, yelkasida un bilan qaytib keldi. Qolgan narsalarni Valiko Kukulashvilining sayoq arzandalariga bo‘lib bergan, menimcha. „Bola-chaqam ko‘p, och-nahor o‘tiribdi“, deb zorlanardi bechora. Eh, tavba-yey!

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o‘g‘lim?!

– Bu hali holvasi! Avvalgi kuni Kukuri Ugulava degan betayin o‘rtog‘i bilan o‘zining geografiya o‘qituvchisi Datikko Sveravaning bog‘iga o‘g‘irlikka tushgan. O‘ylaganiam qo‘rqib ketasan odam!.. Shaftoli terishgan-da, oborib tovuqqa almashtirishgan! Eh, tavba-yey!

– E Xudoyim-ey! Shunaqami, o‘g‘lim?!

– Ha, buncha „shunaqami“, „shunaqami“ deb takrorlab qoldingiz! Meni aldayapti deb o‘ylayapsizmi?

– Nega endi, nega endi, azizam Yuliya! Nahotki, uni bu yo‘ldan qaytarib bo‘lmasa?! Nahotki, diydasi qotib bo‘lgan bo‘lsa?!

– Yo‘q, nima deyapsiz... Uni qutqarish mumkin, albat-ta. Ammo bunga mening qurbim yetmaydi. Buning uchun erkak kishining qattiq qo‘li kerak. Bundan tashqari, peshanamda yana ikkitasi bor – Zurab bilan Vaxtang, Koli-ginamning bolalari, ular sal tuzuk.

– Him... Nima desam ekan sizga, azizam Yuliya. Ota-onasi hayotlik payti meni bolaga zig‘irchayam ya-qinlashtirmasdi. Men unga begonaman, tushunyapsizmi, begona!..

– Bunday demang, azizim Kishvardi. U nima qilsayam o‘g‘il bola, erkak bilan erkakning til topishishi osonroq... Buning ustiga u naslingiz davomchisi...

— Ha, albatta... O'qishlari qanaqa uning, azizam Yuliya?

— Him!.. O'z o'qituvchisining bog'iga o'g'irlikka tushgan, „Dekameron“ degan uyat kitob uchun buvisining kumush qoshiqlarini sotib yuborgan bolaning o'qishi haqida nima deyish mumkin?! Bir o'ylab ko'ring-chi, azizam Kishvardi!

— Shunaqami, o'g'lim?! Bo'ldi! Uni Guriyaga opketaman, chinorning uchiga oyog'idan osib qo'yaman!

— Buni qarang, biz uning tashvishini chekayotibmiz, pinaginiyam buzmaydi-ya! Kimga gapiryapsan demaydi!

Bola jo'ka daraxtining ostida ko'zlarini yumib o'tirar va o'ylardi: „Bechora Yuliya buvim charchadi. Oldin ovozi qanaqangi yoqimliydi, hozir shang'illaydi. Yo meniga shunaqa tuyulyaptimikan? Bobom bo'lsa shoshmasdan, hovliqmay gapiryapti... Ha, ko'rinib turibdi, buvim charchagan. Agarda meni hozir bobom bilan jo'natib yubormaganda edi, hech qachon uni qiynamagan bo'lardim. Qaniydi... Qaniydi...“

— U yetim, azizam Yuliya... Faqat jazolash yaramaydi, mehr ham kerak.

— Yetimdan yetimning farqi bor! Keragicha mehr ko'rsatdim, qani bilsa! Mehrmish-a...

— Shunaqami, o'g'lim?! Men uni Guriyaga opketaman, oyog'ini osmonga qilib osib qo'yaman... Qachon olib ketishim kerak, azizam Yuliya?

— Hoziroq! Tayyorlanishiga hech qancha vaqt ketmaydi.

— Shunaqa deng... Hech balosi yo'q-da, a?

— O'tgan yili Avchaladan qanday olib kelgan bo'lsam shunday yuribdi, azizam Kishvardi... Xohlasangiz o'zingiz shohona sarpo olib berarsiz...

— Bechora bolam...

— Yo'l oldidan ovqatlanib olsalaring bo'lardi, azizam Kishvardi...

– Ha yo‘q, tashvishlanmang, azizam Yuliya... Samtre-diada tamaddi qilib olamiz, uyog‘iga Xudo poshsho.

– Ixtiyoringiz... Oq yo‘l sizga. Xizr yo‘ldoshingiz bo‘lsin!..

– Xudo quvvat bersin, azizam Yuliya!..

– Aytmoqchi, mana bularni ham ovoling.

– Nima bu?

– Uning har xil hujjatlari. Menimcha, sentabrda maktabga olib borasiz. Shunga kerak bo‘ladi. To‘rtinchi sinfga o‘tdi... Ma‘lumotnomada xato ketib qolgan: Lomjariya Nodari o‘rniga Lomjariya Nadiri deb yozishibdi. Menimcha, bu xatoyammas, aslida, to‘g‘ri yozishgan.

– Shunaqami, o‘g‘lim?! Men uni Guriyaga opketaman, chinorning uchiga oyog‘idan ilib qo‘yaman...

– Qayeridan ilsangiz iling, lekin ortiq ko‘zimga ko‘rinmasa bo‘lgani.

– Oyog‘idan ilaman, oyog‘idan...

– Xudo quvvat bersin.

– Uni shunday ko‘yga solayki, holiga maymunlar yig‘lasin.

– Xo‘p, xayr bo‘lmasa, azizim Kishvardi.

– Yaxshi qoling, azizam Yuliya.

Mazkur oldi-berdi marosimi 1938-yil avgust kunlarining birida, tush payti Xoni qishlog‘ida Nodar Lomjariyaning buvisi, aniqrog‘i, onasining onasi – qadrli Yuliya Mikeladze va guriyalik bobosi, aniqrog‘i, otasining otasi janob Kishvardi Lomjariya o‘rtasida bo‘lib o‘tdi.

Bir soat o‘tgach bola, aniqrog‘i, 1928-yilning 14-iyulida Tbilisi shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan Nodar Lomjariya tandirday qizigan tuproq yo‘l bo‘ylab bobosining ortidan g‘amgin sudralib borardi...

* * *

Bobo bilan nevara Xonidan Kulashgacha foytunda, Kulashdan Samtrediaga lineyka¹da yetib olishdi. Keyin tamaddi ham qilmasdan Choxatauridan o'tadigan choy fabrikasining yuk mashinasiga chiqishdi. U yerdan Int-abueti qishlog'igacha piyoda ketdilar.

Bobo oldinda, nevara orqada. Bobo keksalarga xos xasta tovushda yo'taldi, ihradi. Ro'paradan kelayotgan yo'lovchini ko'rib jim qoldi, tezda imo-ishora bilan salomlashdi-da, so'ng yana yo'taldi, ihradi. Gohida u bolaga jim tikilib qoladi. Bu xuddi so'nggi zurriyodini yo'qotishdan qo'rqqan qari otning nigohiga o'xshaydi.

Bola qadam tashlar va o'ylardi: „Bechora chol nimjon, kasalmand... U meni daraxtga oyog'imdan osib qo'ymoqchi... Bu chol – mening bobom. Dadamning dadasi. Bobom! Uning ortidan ergashib yurishga meni nima majbur qilyapti? Xuddi qulga o'xshab indamay, ho'shshayib ketyapman. Ikki marta sakrasam – tamom! Nima meni ushlab turibdi? Charchab, ochqab, issig'-u chanqoqdan o'lgiday bo'lsam ham qochib ketmayman. Nega? Bu kuchning nomi nima?“

– Nimalar haqida o'ylayapsan, o'g'lim? – o'girilib savol berdi chol.

– Hech narsa haqida o'layotganim yo'q! – dedi dovdirab qolgan bola. U hamma narsani kutgandi, lekin bunaqa savolni emas.

Chol yo'lining chekkasiga borib o'tirdi. Yo'talib, nafasini rostlab olgach, bolaga tikildi, keyin barmoqlarini bukib, sanashga tushdi: 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38.

¹ *Lineyka* – lineyka (ko'p o'rinli uzun arava).

– Yigirma sakkizinchi yili tug‘ilganding. Hozir o‘ttiz sakkizinchi yil. Demak, o‘n birga kiribsan... Kap-katta yigit bo‘pqolding... Qanday qilib hech narsa haqida o‘y-lamasliging mumkin? Yo o‘z bobongdan yashirasanmi?

– Yo‘q, nega endi, hech narsa haqida o‘ylaganim yo‘q edi.

– O‘ylaydigan vaqting kelgan, o‘g‘lim, vaqting kelgan.

Chol yo‘talib, inqillab turdi-da, yo‘lida davom etdi. Bola bobosining ortidan xuddi yuki og‘ir aravaday boshini egib, qulog‘ini ding qilib qadam tashlardi...

* * *

Bola – oftobda qoraygan, sochlari hurpaygan – chinor tagida belkurakka suyanib turibdi, ko‘zlarini loy-balchiq qotib qolgan yalang oyoqlariga tikkancha o‘y suryapti: „Bir yilning ichida butkul qarib, munkayib qolibdi. Yuzida ajin to‘la. Ovozi qanaqadir bo‘g‘iq. Lekin bari-bir u mening ayamga – yosh, chiroyli, muloyim, qora-ko‘z, mehribon ayamga o‘xshaydi. Qadam tashlashiyam, ovoziyam... Ko‘zimni yumib tursam tovushidan ayam deb o‘ylayman!“ Lekin bola ko‘zlarini yummedi. Qo‘rqib ketdi.

– Tinchimni yo‘qotdim, azizim Kishvardi! Onasining bezovta nigohi o‘ngimdayam, tushimdayam namoyon bo‘lyapti... Uning ovozi har qadamda meni ta‘qib qiladi... Uni olib ketgan kuningizdan beri yuragim sug‘urib olinganday tentirab yuraman... Bolani menga qaytaring, azizim Kishvardi!..

– Him... U, azizam, sizdan olgan vaqtimda bola edi. Hozir – kap-katta yigit, hamma narsani o‘zi hal qiladi. Agar siz bilan ketishni istasa, men hech qanday qarshilik bildirmayman.

— U mendan xafa... Uni men bilan qaytishga ko'ndira oladigan yagona odam sizsiz, azizim Kishvardi...

— Axir unga o'xshaganidan sizda yana ikkita bor-ku, qadrdonim Yuliya... Hech bo'lmasa bittasini menga qoldiring!

— Nahotki gap sonda bo'lsa?! O'nta bo'lsa o'rni, qirqta bo'lsa qiligi boshqa. U mening nabiram, qadrdonim Kishvardi!

— Shundayku-ya... Lekin men nima qilishim kerak? Axir o'limimdan keyin avlodimizni davom ettiradigan yagona merosxo'rim u...

— Men uning familiyasini o'zgartirmayman! Mayli, ikkita Lomjariya bo'la qolsin, lekin uni menga qaytaring.

— Demak, bolani olib ketgani kelibsiz-da, azizam Yuliya?!

— Narigi dunyoga gunoh bilan ketishimga yo'l qo'ymang! U yerda onasining ko'ziga qanday qarayman?!

— E, azizam Yuliya, Xudo bilar kim oldin ketar. Agar-da men sizdan oldinroq o'lsam, onasi bilan dadasining ko'ziga qanday qarayman?

— Xudo umringizni uzoq qilsin, azizim Kishvardi.

— Dalam ham, uzumzorim ham, tegirmonim ham, qabrim ham, xokim ham mana shu bolaniki... Yo'q, o'lsam ham uni sizga bermayman!

— Bo'lmasa men o'zimni o'ldiraman. Hoziroq, ko'zingizning oldida!

— Xudo xayringizni bersin, azizam Yuliya, nimalar deyapsiz!.. Buving bilan ketasanmi, o'g'lim?

— Rostini aytarmidi... U sizdan iymanyapti!

— Shunaqami, o'g'lim?!

— Unga ona mehri kerak, azizim Kishvardi! Oq yuvib, oq tarash lozim. Siz onasining o'rini bosa olarmidingiz?..

– Nimalar deyapsiz... Men u bilan shu paytgacha, Xudoga shukur, yomon yashamadim... Loaqal sizni yordamga ham chaqirmadim-ku...

– Siz haqsiz, siz haqsiz, azizim Kishvardi. Lekin bari-bir... Bolaning oyoqlarini uyqudan oldin yuvish, maktabga kuzatib qo'yish... Bular erkaklarning ishi emas!..

– Bizning maktab azobxonona emas... Unaqa narsalar sizlarning maktablaringda edi, bolani yovvoyiga chiqarishgandi, eslashimcha, siz ham ularning fikriga qo'shilgan edingiz...

– Nega o'shanda tilim uzilib tushmadi ekan, a!

– U mening qo'limda farishtaga aylanib qolmagan, shaftoli o'g'irlashniyam tashlagani yo'q...

– Quyilib qolar!

– Yo endi un ulashmay qo'ydi deb o'ylayapsizmi?

– E, uniyam boshida qolsin! Hamma narsam uniki, menga desa xonumonimga o't qo'yib yubormaydimi – g'iring demayman!

– Chekyaptiyam, yaramas!

– Shunaqami, o'g'lim?!

– Siz, mana, mendan so'rang! Tamaki xaltamniyam, hamyonimniyam ship-shiydam qildi!

– Mayli, sog'lik uchun oz-moz chekib tursa hechqisi yo'q. Axir o'zingiz aytdingiz-ku-u endi kap-katta yigit!..

– Yana bir oy sabr qiling. Pilla tutganim uchun mukofot puli olaman, bolani kiyintiraman... Bunaqa juldurvoqi ahvolda siznikiga ketmaydi!

– Siz faqat javob bering. Kiyim, poyabzal olib bering – mening ishim! O'zimnikini yechib bo'lsa ham unga kiydiraman!

– Him, sizning kiyimlaringiz unga rosa loyiq tushadi!

– Albatta, sizga hazil, o'yin-kulgi. Mening esa yuragim qon bo'lib ketyapti!

— Axir, aytdim-ku: u allaqachon kap-katta yigit bo'lgan. O'zi hal qilsin!

— Siz — uning uchun avliyo darajasidasiz, nima desangiz ishonadi, nimani qil desangiz qiladi... Ayting unga, azizim Kishvardi!..

— Xudodan qo'rqsangiz-chi, azizam Yuliya. Axir qanday qilib o'z jigarbandimga, tomirida qonim oqib turgan bolaga uyimdan ket deb ayta olaman?!

— Nima, men unga begonamanmi? Axir u mening ham jigarbandim, yuragimning bir parchasi. Xudo biladi, bir yil umrim qoldimi-yo'qmi. O'tinaman sizdan, ajalimdan besh kun burun o'ldirmang, bolani menga baxshida qiling!

— Azizam Yuliya!

— Oldingizda tiz cho'kaman, tiz cho'kaman!..

— Nimalar qilyapsiz! Turing o'rningizdan! Xudo xayringizni bersin!..

— E qodir Xudoyim, unga baxt-u saodat in'om et!

— Endi mening ortiq shodligim ham, baxtim ham qolmadi...

— E bor Xudoyim...

— Buving bilan ket, o'g'lim...

Mazkur suhbat biz boshda hikoya qilgan bobo-buvi ishtirokidagi voqealardan rappa-raso bir yil keyin sodir bo'ldi. Bu galgi jarayon oldi-berdi marosimi emasdi. Bu ikki qaynoq qonning to'qnashuvi, ikki olovli yurakning volasi edi. Bu ikki mehr o'tining kurashi sabab bolaning yuragi shiddat bilan tepa boshladi, tomog'iga allanarsa tiqilganday bo'ldi, tanasini sovuq ter bosdi, titroq butun vujudini lovullatib yubordi. Qandaydir ko'rinmas kuch uni zarb bilan buvisi tomon tortardi, biroq xuddi shunday shiddatkor ohanrabo uni bobosi tomon yetaklardi. Bola bir necha bor shunday og'riqni his qildi — go'yo uning

vujudi qaynoq suv ichida qoldi. Chol bilan kampir o'rta-sida kechgan qizg'in, shiddatli bahs tugamaguncha bolani qandaydir qo'rquv, allaqanday ko'ngilsizlikni kutish azobi tark etmadi.

Buvi o'midan turib bolaga yaqin keldi, uni quchog'i-ga oldi.

— Bolaginamdan yodgorim, ko'zlarimning nuri, yur men bilan, kemtik bag'rimni to'ldir, bolajonim!..

Kampir yig'ladi, uning issiq ko'zyoshlari bolaning boshiga tomchiladi. O'pkasini bo'shatib olgach, bolani sekingina bag'riga tortdi, biroq u xuddi temir qoziqday, tomirlari yerning qa'r-qa'riga singib ketgan daraxt singari joyidan jilmay, harakatsiz turardi.

— Buving bilan ket, o'g'lim, bechora buvingni xafa qilma... Diydoringga to'yib olsin, keyin mening oldimga yana qaytib kelasan... Men ungacha seni kutib o'tiraman, g'amga to'lib o'tiraman... Sen nima deb o'ylaganding? Mana shunaqa, nevara bo'lish osonmas! Og'ir, juda og'ir, ayniqsa men bilan buvingga o'xshagan dardibedavolar-ning nevarasi bo'lish qiyin... Boltang, belkuraging, ketmoning, to'qmog'ing, savating, sigiring, aravang hech qayoqqa ketmaydi, qaytishingni kutadi...

Bola boboning so'zlarini eshitib hayron qoldi: bolta, ketmon, belkurak, savat hovlining boshqa-boshqa tomoni-da ag'anab yotardi, sigir, arava, echki bo'lsa umuman boshqa tarafda edi, lekin bobo ularga qaramay qo'li bilan turgan joylarini aniq ko'rsatib berardi. Bobo so'zida davom etdi:

— Mana sumkang, darsliklaring — gruzin tili, tarix... Yana nimang qoldi? Hech nima... Shiming, ko'ylaging, shippaging — egningda. Samtrediagacha yalangoyoq ketgin, bo'lmasa shippaklaring uygacha yetib bormaydi. Bo'pti... Bo'l endi tezroq!

* * *

Kishvardi Lomjariya nevarasi hozir temir qoziqqa, tomirlari yerning qa'r-qa'rigacha singib ketgan daraxtga aylanganini tushundi, juda-juda chuqur ketgan bu tomirlarni oddiy nasihat bilan sug'urib bo'lmasdi. Boshqacha yo'l tutish kerak edi. Lekin qanaqa?

Kishvardi Lomjariya nevarasi girdobning o'rtasida chirpirak bo'layotganini, ikki avlodning shiddatkor, jangovar qoni uni ikki tomonga zarb bilan tortayotganini ham angladi. Ularning qaysi biri ustun keladi? Qay bir qon g'alaba qozonadi? Bu kurash nima bilan tugashini kutish foydasiz... Ularning qaysidir biri qaynoq qonlar ko'pirayotgan kurash daryosini yorib chiqishi, yangi o'zanga qarab oqib ketishi kerak.

Va nihoyat... Kishvardi Lomjariya buvidan oldinroq harakat qildi:

– Xo'sh, yana nimani kutyapsan? Sen bilan aytishishdan charchadim!

Bola bobosiga qo'rqa-pisa qaradi.

– Jo'na, orqangga qayrilib qarama! Tushundingmi?!

Bolaning qalbini bobosiga bo'lgan qattiq achinish va buvisiga bo'lgan shafqat hislari birvarakayiga zabt etdi. Ich-ichidan to'lib kelayotgan yoshlar bolaning ko'zini xira parda bilan qopladi, boshi o'z-o'zidan ko'ksiga egilib qoldi, bir og'iz so'z aytmasdan xuddi yuki og'ir aravaday Choxataurning tuproq yo'liga burildi. Qarib-munkillab qolgan, boshdan oyoq qora kiyingan buvisining ortidan ergashdi...

Kishvardi Lomjariya toshning ustiga borib o'tirdi-da, mis idishdagi suvning qaynashini kuta boshladi.

Kishvardi Lomjariya olovga tikilganча xayol surardi. Ayni damda noxush o'ylardan qutulishga, ulardan yashiri-

nishga urinardi. Lekin o'zingdan qayga qochasan? Axir odam ojiz banda-ku... „Bolani berib yubormaslik kerak edi... Lekin kampirning anduhiga dosh bera olmadim... Endi bo'lsa o'zim xuddi o'shanday holatga tushib o'tiribman. Keyingi hafta kampirnikiga boraman, bolani qaytarib berishini so'rayman. Bermasa, kuch bilan olaman... Aytaman, „Jigarbandimni, yuragimning bir parchasini, tomirimdagi qonimni tortib olishga nima haqqing bor?! Axir sen Xudo emassan!“ Lekin... u ham menga xuddi shu so'zlar bilan javob qaytarishi mumkin-ku! Axir men ham ojiz bandaman... Axir bola menga qanday rishtalar bilan bog'langan bo'lsa, unga ham shunday yaqin-ku. Eh, odam bo'lish qiyin, judayam qiyin. Ahvolim Yaratganga ayon, bandangga o'zing rahm qil Xudoyim... Keyingi hafta boraman-da, kampirning oyoqlariga yiqilaman. Yo'q, bir haftagacha sabr qilolmayman... Ertadan keyin boraman... Yo'q, ertagayoq! Ertaga azon payti yo'lga tushaman. E Xudo, tezroq tong ota qolsaydi...”

Kishvardi Lomjariya toshda o'tirib shunday o'ylar surardi. Mis idishdagi suv qaynagan payti darvoza to'satdan ochildi, bo'sag'ada bolaning egilgan boshi va yelkasiga boylangan shippaklari ko'rindi.

– E Xudo! O'zingga shukur!

– Men qaytdim, – pichirladi nevara.

– Qaytishingni bilardim, – dedi bobo.

So'ng mis tog'oraga qozonchadan issiq suv quydi-da, nevarasining horg'in oyoqlarini uzoq yuvdi. Keyin unga deb so'riga joy soldi, o'zi bo'lsa kichkinagina uychasiga uxlagani kirib ketdi. Cholni yarim kechasi bolaning ovozi bezovta qildi:

– Bobo, siz bilan yotsam maylimi?

– Kel, o'g'lim.

Bola bobosini quchoqlab oldi.

„Bechora, hamma yog'i muzlab qolibdi!“ – o'yladi nevara.

„Qanaqa tafti bor, a!“ – o'yladi bobo.

Biroz vaqt o'tgandan keyin bobo so'radi:

– Bilasanmi, seni nima qaytardi?

– Yo'q!

– Bilib ol, o'g'lim, tomiringda oqib turgan qon seni men tomon yetakladi. Qon, yurak qoni shunaqangi katta kuch, o'g'lim!..

Keyin butun tun davomida ular bir og'iz ham gapirishmadi. Hech nima haqida o'ylamadilar, hech nima haqida gapirmadilar.

Bobo va nevara shirin uyquga ketdi...

Ikki tanada oqqan bir xil qon – mehr qoni o'yladi, gapirdi. Lekin u nimalar haqida o'yladi, nimalar haqida gapirdi – yolg'iz Xudogagina ayon!..

Rus tilidan

Orif TOLIB tarjimasi

Rey **BREDBERI**
(AQSH)

YANGI MUALLIMA

O'sha hafta Anna Teylorning Yashil shahar markazidagi yozgi maktabga dars berish uchun kelgan haftasi edi. Xuddi o'sha kuni u rappa-raso yigirma to'rt yoshga kirdi. Anna Teylor bilan bir kunda esa kichkina Bob Spaulding ham o'zining o'n to'rt bahorini qarshi oldi.

Yosh muallimani hozirgacha hamma sog'inch bilan eslaydi. Negaki u hali yosh bo'lsa-da, birdaniga barcha o'quvchilarning mehrini qozona olgan, ularning tilini topib, yaqindan muomala qila olgan eng birinchi ustoz edi. Anna Teylor sinf xonasiga ilk qadam qo'ygan kundanoq go'yo hamma yoq yashnab ketgandek bo'ldi, bolalar yangi o'qituvchilariga deb katta-katta, mazali apelsinlar, nim pushti, qiyyg'och gullar, ularga hech kim tayinlamagan bo'lsa ham, yashil va sariq rang aralash dunyo xaritasini o'ramlab, darsga olib kelishgandi. Anna Teylor bu eski shahar ko'chalari bo'ylab o'tganida, ulkan eman daraxtining sershox novdalari uning boshi tomon asta egilar, hovuch-hovuch nur o'sha novdalar oralab muallimaning yuziga mayin to'kilib qolardi. Anna bolalar uchun misoli izg'irin qishdagi mazali shaftoliday yoki bo'lmasam issiq saraton chog'idagi to'yimli boshoqli ekindek juda kerakli bo'lib ko'rindi. Chindanam aynan shunday edi. Zotan, Anna Teylor yordam va daladaga muhtoj har bir o'quvchisi uchun hamma vaqt shay,

jonsarak bo'lib turardi. Bolalar uni bir zumda yaxshi ko'rib qolishgandi. Ammo o'sha kunlar negadir juda tez o'tib borardi. Balkim, Anna bilan bolalarga shunday bo'lib tuyulardi dars paytlari. Ularning hech biri vaqtning bu qadar tez o'tishini aslo-aslo istamas edi.

Biroq kichkina to'polonchi Bob Spaulding uchun dunyoning ishlari hech narsamas, u oktabrning salqin tonglaridan biridagina qo'liga darsxaltasini olib, erinchoqlik bilan endi maktab tomon yo'lga tushgandi. U uchun darslar endigina boshlangandek edi. Yo'l bo'yi bu sho'x bolakay saxovatli kuzning bor manzarasini, ariq to'la oqib ketayotgan zilol va muzdek suvni, daraxt tanalari bo'ylab o'rmalab, yuqoriga tirmashayotgan bir gala chumolilar karvonini, bayramlar arafasida bezatilayotgan ko'chalar va bog'larni astoydil, miriqib kuzatib bordi. Hatto u bir o'rindiqla o'tirib olib, atrof-tevaragiga yana bir-bir ko'z tashlab chiqdi. Yolg'iz bir o'zi o'tirarkan, dimog'ida qandaydir bayram kuyini ming'illagancha xirgoyi qilib, buvisining dashnomli so'zlarini esladi: „Bob, sandiroqlab yuravermasdan, to'g'ri maktabingga borgin!“

„Obbo buvijonim-ey!“ Bob shundan keyingina sekin o'rnidan turdi, o'rindiq chetida turgan darsxaltasini bo'yniga ildi-da, endi biroz jadallik bilan maktabga qarab yurib ketdi. Bob hech qachon biron bola bilan yaqin bo'lmagan, har doim yolg'iz yurardi.

U xonaga kirib kelganida, o'quvchilar o'zlarining ikkinchi darslari uchun tayyorgarlik ko'rmoqda edilar. Bob asta sirg'alib eshikdan kirdi-yu, eng oxirgi qatordagi joyiga borib o'tirib oldi. Oradan hech qancha o'tmasdan yangi muallima Anna Teylor ham sinfxonaga kirib keldi. U hali bolalarning yodidan chiqib ketgandir, degan ehtiyot shart bilan doskaga kattaroq harflar bilan qaytadan o'zining ismini yozib qo'ydi.

„Mening ismim Anna Teylor“, – dedi u yozib bo‘lgach, bolalarga dona-dona qilib so‘zlarkan, – „Men sizlarning yangi o‘qituvchingiz bo‘laman“.

O‘quvchilar xursand bo‘lib chapak chalib yuborishdi. Bob esa hayron bo‘lgancha, dam doskaga, dam to‘g‘risida turgan notanish muallimaga qarab, lom-mim demay jim o‘tiraverdi. Ammo ichida uning shaytoni qo‘zib, bu o‘qituvchini bir balo qilib bo‘lsa ham, tezroq ketkizish kerak, degan quvlik bilan qulay fursatni poylab qoldi ayni damda. O‘sha kuni darsdan so‘ng u bir chelak suv bilan tozalagich lattani olib, doskaga yozilgan keyingi mavzuga oid barcha ma‘lumotlarni bitta qo‘ymay, hammasini artib chiqdi. Doska top-toza bo‘ldi. Bob xotirjam nafas olib, yengil tortgan holda uyiga jo‘nadi.

– Bu nimasi? – Ertasi kuni ertalab sinf xonasiga kirib kelgan Anna Teylorning ilk savoli shu bo‘ldi. U hayron bo‘lgancha tozalab artilgan doskaga alam bilan tikilib turar, hech narsadan xabari yo‘q bolalar ham begunohlarcha yelkalarini qisib xomush turishar edi. Faqat birgina Bob Spaulding qilgan ishidan zavqlangancha kekkayib o‘tirar, u hamma bolalarga, ko‘rib qo‘ylaring, mana bunday bo‘ladi, degandek faxrlanib qarardi. Shu payt birdan yosh muallimaning Bobga ko‘zi tushdi-yu, bo‘lgan voqeaning barini anglab oldi. Ammo qiz, bolaga hech qanaqa dakki bermadi, aksincha, u Bobni muloyimlik bilan doskaga chaqirdi-da, uni tozalashni buyurdi.

– Axir top-toza-ku? Nimasini tozalayman buni? – dedi hayron bo‘lgan Bob ensasi qotib.

– Yo‘q, sen uni yaxshilab tozala, qara, haliyam toza emas axir, – dedi Anna Teylor unga xotirjam va mehribonlik bilan boqarkan.

Nima qilishini bilolmay turgan Bobga qolgan bolalar ham hayrat ichida qarab qolishgandi.

– Nega turibsan? Men nima dedim senga? – dedi muallima Bobning yoniga kelib, – qani, doskani tozalab qo'y-chi, bolakay!

Shunday derkan, Anna Teylor Bobning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Essizgina! Kecha bu darsni ataylab sen uchun yozib qo'ygandim. Axir sen maktabga kechagina kelding-ku! Hali qancha-qancha darslardan qolib ketding. Biroq men buni senga kecha tayyorlab qo'ya olmagandim. Shuning uchun bugun kelib ko'chirib olsin, deb doskaga sen uchun yozib ketgandim. Buni qara-ya, qaysidir ahmoq uni o'chirib tashlabdi-ya, essiz!

Shu payt Bob Spaulding ko'zlariga yosh to'lib qoldi. U yangi muallimasiga qarab nimadir demoqchi bo'ldiyu, biroq gapira olmay, xonadan yugurgancha tashqariga otilib chiqib ketdi.

Ertasi kuni ertalab darsga kelgan o'quvchilar doskaga katta-katta harflar bilan yozilgan so'zlarni ko'rib, kechagidan ham battar ajablanib qolishdi. Qop-qora, tekis doskaga oppoq bo'rda aniq-tiniq qilib shu so'zlar yozib qo'yilgandi:

„Meni kechiring, mis Teylor! Siz mening eng yangi va eng yaxshi o'qituvchimsiz!“

Bolalar sinf xonasining eng oxirgi qatorida o'tirgan Bob Spauldingni ko'rib, yanayam hayratlanishdi. Negaki u oppoqqina o'quvchilik kiyimida, hech kimga qaramay, oldiga hamma kitoblarini ochib olgancha qolib ketgan darslarini o'qib o'tirardi. Uning bir tomonida esa Anna Teylor uchun keltirgan nim pushti va qiyg'och dala gullari yal-yal yashnab turardi.

Ingliz tilidan

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

Jon **GOLSUORSI**
(*Angliya*)

ESKI ETIK

Olti oydan buyon ishda omadi yurishmay, ancha dilgir bo‘lib yurgan tajribali aktyor Jilbert Keyster kunlarning birida, aniqrog‘i qoq kunduz chog‘ida dengiz bo‘yidagi dam olish maskanida xomush kayfiyatda kezinib yurardi. Keyster yaxshigina mahoratli ijrochi edi-yu, biroq oxirgi spektakllardan biri „Tezkorlar mag‘lubiyati“ pyesasidagi doktor Dominik rolini talqin etgach, umuman ruhiyati tushib ketdi. Sababi, teatr uni sezilarli darajada xorlab tashladi, haftasiga millionlab daromad jamg‘arayotgan mazkur tomoshadan unga arzimagan choychaqa chiqarib berishdi. Natijada, Keyster bu rolni ortiq ijro etishdan bosh tortdi, binobarin teatr ham uning o‘rniga boshqa bir aktyorni jalb etdi.

Bir ko‘zga tutiladigan ko‘zoynagini burni ustiga yaxshilab joylashtirib olgan janob Keyster yura-yura baliq sotilayotgan do‘kon yonida yuzida ruhsiz tabassum bilan turib qoldi. Uning dimog‘iga katta dengiz qisqichbaqasi-ning xushbo‘y isi urildi. O, mana shunaqa qisqichbaqa yemaganiga ham ne-ne zamonlar bo‘libdi! Ammo baliq sotuvchisi haqini to‘lay olmaydigan kishiga qisqichbaqasini tutqazib qo‘yarmidi! Bechora aktyor battar xomush tortib, nariroqdagi tikuv ishxonasining derazasi oldida to‘xtadi. Qalashib yotgan turli-tuman gazlamalar uyumiga boqarkan, birdan o‘zini deraza oynasiga tutib, bir lahza-

ga tomosha qildi. Allaqachon o'ngib ketgan engil-boshi va ayniqsa, shimining o'ta yaroqsiz holatidan qattiq uyalib ketdi. Haa, bu Xudo urgan joylarda quyosh nuri shunaqayam serob va shunaqayam o'tkirki, janob Keyster beixtiyor bu oftob shu'lalarida o'zining bor shakl-u shamoyilini yana-da yaqqolroq ko'rib, ich-ichidan o'ksindi. Ajabo, bundan bir necha yil oldin to'rt tomoni to'kis, hech bir g'am-tashvishi yo'q, o'ynab-kulib yashayotgan sho'rlik aktyorning holi shu bo'ldimi endi? Jilbert Keyster tikuvchilik ishxonasining goh u derazasidan, goh bu derazasidan asta mo'ralarkan, u yerdagi xilma-xil kiyim-kechaklar, ko'ylak, kastum va hatto ixcham shlapalargacha nazardan qochirmay, bir-bir ko'rib chiqdi. O'h-ho', anchayin qimmatbaho matolar ekan, deb o'yladi janob Keyster ichida g'amgin ezilib. Ana shunday kayfiyatda tikuvchi ustaxonasidan o'tib ketarkan, bechora aktyor boshiga kelgan bo'lmag'ur va chigal o'ylardan alamzada bo'lgancha yaqindagina qo'ygan ensiz mo'ylovini silay-silay, yo'lini boshqa tarafa burdi. „Yo Xudoyim“, – deb o'ylardi Keyster xayolchan yurib borarkan, „Yo Xudoyim! Hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Nahot shunchalar abgor bo'lib qoldim?!“

Shu g'amgin xayollar ichida faromush tentigan Keysterning ko'zlari birdan yarq etdi. Uning shundoqqina ro'parasidan kalta bo'yli, qip-qizil va dumaloq yuzli tanish bir qiyofa chiqib qoldi.

E Xudo! Bu axir Bris Grin-ku!

– Keyster?! O'zingmisan?! Buni qara-ya, rostdanam o'zingmisan?! Eski chodirimizdan ketganingdan buyon seni ko'rmagan edim. Eslaysanmi o'sha kunlarni, og'aynion? O Xudoyim-ey! Seni bu yerda uchrataman deb sira-sira o'ylamagandim. Xo'sh, ishlar qalay? Hammasi joyidami, birodarim?

Keysterning eski tanishi bo'lmish, hozirgi kunda anchagina rivojlanib, oshig'i olchi bo'lib yurgan Bris Grin omadi yurishmay turgan sobiq aktyorni ko'rganidan boshi osmonda ekanligini qayta-qayta takrorlab, Keysterni qo'ltiqlab oldi. Ilgarigi tanish hamkasbining farovon hayotidan, uning o'ziga to'q bo'lib turmush kechirayotganidan ko'ngli o'ksib, mung'ayib qolgan Jilbert Keyster esa tanishining hol so'rashlariga eshitilar-eshitilmas qilib bazo'r ovoz chiqarardi:

– Hamma ishlarim joyida...

Biroq sobiq aktyorning ichidagi ovoz buning aksini qaytarardi: „Ey Rabbim, eski tanishlarim oldida meni sharmanda qilma!“

Bris Grin esa janob Keysterning ichki holatidan bexabar, shodon kayfiyatda u bilan yonma-yon qadam tashlagancha, chaq-chaq urib so'zlab ketdi.

– Mana bu yer esingdami? Qani, kirdik shu yerga! – Bris chog'roq bir qahvaxonaga janob Keysterni yetaklab kirdi. – Filis, og'ayni, bu yoqqa bir qaravorgin, – deb bosh ofitsiantni chaqirdi Bris, – men bilan mana bu qadrdon do'stinga kokteyl, keyin ikra bilan biroz yegulik keltirsang. Qara-ya, sening huzuringda hozir kim o'tiribdi, Filis, kimsan – janobi Keysterning naq o'zlari, sen bu kishimning ijrolarini hech ko'rmagansan-da, Filis, bu do'stimning turgan-bitgani talant! Ana shunaqa, og'ayni! – Bris labidan bol tomib, janob Keysterning bugungi tang holidan hozircha voqif emas, faqat uni tinmay maqtab o'tiraverdi.

Shu orada ularga xizmat ko'rsatgani kelgan qiz qo'lidagi kokteyl bilan ikrani stol ustiga qo'yayotgan paytda dovrug'i dunyoga ketgan Keysteriga o'zining ko'm-ko'k ko'zlari to'la chuqur hayrat bilan qarab qo'ydi. Bu hango mani ko'ring endi! „Kimsan – janobi Keyster emish!“

Axir olti oydan buyon ishlari yurishmay, holiga maymunlar yig'lagudek bo'lyapti-yu! Jilbert Keyster ichida kinoya bilan ijirg'anib, kulib qo'ydi.

– Unchalik emas, Bris, – deya xijolat tortdi u Bris Grinni biroz hovuridan tushirishga urinib. – Judayam oshirib yubording.

Xuddi shu asnoda Jilbertning unniqib ketgan nimchasining ostida hilvirab qolgan qorni guldurab, go'yo to'ppa-to'g'ri, haq gapni aytding, degandek ovoz chiqarib qo'ydi.

– Bor gapni aytyapman-da, birodarim! Qani, kokteylingni olib, bu yoqqa – narigi xonaga o'taylik-chi, Jilbert, u yerda hech kim bo'lmaydi. Xo'sh, yeyishga nima buyuraylik – qisqichbaqami?

Shu payt Keysterning qorni yana guldurab qo'ydi. U ming'irlagancha: – Ha, bo'ladi. Qisqichbaqa ham yomon taom emas, – deb qo'ydi.

– Albatta-da! Buning ustiga bu yerning qisqichbaqasi anchagina katta va mazali, – Bris Grin shunday deb eski og'aynisining roziligini oldi-da, bir daqiqa gapdan to'xtab, Jilbert Keysterning ma'yus va bechoravash holiga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi.

– Ishlaring joyidami, Keyster? Seni ko'rib chindanam o'zimdagi yo'q xursand bo'lib ketdim. O'ziyam haqiqiy aktyorimiz bitta o'zing eding-da!

– Rahmat, – deb qo'ydi Keyster so'nik ovozda, – ahvolim yaxshi, durustman. Ayni vaqtda uning xayolidan: „Aslida, qayoqdagi bir havaskor ijrochi-yu, biroq miqtigina yaxshi odam bu“, degan fikr kechdi.

– Shu yer yaxshi ekan-a? – Bris tag'in ofitsiantni chiqirdi, – ofitsiant, bizlarga eng lazzatli qisqichbaqa bilan bironta yegulik, keyin yana bir parchagina lahm go'sht, qovurilgan kartoshka bilan men ichadigan maxsus vi-

nodan olib kelsangiz! Darvoqe, Keyster, ichkilikka tobing qalay? Nima ichaylik?

Keyster yengli tortib, Xudoga shukur, rostdanam ich-gim bor edi, deb o'yladi.

Ikki sobiq hamkasb-do'stlar kichkinagina xonaning o'rtasiga qo'yilgan stol atrofida bir-birlariga ro'baro' o'tirishar edi.

– Omadimizni bersin, og'ayni! – dedi Bris Grin ichimlik quyilgan qadahlarni mamnuniyat bilan urishtirarkan.

– Omadimizni bersin! – deb unga qo'shildi Keyster ham, shu paytda bir-biriga urilgan qadahlardan ham „Omad! Omad!“ deganga o'xshash tiringlagan tovush chiqdi.

– Xo'sh, oxirgi pyesa qalay bo'ldi, Jilbert? Odatdagidek uni ham qoyillatgandirsan?

Oh! Yo'q! Aynan shu savolning ayni lahzalarda sirayam hojati yo'q edi-da! Keyster miq etmay, bir ko'zli ko'zoynagini tag'in to'g'rilab olarkan, labining bir chetida istehzoli kulib, javob qildi:

– Haa, rosayam dahshatli tarzdagi shov-shuvga ega tomosha bo'lib o'tdi!

– Hmm, albatta, – dedi Bris ham uning gaplarini o'zicha tushunib, – ammo u yerda hech kimning aytarli qobiliyati yo'q, shunday emasmi?

Keyster bo'lsa Brisning bu gaplarini to'g'rilagan bo'lib, xayolida „Aytarli hech kimning puli yo'q u yerda“, deb tuzatgan bo'ldi.

– O'zing qanaqa rollarni o'ynayapsan endi? Boyagi Gotta – Grampus qiyofasini qoyillatib qo'yganding-da o'ziam!

– Hozir umuman hech narsa qilmayapman, – deb ochig'ini aytdi Keyster shu vaqt, – hammasidan ko'nglim qolib, shalvirab qoldim go'yo.

Nochor ahvoldagi bechora aktyorning ushbu iqroriga uning eskirib, bo'shshib ketgan shimidan ham „shalvirab qoldim“, degandek sado chiqqanday bo'ldi.

– Eh! Mayli, mayli, bu gaplarni qo'ya tur, – dedi Bris Grin Keysterning so'zlariga unchalik ham ahamiyat bergisi kelmasdan. – Ohho! Mana buni ko'rib qo'y, Jilbert! Yumshoqqina qush go'shtiga tobing qalay edi, og'ayni?

– Tashakkur, unaqa ovora bo'lma, keragi yo'q edi buning!

Biroq shu tobda Keysterning norozi ohangiga zid ravishda ochiqqan qorni yanayam qattiqroq gumburlab qo'ydi. Bu qanday ziyofat bo'ldi!

Yo'q, Keyster, aslida, o'zining xarob sharoiti haqida hamkasbiga hech nima demoqchi emasdi, ammo oxirgi vaqtdagi uni qattiq ranjitgan teatrdagi qator noxushliklar Keysterning sabr kosasini limmo-lim to'ldirib, tilini bo'shatib yubordi. Ehtimol, u ham o'zicha bir dardlashgisi kelgandir.

– Shoshma-chi, Keyster, menga qara-chi! – Shu payt Bris kutilmagan hayratdan andak esankiragancha ajablaniib so'radi:

– Keyster, sen mo'ylov qo'yib yuborganmisan, og'ayni? Buni qara-ya, nega avvalroq shuni payqamadim ekan?! Yo'q, yo'q, to'g'ri tushun, meni o'lgudek qo'pol ekan deb o'ylama, ammo bu narsaga mana hozir, birdan ko'zim tushib qoldi. Nima, sen mo'ylovni birdan o'stirdingmi?

– Yo'q, birdan emas, asta-sekin, – deb javob berdi Keyster.

– Mo'ylovni nima sababdan qo'yding o'zi?

– Ochlikka qarshi niqob bu, – shu chog'da Keysterning lablari beixtiyor titrab ketdi.

– Unaqa emasdir, – deb qo‘ydi Bris to‘satdan mung tortib. Keyin Keysterga biroz dalda berish uchun qo‘shib qo‘ydi: – Menimcha, mo‘yloving sekin-sekin to‘kilyapti ekan. Ancha siyraklashib qolibdi o‘ziyam. Ha, mayli, buni qo‘yaylik endi, yana biron yegulik aytaylikmi?

Bris sobiq hamkasbining siyoh dilini o‘zicha talqin etib, indamay qo‘ya qoldi. Oradan ozgina fursat o‘tgach, o‘z orzulari to‘g‘risida so‘zlay ketdi:

– Bilasanmi, Keyster, men tez-tez o‘z sahnam, o‘z tomoshagohim bo‘lishini orzu qilganman. O‘sha ajoyib sahna bilan ajoyib bir hayot qurishni shirin xayol qilib yashab kelganman. Mana xuddi seningdek iste’dodli odamlar yashaydigan ajoyib va bekam-u to‘kis hayotni.

– Bekam-u ko‘st? Mukammal? – hayron bo‘lib ensasini qotirdi bechora Keyster.

– Ofitsiant, bizlarga tamaki olib kelsangiz. Ha, ha, tamaki va qahva ham, – deya buyurdi Bris Keysterga javob berish o‘rniga. – Bugun kechda senikiga borib, yana chaq-chaqlashib o‘tiramiz, xo‘p? Bu yerda biror hafta bo‘larsan axir? Yo darrov ketib qolasanmi?

– Bekam-u ko‘st hayot! Mukammal va ajoyib hayot! – turmushning shafqatsiz toshlari otila-otila, parokanda bo‘lib to‘zg‘ib ketgan Jilbert Keysterning xavotirli kunlari ayni damda uning ko‘z o‘ngidan g‘ira-shira bo‘lib o‘tayotgan edi. U Birsga lom-mim demasdan, ehtimol, uni hali eshitmagandir ham, achchiq kulimsiragancha o‘z umriga o‘zi kuyunib o‘y-o‘ylardi. Voajab, chindanam Bris aytayotgan o‘sha go‘zal va kamchiliksiz hayot qayda bor ekan? Bo‘lganda ham, Keyster kabi sho‘ring qurg‘urning manglayiga bitilarmikan o‘shanday kunlar? Bu nechog‘lik ajoyibot va qanchalar mo‘jizaviy tole’ tortig‘i bo‘lardi?..

Eh, mukammal hayot!..

Xuddi shu tobda bechorahol Keysterning bu g'aribona qiyofasini tutayotgan tamakisini hadeb chekmasdan, barmog'ida qisib jimgina o'tirgan Bris Grin achinib kuzatmoqda edi. Brisning lablari yarim ochilib qolgan, ko'zlari dengiz tubidagi marmar toshchalardek tep-tekis va silliq bo'lib yarqirar, nigohlari teran boqardi. Uning ko'zlari Jilbert Keysterni boshdan oyoq kuzatish vazifasi bilan mashg'ul ekan, birdan ular borib-borib dasturxon solingan katta stol tagidagi burchakda to'xtadi. Shunda tuyqusdan Brisning achchig'i chiqib ketdi, u lablarini asabiy yaladi-da, jahli chiqib, Keysterga baqirib berdi:

— Menga qara, hoy o'g'il bola, meni g'irt hayvon ekan deb o'ylamagin-u, biroq sen qip-qizil boyagi... boyagi... nima deydi buni, hah, boyagi tog' ustida bazo'r ilinib turgan liqildoq toshga o'xshab qopsan! Men aytmoqchimanki, Jilbert, mahkam bo'l, og'ayni! Tag'in o'sha tog'dan oxir-oqibat dumalab tushib ketmagin! Agar senga yordamim kerak bo'lsa, hech tortinma, bemalol aytaver! Eski qadrdonligimiz haqqi-hurmati, bilasan-ku men... hech...

Shu damda Brisning ko'zlari yana katta stol tagidagi o'sha burchak tomon og'di. Keysterga Brisning bu nigohi qiziq tuyulib, u ham o'sha tarafga ko'z tashladi. Shunda Jilbert Keysterning ko'zlari qip-qizil gilam ustida kiyib turgan o'zining uvadasi chiqib ketgan yirtiq etigiga tushdi. Uning etiklari chindanam o'ta qashshoq holatdaydi, balki, Keysterning o'zidan ham g'aribroq edi ular. Juda soz! Keyster bu nazar ifodasini judayam yaxshi tushunardi. Etik bo'lsa Keysterga rosayam qadrdon, ularni sobiq aktyor „Aldov“ spektaklidagi Bert Karsteyrs roli uchun ataylab sotib olgandi. Yaxshi etiklar ekan. Anchaga chidadi.

Keyster o'zining qadrdon va sadoqatli etiklaridan ko'z uzib, achinish hamda tashvish bilan ularga qarab o'tirgan

Bris Gringa boqdi. Burni ustidagi bir ko'zli ko'zoynagi ortidan Keysterning doimgi achchiq kulimsirashi ifoda etildi, u bunday dedi:

— Hechqisi yo'q, hammasi uchun Xudoga shukr! Senga nima bo'ldi?

— Haligi... hech... Hech narsa. Shunchaki xayolim qochdi, — deya talmovsiradi Bris u yoq-bu yoqqa alanglab. U oxirgi marta Keysterning xaroba etiklariga so'nik nazar tashlab, o'rnidan qo'zg'oldi. Ofitsiantni chaqirib, hisob-kitob qildi.

— Mayli bo'lmasa, qariya, — dedi u chiqib ketishdan avval Keysterga o'girilib, — ma'zur tutasan, og'ayni, zarur ishlarim bor edi. Xuddi shu soatda bir uchrashuv tayinlagandim, kech qolmay bora qolay. Ammo-lekin seni ko'rganimdan boshim osmonga yetdi, Keyster. Shunaqayam xursand bo'lib ketdimki, quvonchimni aytib ado etolmayman! Yana ko'rishguncha, birodarim! Xo'p, o'zingni ehtiyot qil!

— Xo'p, xayr! — dedi Keyster ham. — Rahmat senga!

Bris Grin qahvaxonadan chiqib ketdi. Keyster bir o'zi yakka-yolg'iz qoldi. U hamon o'sha mungli qiyofada qo'lini iyagiga tirab olgancha, bir ko'zli ko'zoynagi ortidan bo'm-bo'sh qadahiga tikilib o'tirdi. Ha, Keyster yolg'iz edi shu tobda, u bilan faqat o'z yuragi, shu miskin hayoti va o'ta eski hamda sadoqatli bo'lgan etiklari birga qolgandi. Birdan uning quloqlari ostida yaqin va uzoq o'tmish sadolari jarang sochdi: „Janob Keyster, bo'sh vaqtingiz bormi?“, „Keyster janoblari, qo'ng'irog'ingizni intizorlik bilan kutaman“, „Iltimos qilaman, hurmatli janob Keyster, malol kelmasa, bizga manzilingizni qoldira olasizmi?“, „Ma'zur tutasizlar, repetitsiyam bor edi, savollaringizning bariga javob berolmayman, ming bor uzr“, „Yo'q, yo'q, hozir sirayam vaqtim yo'q edi, kechirasizlar“...

Ana shu balandparvoz maqtov-u olqishlar ummonida oqa-oqa, Keyster oxiri bugungi kuniga yana qaytib keldi. Xayol uni uchqur otday juda-juda olisga, uzoq o'tmishning g'ala-g'ovurli, o'tkinchi yulduzlar yarq-yurq etib porlagan aldamchi kechalarga olib borgandi. Endi-chi? O Parvardigor! Endi ne ko'ylarga tushib qoldi? Bu ne ko'rinish? Ajoyib va mukammal hayot emish! Hech kimga keragi yo'q, sayoq bir itday tentigan hayot emasmi bu? Hamma yoqda davring gullaganda ko'tar-ko'tar, omading ketganda esa xor-zorlab tashlab ketishmi? Hayot misoli yelvizak uchirib borayotgan sap-sariq va yolg'iz barg-u, unda aslo hech nimani yashirib bo'lmaydi. Bu chorasiz va tashlandiq barg chehrasidan na g'ariblikni va na umidsizlikni yashirib bo'ladi. Hammasi kaftdek namoyon, yaqqol aks etib turaveradi. Odamzod mukammal va ajoyib hayotni hech qachon, hech qayerdan topa olmaydi!

Stol ustini yig'ishtirib olish uchun ofitsiant keldi. Ketish kerak! Shu yerda, Keyster bilan eshik orasidagi stol atrofida ikki nafar yosh xonim kelib o'tirishgan edi. Keyster ularning nigohini zimdan payqab turar, xonimchalarning o'zaro shivir-shiviri uning ding turgan quloqlariga shundoqqina eshitilib turardi.

– Albatta, uning so'nggi ijrosi edi o'sha spektakl. Ammo men o'shanda uning mo'ylovini ko'rmagan ekanman, siz sezmaganimdiz?

– Oh, albatta, ko'rgandim! Bu aniq o'sha aktyor-ku! Endi xarob bo'lgan ko'rinadi boyaqish!..

Ortiq bu joydagi gap-so'zlarga toqat qolmadi. Keyster qaddini rostlab, o'rnidan turdi, uning bir ko'zli ko'zoynagi ostida hamishagi kinoyali tabassumi balqidi. Bu xonimchalar uning so'nggi ijrosi bo'lmish doktor Dominikni rosa avra-astarini ag'darib, dog' axtarishayotgandi.

— Janob, agar ovqatlanib bo'lgan bo'lsangiz, maylimi, dasturxonni yig'ishtirib olsam? — deb so'radi uning ketishini poylab turgan ofitsiantlardan biri.

— Ha, ha, albatta. Men ketyapman.

Keyster darhol o'zini o'nglab oldi-da, ketishga chog'landi.

Ikki yosh xonimcha esa hamon undan ko'z uzmay, ta'qib etib o'tirishardi. Viqorli, biroq ozgina siniq bir tabassum bilan Jilbert Keyster ularning yonginasidan o'tib ketdi. U buni ataylab qildi, negaki sobiq aktyor biroz nariroqdan o'tganda, bu beg'am hamda Bris Grin orzu qilgandek bekam-u ko'st, g'aroyib hayot tarzini kechirayotgan yosh xonimchalar uning yirtilib ketgan juldurvaqi etigini ko'rib, battar gupurishlari mumkin edi.

Keyster bo'lsa unga hamroh etiklarining ortiqcha gapso'zga qolishini negadir istamas edi shu tobda.

Ingliz tilidan
Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

Anil CHANDRA

(Hindiston)

YOZNING MAYIN SHABBODASI

Malini Tembi Punadagi „Grinfil“ maktabiga muallima bo‘lib kelgan paytda yigirma beshinchi yozini qarshi olgan edi. Ayni paytda bu yoz Dipak Pradanga o‘n olti yoshni tuhfa etgandi. Muallima maktabga qadam qo‘yishi bilanoq bolalar uni tabriknomalar va pushti gullarga ko‘mib tashlashdi. Qiz shunga munosib: juda go‘zal edi. Hammaning nazarida, u jazirama iyulda mayin bir shabbodaday bo‘lib kirib kelgandi. Yilning aynan shu kunlarida ob-havo g‘alati bo‘lardi: na issiq, na sovuq. Malini bu yerga kelgandan so‘ng go‘yo hamma narsa o‘z iziga tushgandek bo‘ldi.

Darsning birinchi kuni Malini o‘z ism-sharifini doskaga yozgandan keyin sinfxona negadir yorishib ketgandek bo‘ldi. Bu paytda Dipak qo‘lidagi bir parcha qog‘ozni g‘ijimlab, kimlargadir otish bilan band edi. Darsdan so‘ng hamma ketgach esa negadir qo‘liga artgichni oldi-da, doskani yog‘ tushsa yalagudek qilib tozaladi.

– Nima qilyapsan? – so‘radi Tembi xonim stolidan turib, bolaga o‘girilar ekan. U doskadagi mashqlarni hali tekshirib bo‘lmagandi.

– Doskada bo‘sh joy qolmapti, yordam berish uchun artib qo‘ydim. Lekin keyin sizdan so‘ramaganim yodimga tushdi...

– Menimcha, bir safar seni kechiramiz, – dedi u kulib.

Ertasiga Dipak yo'lni kesib o'tib, o'qituvchisi yashaydigan uyning qarshisidan chiqdi. Tembi xonim endigina eshikdan chiqayotgan ekan.

– Men shu yerdaman, – dedi bola.

– Qanday yaxshi, – dedi o'qituvchisi ham. – Kutilmagan tashrif bo'ldi.

– Kitoblaringizni ko'tarishib yuborsam maylimi?

– Albatta. Rahmat, Dipak.

Ular bir necha daqiqa indamay borishdi. Qiz unga muloyimlik bilan nazar tashlar va bolaning xursandligidan o'zi ham jilmayardi. Ular maktab binosiga yetib kelishgach, bola unga o'girildi.

– Yaxshisi, shu yerda ajralamiz. Boshqa o'quvchilar noto'g'ri tushunishi mumkin.

– Shunday deb o'ylaysanmi?

– Axir men o'quvchingiz, siz esa o'qituvchimsiz-ku, – dedi Dipak chin dildan kuyinib.

– Dipak... Buni o'ylama.

Malini yo'lida davom etdi.

Bir necha hafta ular dars payti gaplashmadilar. Bola har kun dars tugagach, qiz yozuv-chizuv ishlari bilan bandligida, indamay doskani tozalar edi. Ba'zan bu sukunat kechki soat beshgacha ham cho'zilar, qiz ishlarini tugatgach, Dipakning bir chetda jimgina kutib o'tirganiga guvoh bo'lardi.

– Uyga qaytadigan vaqt bo'ldi, – derdi Tembi xonim. Shundan keyin bola darrov o'qituvchisining sumkasini ko'tarib olardi. Ular keng dala bo'ylab ketishar va turli mavzularda gaplashardilar.

– Katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan, Dipak? – so'radi o'sha kuni xonim.

– Havo kuchlari uchuvchisi. Men osmonning eng baland nuqtasiga chiqmoqchiman va chiroyli tabiatni o'sha yerdan turib kuzatmoqchiman, xuddi qushlar kabi.

— O, maqsading yuksak ekan.

— Bilaman, shuning uchun qattiq harakat qilyapman, — keyin bola bir zum o'ylanib qoldi. — Bir iltimosingga xo'p deysizmi?

— Ha, nima ekan u?

— Men har yakshanba Markaziy xiyobondagi ajoyib ko'lga boraman, u uyingizning yonida. Ko'lda bir gala o'rdag-u baliqlar bor. Balki, siz ham menga sherik bo'larsiz?

— Kechir, biroq yakshanbada men band bo'laman.

— Baribir kutaman.

— Taklifing uchun rahmat.

— Sizni xafa qilib qo'ymadimmi?

— Albatta yo'q, Dipak. Nima so'rasang ham haqqing bor.

Bir necha kundan keyin Tembi xonim bolaga „Yozning tungi orzulari“ nomli kitob berdi. Dipak uni tuni bilan o'qib chiqar, so'ngra ikkisi kitob haqida uzoq suhbatlashishardi. Dipak qiz bilan kunora ko'rishardi. Malini esa unga doim „Boshqa yonimga kelma“, demoqchi bo'lar, biroq bu ish qo'lidan kelmasdi. Bola qizdan maktabga ketish va qaytish chog'i Shekspir, Tagor va Kipling haqida so'rashni yoqtirardi. Suhbat chog'i qiz unga qaramaslikka harakat qilardi. Biroq bir kuni darsdan so'ng bola doimgidek artgichni qo'lga olib, doskani hafsala bilan artayotgan paytda Malini undan ko'zlarini ololmay bir dam tikilib qoldi...

Yakshanba kuni Dipak ko'l bo'yida baliq tutib o'tirgandi. Birdan xonimning u tomon kelayotganini ko'rib o'rmidan turdi.

— Men shu yerdaman, — kuldi qiz.

— Kelganingiz uchun rahmat. Juda xursandman.

— Menga baliqlarni ko'rsat.

Ular ko'l bo'yida o'tirishdi. Yengil shabada qizning sochlari va sarisini o'ynoqlab, bola tomon hilpiratib

uchirar edi. Dipak uning yonidan bir necha qadam nariga surildi.

– Baliq tutish shunchalik zavqli ekanligini bilmagan ekanman! – dedi qiz.

– Kelganingizdan shunchalik baxtlimanki...

Nihoyat, ko‘l bo‘yida Malini Tembi va Dipak Pradan uchrashishgandi. Ular soatlab osmonga tikilib o‘tirishdi, Kiplingni o‘qishdi va baliq tutishdi.

Dushanba kuni ertalab Dipak qizning uyidan chiqishini uzoq poyladi, lekin xonim allaqachon bir o‘zi maktabga ketgandi. Dars payti esa „Boshim og‘riyapti“, deb vaqtli jo‘nadi. Lekin seshanba kuni ular darsdan so‘ng yana birga qolishdi. Dipak doimgidek doskani tozalar, qiz esa daftarlarni tekshirardi. Nihoyat, soat beshni ko‘rsatib bong urdi.

– Dipak, yonimga o‘tir, – qiz uni chaqirdi.

– Ha, xonim, – Dipak artgichni joyiga ildi.

Malini o‘yga cho‘mib yigitga tikildi.

– Dipak, sen bilan nima haqida gaplashmoqchiligimni sezgandirsan.

– Ha... men haqimdami?

– Yoshing nechada, Dipak?

– O‘n oltida. Yaqinda o‘n yettiga to‘laman.

– Men necha yoshdaligimni bilarsan?

– Ha, yigirma besh. Men ham to‘qqiz yildan so‘ng yigirma beshga to‘laman. Xonim, buni aytishim kerakmi, yo‘qmi, lekin o‘zimni xuddi siz bilan tengdoshdek sezaman...

– Ha, ba‘zan buni eplaysan ham.

– Meni kechiring...

– Gapimni eshit. Oramizda nima bo‘layotganini tushunishing men uchun juda muhim. Avvalo, biz faqat do‘st ekanligimizni aytib o‘tay. Mening hech qachon sendek o‘quvchim, umuman, sen kabi insonim bo‘lmagan.

Yigit bu gapdan qizardi. Qiz o'rnidan turdi.

– Balki, sening hayotingda ham hali men kabi o'qituvchi bo'lmagandir?

– Siz juda ajoyib insonsiz. Judayam, judayam yaxshisiz, xonim.

– Bu haqda ko'p bosh qotirdim, Dipak. Tuyg'ularimni pisand qilmayapti, deb o'ylama. Sen oddiy yigit emassan. Bizning betakror, yoqimli kunlarimiz birga o'tdi. Lekin bu xato edi...

– Men to'qqiz yosh katta va o'n besh santimetr balandroq bo'lganimda hammasi yaxshilik bilan tugarmidi?

– Ehtimol. Biroq unday emas-ku. Biz odamlar bir-birining yoshi va ko'rinishiga qarab muomala qiladigan dunyoda yashayapmiz, Dipak. Ba'zan insonlar o'zlari istagan ishga qo'l urolmaydilar. Negaligini tushuntirib berolmayman.

– Nima qilishimiz kerak, unda?

– Hech nima. Meni boshqa maktabga o'tkazishlarini so'rab ko'raman.

– Bunday qilishingizga hojat yo'q. – dedi yigit. – Biz ko'chaypmiz. Oilam bilan.

– Buning menga aloqasi yo'qmi?

– Yo'q, yo'q, otam shunchaki Mumbaydan ish topibdi. Bu yerdan 150 km uzoqda, xolos. Ko'rishib tursak bo'ladimi?

– Ha, lekin bundan nima foyda?

– Befoyda, ha, befoyda...

Sinfda uzoq jimlik cho'kdi.

– Nega bunday bo'ldi o'zi? – dedi yigit mahzun.

– Bilmadim. Hech kim bilmasa kerak. Ming yildan so'ng ham buning sababini bilolmaydilar.

Ular bir-birlariga qaradilar. Vaqt o'tib borardi.

– Bir narsani hech qachon unutma, – dedi nihoyat qiz. – Hayot kutilmagan sovg'alarga boy. Dardingga davol

bo'luvchi insonni hali uchratasan. Yaratgan neki dard bersa, davosini ham beradi. Menga ishonasanmi?

– Ishonishni istayman... Sizni sira unutmayman.

Qiz o'rnidan turib doskani arta boshladi.

– Sizga yordam beraman.

– Yo'q, yo'q, uyingga bora qol...

Yigit maktabni tark etdi. Ortiga qarab, derazadan xonimning hali ham doska tozalayotganiga guvoh bo'ldi.

Dipaklarning oilasi keyingi haftada shahardan ko'chib ketdi. Shu bilan Dipak yigirma ikki yil bu yerga qadam bosmadi. O'ttiz to'qqiz yoshida, uylangandan so'ng, nihoyat, Punaga kelishga ahd qildi. Bahor kunlarining birida u mashinasini Puna tomon burdi va bu yerda bir kun qolishni rejalashtirdi.

Dipak rafiqasini mehmonxonada qoldirib, shaharchani bir o'zi sayr qildi va yurak yutib, Malini Tembi haqida so'radi.

– E, ha, bechora o'qituvchi. U 1952-yili vafot etdi, sen ketganingdan bir yil o'tgach, – dedi kekxa o'qituvchi.

– U... turmushga chiqqanmidi?

– Yo'q, chiqmadi. O'limidan oldingi oylar juda g'amgin va baxtsiz ko'ringandi.

Ertasi kuni odamlar Dipakning xotinini ko'rishganini aytishdi. U xuddi iyulning mayin shabbodasi kabi go'zal ekan. Shu kunlarda havo tushunarsiz edi: na sovuq deysiz, na issiq. Dipakning rafiqasi kelgach, go'yo hamma narsa iziga tushgandek tuyuldi...

Rus tilidan

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

Gi de MOPASSAN

(Fransiya)

SOVUQ KUNLAR

Tushlikdan so'ng bir joyga yig'ilgan erkaklar ovga chiqqan paytlarida yuz bergan eng qiziqarli sarguzashtlarni so'zlab berayotgandi. Ajoyib mergan, uddaburon ovchi sanalgan eski qadrdonimiz janob Banifas tabiatan quvnoq, nqlli, faylasuf hamda donishmand odam edi. U ovga oid hazillarni sevar, qayg'uli hikoyalarni esa jini suymasdi. Janob Banifas bu safar bizni hayron qoldirib, kutilmagan-da shunday dedi:

— Men g'aroyib bir hikoyani bilaman, to'g'rirog'i, ovga chiqqan paytlarimda yuz bergan qayg'uli bir hodisa. Ilgari bunga o'xshash hikoyalarni sira so'zlab bermaganimni hisobga olganda, shuni aytib qo'yishim kerakki, u boshqalaridan ancha farq qiladi va sizni, umuman, zavqlantirmaydi, deb qo'rqaman. Hikoya u qadar hayratlanarli ham emas. Demochimanki, unda asablarini qitiqlaydigan qiziqarli hech narsa yo'q. Lekin, aslida, hamma gap ham shunda-da. O'shanda o'ttiz besh yoshda edim va ov eng sevimli mashg'ulotimga aylangandi. Ovgga mukkamdan ketgan vaqtlarimda men, hatto Jyumeja o'rmonlari orasida quyon va turli yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan katta hududni sotib ham olgandim. Kundalik tashvishlardan ortib, u yerga yiliga bir marta, shunda ham atigi to'rt-besh kunga, faqat yolg'iz borishga to'g'ri kelardi. Chunki bu qalin o'rmonda tunagani qo'nalg'a

topish anchayin mushkul vazifa edi va ayni ana shu sabab do'stlarimni u yerga olib borolmasdim. Ov mahali menga nafaqadagi jandarm, vijdonli, qattiqqo'l, intizomga qattiq rioya qiladigan, mas'uliyatli, brakonyerlarga haqiqiy xavf-xatar tug'dira oladigan hamda shu bilan birga beozor qari qorovul hamrohlik qilardi. U qishloqdan juda olisda joylashgan ikkita tor xona va bitta oshxonadan iborat kichkinagina kulbada yashardi. Atigi bitta karovot, kiyimlar qo'yiladigan bitta javon va bitta kursi sig'adigan tor xonalarning biri kaminaga ajratilgandi. Ikkinchi xonani esa Kavalye amaki egallagandi. Uzoq so'rayman, men sobiq jandarm hikoyamning boshida yolg'iz yashaydi, deb aytib biroz yanglishibman. U o'n to'rt yoshli jiyani asrab olgandi. Bola ba'zan ro'zg'orga kerakli mahsulotlarni keltirish uchun uch chaqirim yo'l bosib qishloqqa borar va uy yumushlarini bajarishda amakisiga yaqindan ko'maklashardi. Bu ori, bo'yi baland bolaning sochlari tovuq patlariga o'xshardi va o'shanday oppoq edi. Olisdan u xuddi taqirday tuyulardi. Bolaning gavdasiga nisbatan katta oyoqlari hamda uzun qo'llari e'tiborni tortardi. U biroz duduqlanar va odamning ko'zlariga sira tik qarolmasdi. Hayvonlar orasida hayvonchalar qanday o'rin egallasa, odamlar orasida u ham xuddi shunday mavqega ega edi. Ha, bu bolacha ko'rinishidan bo'rsiqni yo isqirt tulkichani eslatardi. U ikki xonani birlashtiradigan zinapoya ostida uxlardi. Kavalye amakining uyida tayyorlanadigan ovqatlarning hammasini ham tanovul qilishga yaroqli deb bo'lmasdi, shuning uchun menga Selest a ovqat tayyorlardi. Ov qilishga borgan paytlarim Kovalye oshxonani qishloqda yashaydigan shu qari kampirga bo'shatib berishga majbur edi. Shunday qilib, siz hikoyamning barcha qahramonlari va voqea sodir bo'lgan joy bilan yaqindan

tanishib oldingiz, endi hikoyaning o'zini eshiting. Men Ruanadan otda yurib borardim. Kavalye amakining Bok laqabli iti ortimdan qolmaslikka intilardi. Katta, kuchli va keng ko'krakli it barglar orasidan o'lja izlardi. Yo'l xaltasini miltiq bilan birga belimga osib olgandim. Kun sovuq edi. Qattiq shamol esar, osmonda esa qora bulutlar kezardi. Kentel cho'qqisiga ko'tarilarkanman, keng Sena adirlariga tikildim. Ilon iziga o'xshab bir-biriga ulanib ketgan daryolar va irmoqlarni ko'rdim. Ruanadan chapda esa osmono'par tog'larning go'zal ko'rinishi ko'zni qamashtirardi. Undan so'ng otga qamchi bosib, Rumars o'rmonidan o'tib, soat beshlarda „Pavilon“gacha yetib bordim. Meni u yerda Kavalye amaki va Selesta kampir kutib turardi. O'n yil bir joyga bitta yo'l bilan keldim va meni o'n yil o'sha odamlar har doim bir xil so'zlar bilan kutib olardi:

– Xayrli kun, janob. Yaxshimisiz?

Kavalye amaki sira o'zgarmagandi. U hayotdagi buzg'unchi o'zgarishlardan qo'rqmay, qari eman kabi ularga ko'kragini tutib yashardi. Ammo Selesta, oxirgi to'rt yil ichida tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. To'g'rirog'i, kampir qarib qoldi. U meni yaxshi ko'rardi. Ketayotganimda esa faqat bir gapni takrorlardi:

– O'ylaymanki, janob, biz oxirgi marta ko'rishmaymiz.

Men otdan tushdim va Kavalyening qo'lidan tutib salomlashdim. U otning arqonini qo'limdan oldi hamda kichkina otxona tomon yetakladi. Men oshxonada kuy-malanayotgan Selesta bilan ko'rishib, biroz suhbatlashib turdim. Ko'p o'tmay, qorovul ham bizga hamrohlik qildi. Uning nigohlaridan nimadandir tashvishda ekanligini darrov sezdim.

– Nima bo‘ldi, Kavalye? Hammasi joyidami? Qanday yangiliklar bor? – deb so‘radim.

– Yaxshisi ham yomoni ham bor, – deya g‘udrandi u.

– Aytavering, birodar? Nima bo‘ldi?

U „Yo‘q“ degandek boshini chayqadi.

– Hozir emas, janob, men sizni kelgan kuningizdan xavotirga solishni istamasdim...

Qancha talab qilmay, Kovalye o‘z tashvishi bilan tushlikka qadar kayfiyatimni buzmaslikka ahd qilganini aytib, qarorida qat‘iy turib oldi. Biroq uning yuzidagi alomatlariga qarab ish nihoyatda jiddiyligini anglab yetdim. Suhbat davomida uning jiyani ko‘rinmayotganini payqab:

– Darvoqe, Marius qani? – so‘radim.

Qorovul bunday savolni kutmaganidanmi, jinoyat ustida qo‘lga tushgan odamday betoqatlanib, hatto titrab ketgandek tuyuldi.

– Hammasini hozirning o‘zida aytganim yaxshi. Qalbimni egallagan qayg‘u ham, aslida, u tufaylidir. U hozir otxonada, janob, ko‘zingizga ko‘rinishga qo‘rqyapti. – Qorovul o‘ng‘aysizlanib, gapirishga qiynalar, nazarimda, hamon ikkilanardi. Kutilmaganda uning ovozi o‘zgardi. Yuzlarida esa chuqur qarilik ajinlari paydo bo‘ldi hamda asta-sekin tilga kirdi.

– O‘tgan yili qishda Rozere hududida kimdir tuzoq qo‘yayotganligini sezib qoldim, ammo topa olmadim. Bu vaqtda Ekorshvila atrofida yangilari paydo bo‘ldi. Bu muttaham oldindan qayerga borishim va nima ish qilishimni yaxshi bilardi. Nihoyat, bir kun Mariusning bozor kuni kiyadigan shimini tozalayotib, cho‘ntagidan sim topib oldim. Yosh bola simni nima qilarkin, deb ko‘p o‘yladim. Bu haqda bir hafta bosh qotirdim va uning aynan dam olgani uyga qaytgan soatlarda qayergadir g‘oyib bo‘lishini sezib qoldim. Shundan so‘ng men

uning ortidan kuzata boshladim. Boshida xayolimga hech narsa kelgani ham yo'q, lekin bir kun tongda atayin dam olgani xonamga kirdim. U meni uxlab qoldi, deb o'ylab tashqariga chiqdi. Bolaning ortidan sekin kuzatib bordim. Tasavvur qilyapsizmi, o'sha muttaham o'g'ri deb yurganim mening o'z jiyanim ekan. Men sizning qo'l ostingizda qorovullik qilib, yerlaringizni qo'riqlayman-u, u bo'lsa... Ko'zimga tuz sepib yurgan ekan, nonko'r. Qonim qaynab uni shunday kaltakladimki, joyida o'ldirib qo'yishimga ozgina qoldi. Bolani sizning ko'zingiz oldida jazolash bilan ham qo'rqitdim. Shunaqa gaplar, janob, bunday vaziyatga hech tushmagandim. Uni qanday jazolay, o'zingiz ayting. Mariusning ota-onasi yo'q. Qarindoshlaridan yolg'iz men borman. Shuning uchun ham uni o'z qaramog'imga olgandim. To'g'risini aytsam, bu sag'ir yetimchani ko'chaga haydagani ko'zim qiymaydi. Unga bu ishni yana qayta qilsa, oxir-oqibat mendan rahim-shafqat kutmasligini tushuntirdim. To'g'ri ish qilibmanmi, janob, nima deysiz?

Men unga qo'limni uzatdim va:

— Albatta, siz xatoga yo'l qo'yganingiz yo'q, Kavalye. Siz vijdonli odamsiz!

— Rahmat janob, endi ruxsat etsangiz, bolani olib kelam, uni yaxshilab qo'rqitib qo'ymasak bo'lmaydi.

Qariyani bu shashtidan qaytarish befoydaligini bilardim, u, baribir, o'z aytganidan qolmasdi. Qari jandarm Mariusning ortidan bordi va qulog'idan tortib olib keldi. Men singan kursida sudyalarga o'xshab, qiyofamga jiddiy tus berib, voqeani kuzatib turardim. Marius o'tgan yilgidan ancha ulg'ayib, yanada xunuklashib hamda ayyorlashib qolgandi. Uning uzun qo'llari esa nihoyatda qo'rqinchli edi.

Iymonli tog'a jiyani insofga chaqirar ekan:

– Xo'jayindan kechirim so'ra! – deb buyurdi.

Bola hadeganda og'zini ochavermadi. Shunda sobiq jandarm jahl otiga mindi va qo'lidagi tayog'i bilan tushirdi.

– Kechiring!.. Kechiring!.. Kechiring!.. Boshqa bunday qilmayman. Kavalye qo'lidagi tayog'ini pastga tushirdi va jiyani tiz cho'kib uzr so'rashga majburladi. Bola ko'zlarini yerga qadadi va:

– Kechiring, – deb to'ng'illadi.

Shundan so'ng Kovalye uni qo'lidan tortib o'rnidan turg'azdi va yana bir musht tushirdi. Marius tashqariga otilib chiqib ketdi-yu, kechgacha ko'rinmadi.

Kavalye xuddi sinib qolganday edi.

– Uning ichiga shayton o'rnashib olgan. Odamning olasi ichida bo'larakan, deganlari shu bo'lsa kerak-da! – dedi u yelkasini qisib. – Meni u qanday ranjitganini, so'z bilan tasvirlab berolmayman, janob!

Uni tinchlantirishga urinib ko'rdim, biroq bari befoydali edi. Erta tongda ovga chiqishimizni bahona qilib, vaqtliroq dam olmoqchi bo'ldim. Xonamga kirganimda itim karavotim yonida yotardi. Chiroqni o'chirib, toza o'ringa cho'zildim. Yarim kechasi itning qo'rqinchli akkillashidan uyg'onib ketdim. Ko'zlarimni ochganimda xona tutundan to'lgandi. O'rnimdan yugurib turdim va chiroqni yoqdim. Bir tepib eshikni ochgandim, ichkariga alanga otilib kirdi. Kulba yonayotgandi.

Men emandan yasalgan qalin eshikni qayta mahkamlab, tezda kiyimlarimni kiyib, choyshabdan arqon tayyorladim. Avval itni, keyin kiyimlarim solingan jomadonlarini, ov miltig'i-yu ov sumkasini tashqariga uloqtirdim va arqonga osilib, yong'indan qutulib chiqdim.

Keyin ovozim boricha baqira boshladim:

– Kavalye! Kavalye! Kavalye!

Ammo qorovul uyg'onmasdi. Qari jandarm qattiq uyquda edi.

– Uy yonyapti! Kavalye! Xudo haqi uyg'oning!

Qariya tutundan bo'g'ilib qolgan bo'lsa kerak, deb o'ylab qoldim va miltiqni olib, o'q qadadim-da, derazaga qarab otdim. Bu safar o'zini yo'qotib qo'ygan qariya deraza oldida paydo bo'ldi. U gurullab yonayotgan olovga, nima qilishini bilmay hayron qarab turardi.

– Uy yonyapti! O'zingizni derazadan tashqariga oting! – deb baqirdim bor ovozim bilan.

Qariya aytganimday qildi. U tashqariga chiqishi bilan uyning yonib bo'lgan devorlari yerga quladi.

Bir necha daqiqa ichida uydan kuldan bo'lak hech narsa qolmadi.

Kavalye titrar, nima qilishni bilmasdi:

– Yong'in qayerdan chiqibdi? – deb so'radi.

– Bilmadim. Oshxonadan bo'lsa kerak, – dedim men.

– Kim qilgan bo'lishi mumkin?

Birdan u anglab yetdi:

– Marius! Yo Tangrim! Nima uchun tunagani uyga qaytmaganligini endi tushundim. Iblis! – deb baqirardi qariya telbalarcha.

Birdan:

– Selesta? Selesta qani? – deb so'radim qari ayolni eslab.

U hech nima deb javob berolmadi. Dahshatli yong'in ichra bir begunoh kampirning yonib ketganini sezmabmiz ham. Biz, hatto, uning baqirganini ham eshitmabmiz. Olov otxonaga ham o'tgandi. Kavalye otni qutqarish uchun yugurib ketdi. U otxonaning eshigini ochgandi hamki, kimdir ichkaridan otilib chiqdi. Chol yerga yuztuban yiqildi.

Bu Marius edi. Qorovul uning ortidan telbalarcha yugurib ketdi, biroq jivaniga yetishi amrimahol edi. Hammasi shunchalar tez yuz berdiki, men nima bo'lganini angalay olmadim. Aqlimni yig'masimdan qariya qo'limdagi miltiqni yulqib, o'qlangan yo o'qlanmaganligini ham tekshirib ko'rmasdan, bolani nishonga oldi va o'q uzdi. Men uning yoniga yugurib bordim, biroq bola o'layotgan odamdek xirrilab nafas olardi. U bir og'izam gapirmay, vafot etdi. Kavalye, bitta ko'ylakda turgan joyida tosh qotib qolgandi. Qishloq odamlari qorovulni olib ketishdi, chunki u esdan og'ib qolgandi. Meni sudga guvoh sifatida chaqirishdi. Voqeaning hammasini tafsilotlarigacha oqizmay-tomizmay aytib berdim. Kavalyeni oqlashdi, biroq suddan keyin u g'oyib bo'ldi va butun umrga bu yerlarni tark etdi. Men uni qayta uchratmadim. Mana, janoblar, bu sizga mening qari jandarm to'g'risida aytib bermoqchi bo'lgan mungli hikoyam edi.

*Ingliz tilidan
Shahnoza tarjimasi*

Ernest XEMINGUEY
(AQSH)

YOLG'IZLIK

Kech tushgandi, kafeda elektr chirog'ining nuri ostidagi daraxt barglari soyasida o'tirgan qariyadan bo'lak hech kim yo'q edi. Kunduz kuni ko'cha chang, ammo tunda tushgan shudring bu g'uborni aritgandi, chol esa kech kirganda bu yerda o'tirishni xush ko'rardi, negaki u kar bo'lib, kun va tun orasidagi bu farqni hozirgi oqshom osudaligida yaxshiroq his qilardi. Kafe ichkarisidagi ikki nafar ofitsiant cholning biroz kayfi borligini bilishar, chol yaxshi mijoz bo'lgan taqdirdayam, mabodo u bo'kib ichib olguday bo'lsa, hisobni to'lamay chiqib ketishining oldini olib, undan ko'z uzmay o'tirishardi.

– O'tgan hafta u o'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'libdi, – deb qo'ydi bitta ofitsiant.

– Nega endi?

– Jonidan to'ygan bo'lsa kerak-da.

– Yo tavba, biron-bir sababi bordir axir?

– Yo'q, menimcha, aytarli sababi yo'qdir-ov...

– Shunchaki ekanligini sen qayerdan bila qolding?

– Axir bu qariyaning bir dunyo puli bor-ku.

Ular kafe eshigi yonidagi devorga yaqin stolda, shaba-dada biroz tebranayotgan daraxt yaproqlari soyasida o'tirishar, chol o'tirgan birgina stoldan boshqa barcha stollar bo'sh turgan ayvon tomonga qarashardi. Shu payt bir qiz bilan bitta askar yigit ko'chadan o'tib qolishdi. Ko'cha chirog'i askarning yoqasidagi sariq yulduzchani yoritdi.

Qizning hech qanday bosh kiyimi yo'q, u shoshilganча yigitning yonida borardi.

– Mana, hozir shularni soqchi olib ketadi-da.

– E, bizga nima?

– Tezroq ko'chadan yo'qolishsa yaxshi bo'lardi-ya. Hozir soqchi kelib qoladi! Ular bor-yo'g'i besh daqiqa ilgari ketishgandi.

Qariya esa haliyam ko'lankada stakani bilan tarelkasi-ni taqillatganча o'tirardi. Yoshroq ofitsiant uning yoniga keldi.

– Nima istaysiz?

Qariya unga qaradi.

– Yana bitta brendi, – dedi u.

– Mast bo'lib qolasiz, – koyindi ofitsiant. Chol unga yana qaragandi, ofitsiant nari ketdi.

– Nazarimda, qariyamiz tun bo'yi qoladiganga o'xshaydi, – dedi u o'rtog'iga.

– Mening rosa uyqum kelyapti. Hech qachon soat uchdan keyin uyquga ketmagandim.

Keyin u alam aralash chol o'tirgan tomonga qarab g'ijinib dedi:

O'tgan hafta o'lib ketsang bo'lmasmidi-ya.

Ofitsiant kafe ichidagi peshtaxtdan yana bitta tarelka va bir shisha brendi olib, chol o'tirgan stol oldiga shahd bilan bordi. Tarelkani stol ustiga qo'ydi-da, stakanga to'ldirib brendi quydi.

– O'tgan hafta o'lib ketganingda yaxshi bo'lardi ekan! – deb ijirg'andi u yana cholga qarab. Chol esa barmog'i bilan stakaniga imo qildi. – Yana biroz, – dedi u, haqiqatdanam qariyaning qulog'i umuman eshitmasdi. Ofitsiant brendini stakanga shunchalar quydiki, ichimlik toshib ketib, bir dasta tarelka ustiga to'kila boshladi. „Rahmat“, – minnatdor bo'ldi qariya. Ofitsiant shishani

qaytarib, kafe ichkarisiga olib ketdi. U yana stol atrofiga kelib, sherigi yoniga o'tirdi.

– U hozir mast bo'lib qoladi, – dedi u.

– O'zi har kuni ahvoli shu-ku.

– Qiziq, hech aqlim bovar qilmayapti-da, nima uchun chol o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan ekan?

– Uff, muncha shu gapga yopishib qolmasang, a, men qayerdan bilay axir?

– Men uchun baribir qiziq-da bu, qari joni bilan qay holatda o'lmoqchi bo'libdi ekan?

– Arqon bilan bir amallab o'zini o'zi osibdi.

– Yo'g'-ey, xo'sh, keyin-chi, arqonni kim qirqib olibdi?

– Bitta qiz jiyani bor ekan, o'sha kelib qutqarib qolibdi.

– Yaxshiyam kelib qolgani, bechora cholni qutqarib qolibdi.

– Axir ming qilgandayam, uyam ota-ku, qo'rqishadi-da o'limidan sho'rlikning.

– Haa, to'g'ri... Qiziq, bu buvamizning o'zi qancha puli bor ekan?

– Aytishlaricha, bir dunyo emish.

– O'ziam saksonlarga yetib qolgandir?

– Bo'lsa bordir, har qalay saksondan kam emasga o'xshaydi.

– E-eh, uyiga keta qolsaydi endi. Men sira soat uchdan keyin uxlamagandim. Axir uxlash uchun bu qanaqa vaqt bo'ldi?!

– Hech xavotir olma, og'ayni, bu chol hali-beri uxlamaydi, negaki u xuddi shu paytda, kech tunda o'tirishni yoqtiradi.

– Yoqtirsa, u-yolg'iz bir mo'ysafid, uyida kutadigan hech kimi yo'q, o'tiraveradi. Men esa yolg'iz emasman. Meni yotog'imda kutayotgan xotinim bor.

– O‘ylabroq gapirgin, bir vaqtlar uning ham xotini bo‘lgan, xotinsiz o‘tib ketmayotgandir bu dunyodan.

– Bunisini bilolmadim, ammo lekin hozir, aynan shu holiga unga xotin to‘g‘ri kelmasligi aniq gap.

– Ehtimol, bu gaping ham to‘g‘ridir... Boyaqishning bittagina qiz jiyanidan boshqa qarovchisi yo‘q.

– Bilaman. Uni arqondan qirqib olibdi, deb aytding-ku.

– Biroq men bunchalik qari bo‘lishni xohlamasdim. Buni qara, qari odam juda jirkanch bo‘lib ko‘rinarkan-a?

– Menimcha, har doim ham emas. Bu qariya orasta. U bir tomchiyam to‘kmasdan ichadi. Hatto hozir ham mast ahvolidida pok-pokiza o‘tiribdi. Unga bir qaragin.

– Qo‘ysang-chi, shu tobda o‘sha qariyangni ko‘rishga hecham toqatim yo‘q. Faqat ketsa bo‘ldi, tezroq uyiga daf bo‘la qolmasmikan?! Ishdagi odamlarga hech rahmi kelmasmikan-a?

Qariya stakani osha kafe sathi bo‘ylab, keyin esa ofitsiantlar tomonga ko‘z tashladi.

– Yana brendi, – dedi u stakanini ko‘rsatib. Shoshilib turgan ofitsiant cholning oldiga keldi.

– Tamom bo‘ldi, – ma‘lum qildi u, mast odamlar bilan gaplashadigan ohangda to‘ng‘illab. – Bugunga yetadi. Endi yopamiz.

– Yana bitta, – qaysarlik qilib tiqilinch qildi qariya.

– Yo‘q! Tugadi.

Ofitsiant sochiq bilan stol chetini artdi-da, boshini tebratdi.

Qariya noiloj o‘rnidan turdi, tarelkalarni sekin sanda-di-da, cho‘ntagidan charm hamyonini olib, stol ustiga ichimlik uchun yarim peseta qoldirdi.

Ofitsiant ko‘cha bo‘ylab odimlab borayotgan shunday qari cholning chayqalgancha, biroq viqor bilan qadam tashlashini kuzatib turdi.

– Nimaga uni bu yerda qolib ichishiga yo‘l qo‘ymading? – deb so‘radi shoshilmayotgan ofitsiant. Ular dera-zalarni yopishayotgandi.

– Hali soat ikki yarim ham bo‘lmabdi-ku.

– Nega tushunmaysan, men uyga, uxlagani ketmoq-chiman.

– Soat necha bo‘ldi o‘zi?

– Bilmadim, ammo men uchun allaqachon ketadigan vaqt bo‘ldi.

– Shuni bilib qo‘y, vaqt hamma uchun bir xil.

– Senam anavi qariyaga o‘xshab qolmaganmisan ma-bodo? Xuddi keksalarday gapirasan-a. O‘zing o‘yla, axir u bitta shishani shundoq sotib olib, uyida ham ichib o‘tir-sa bo‘ladi-ku.

– Bo‘ladi, lekin u uchun uyda o‘tirish bu yerdagi o‘ti-rishiga sira o‘xshamaydi.

– Bilaman, o‘xshamaydi, – deb qo‘shildi xotini bor ofitsiant. U judayam adolatsiz bo‘lib ketishni istama-di. Yigit faqat uyiga shoshar, iloji boricha kafeni tezroq yopib, tezroq ketish harakatida edi, xolos.

– Xo‘sh, ana endi xotiningga nima deysan? – katta ofitsiant hamon uni tergayverishni bas qila qolmasdi. Odatdagi vaqtingdan kech qolib uyga borishdan qo‘rq-maysanmi?

– Nima, meni haqorat qilyapsanmi?

– Yo‘q, og‘ayni. Shunchaki hazillashib qo‘ydim-da.

– Yo‘q, – dedi shoshayotgan ofitsiant, tushirayotgan kafe derazasidan boshini chiqarib. Men o‘zimga isho-naman. To‘la-to‘kis ishonaman.

– Chunki sening yoshliging, ishonching va ishing bor-da, – deb qo‘ydi katta yoshli ofitsiant xomush tortib. Ista-gan hamma narsang bor.

– Sening nima kamchiliging bor?

– Menimi? Mening shu ishdan boshqa hamma narsam ketib bo‘lgan.

– Unaqa emas, menda bor narsalarning bari sendayam bor.

– Yo‘q, men sen kabi hech qachon o‘zimga o‘zim ishongan emasman, qolaversa, mana endi yosh yigitchayammasman.

– Qo‘ysang-chi endi. Qayoqdagi gaplarni gapirasan-a, tezroq yopa qolaylik.

– Men ham kafeda qolishni yoqtiradiganlardanman, – o‘ziga o‘zi so‘zlashda davom etardi ofitsiant chuqur hasrat bilan. – Uyquga yotishni xohlamaydiganlar bilan birgaman go‘yoki. Go‘yoki shu qora tunda nurafshon yorug‘likka cheksiz muhtoj bo‘ladiganlardanman.

– Men esa uyga borib, bir zumda uxlashni xohlaydiganlardanman.

– Biz ikki xil toifadan ekanmiz unda, – deya xulosa qildi katta ofitsiant. U ham endi uyiga chog‘lanish uchun kiyinib olgandi. – Yoshlik va ishonch juda go‘zal bo‘lishiga qaramay, baribir jumboq. Har oqshom men bu yerni istar-istamay yopaman, negaki kimdir biron tuyoqdan kafega muhtoj bo‘lib kelib qoladiganday bo‘lib tuyulaveradi.

– Og‘aynim, jonajon do‘stginam, axir butun kecha mobaynida ochiq turadigan qovoqxonalar ham bor-ku, shularni ko‘rmaydiganday gapiraverasan-a senam!..

– Yo‘q, sen tushunmayapsan. Bu toza va orombaxsh kafe. Juda yorug‘ ham. Nur rosayam baland, ustiga-ustak, hozir bu yerda barglarning soyasi ham bor.

– Men ketdim, xayrli tun senga, – deb uning so‘zini uzdi yosh ofitsiant.

– Mayli, xayrli tun, – deya xayrlashdi yoshi kattarog‘i ham.

U elektr chiroqni o'chirar ekan, hamon o'zi bilan o'zi suhbatlashishda davom etardi. Chiroq-ku mayli, chiroq u qadar muhim narsa emas, muhimi joyning toza va yoqimli bo'lishida. Bu yerda ko'nglingiz musiqaniyam, na bir kuy, na bir ohangniyam aslo tusamaydi. Mutlaqo, hech qanday musiqani istamaysiz. Tanholik butun ruhingizni asir olgan bo'lsa-da, qandaydir barlar yonidan purviqorlik bilan, adl bo'lib o'tib ketasiz. Aslini olganda, yolg'iz odam nimadanam qo'rqardi? Axir yolg'izlikning o'zi g'urbatga to'la qo'rquv va la'natlangan vahima degani emasmi? Yolg'izning umri hech narsa emasligini hatto uning o'zida juda yaxshi anglardi. Hayot hech narsa, insonning o'zi ham hech kim. Bor muhtojlik faqat yorug'lik, mukammal orastalik hamda tartib. Ba'zi odamlar shunchaki yashay-veradilar va hech qachon tiriklik qadrini teran tuyishmaydi, ammo u hayotning borini, albatta, bedorlik ichida ekanligini biladi, bedorlikning albatta va albatta jo'sh urib, avj olib boraverishini benihoya chuqur angelaydi. Yolg'izlarning bu bedorligi butun olamdagi jami bedorlik ichida yashaydi, axir Xudoning ham bedorligi shubhasiz ayon-ku hammaga. Shu bedorlikni biz yolg'izlarga kunda taqdim eting, bedorligimiz g'ofil yuraklarni-da uyg'otsin, borgan sari uyqudan yuz o'giraveraylik, buning o'rmiga bizlar bedorlik bag'ridan qaytmaylik; zotan, bedor qalblar muqarrar baxtlidirlar. Yog'ayotgan jala ham qup-quruq, go'yo-ki osmondan hech nima yog'mayotganday, atrofdagi bor narsa, hamma narsa beadad sarobday bo'lib tuyuldi unga. Keksa ofitsiant nim jilmayib, bug' tutuni buruqsiyotgan kafe mashinasi turgan bar oldida to'xtadi.

– Sizga nima kerak? – deb so'radi barmen.

– Bedorlik.

– Nima balo, aqldan ozganmi deyman, – ensasi qotgan nari ketdi barmen.

– Kichkina bir qadahda mana shu ichimligingizdan bering-chi, – dedi ofitsiant birozdan so‘ng.

Barmen unga quyib uzatdi.

– Bu yerda nur biram yorug‘ va yoqimli ekan, ammo afsuski, bar tozalanmagan ekan-da, – deb xitob qildi kek-sa ofitsiant o‘ychan qiyofada.

Barmen unga qaradi-yu, miq etmadi. Tunda suhbat-lashish uchun vaqt juda kech bo‘lgandi.

– Yana bir qadah xohlaysizmi? – deb so‘radi barmen.

– Yo‘q, rahmat, – rad etdi ofitsiant, shunday deya u yengil qadam bilan tashqariga chiqib ketdi. Yolg‘iz ofit-siant negadir barlarni va qovoqxonalarni xush ko‘rmasdi. Ozoda, yop-yorug‘ kafe bo‘lsa umuman bo‘lakcha joy. Hozir kek-sa ofitsiant uzoq o‘ylanmasdan, har kungiday uyiga, o‘z xonasiga kirib ketadi. Karovatiga cho‘ziladi, nihoyat, kun yorishay deganida uyquga ketadi. Oxiri u, bu shunchaki uyqusizlikdan bo‘lishi kerak, deb qo‘yadi o‘zi-ga o‘zi. Bedorlik esa ko‘pincha faqat yolg‘iz kishilarda-gina bo‘ladi.

Ingiliz tilidan

Qandilat YUSUPOVA tarjimasi

R.K.NARAYAN

(Hindiston)

KICHIK AKTRISA

Qizcha shirin uyquda, tush ko'rib yotardi. Tushiga kichkina, faqat o'zigina sig'a oladigan ko'k parovoz kirdi. Qizcha parovozga chiqib oldi-da, butun bog'ni aylandi. Yasmin butasi oldiga kelganda qizcha to'xtadi va derazadan qo'lini chiqarib, gullardan uzib oldi, so'ngra parovoz uni bog'ning etagiga, ko'chaga yaqin joydagi devordan jingala bo'lib osilib turgan o'simlikning qizil gullari tagidan olib o'tdi. Keyin yolg'iz o'zi hayvonot bog'iga bordi, shunda hamma maymunlar u bilan birga parovozda sayr qilmoqchi bo'lishdi. Biroq parovozga faqat qizchanning o'zi va uning siyrak sochli qo'g'irchog'i sig'ardi, xolos. Parovozning poyondozi ustida bo'lsa qog'oz xaltachalarda shirinliklar sochilib yotardi. Qizcha shokoladni olish uchun xiyol engashgan edi. Shu payt onasining: „Kutti, Kutti, tura qol!“, degan ovozi eshitildi. Tush tamom bo'ldi. „Tura qol soat sakkiz bo'ldi“.

— Voy oyi-yey, nega uyg'otdingiz! Parovoz shunday yaxshi edi! Uyg'otmasangiz, men o'sha parovozda yana sayr qilib olardim. Qo'g'irchoq ham uyiga ketmoqchi edi.

— Hademay kelib qolishadi, sen tayyor bo'lib turi-shing kerak, hali seni kiyntirish lozim. Agar raqsing ular-ga yoqib qolsa, juda ko'p pul berishadi, sen u pulga ko'p qo'g'irchog'-u parovozlar olishing mumkin.

— Rostdanmi, oyi?

– Rost, qizalog‘im, rost. Tura qol, ular senga juda ko‘p pul berishadi.

– Ha, siz baribir pulni olib qo‘yasiz, men esa hech narsa sotib ololmay qolaveraman.

– Pulning hammasini senga berishga so‘z beraman, lekin bir shart bilan: anov kuni maktabda qanday qo‘shiq aytib raqsga tushgan bo‘lsang, bugun ham shunday qo‘shiq aytib raqsga tushasan.

Ikki nafar kino xodimi Kutti maktabda qo‘shiq aytib raqsga tushganini ko‘rishgan, o‘shalar kelmoqchi. Bu hol oila uchun kamdan kam bo‘ladigan omad edi. Kuttining otasi maktabda o‘qituvchilik qilib, oyiga ellik rupiy topar, bu puldan Kuttining o‘qish haqini to‘lashi, singlisining to‘yi tufayli olgan qarzining ma‘lum qismini uzishi va butun ro‘zg‘orni tebratishi kerak. Ikki yildan beri bu og‘ir tosh oilani ezib kelar, shuning uchun ham Kuttining dadasi har doim horg‘in yurardi. Mana hozir tasodifan qarzdan qutulishning yo‘li ochilib qoldi: qarzga olingan pulni qaytarib berib, nihoyat, Kuttining onasi ham odamlarning ko‘ziga qaray oladigan bo‘ladi.

– Necha pul so‘ramoqchisiz ulardan? – so‘rardi Kuttining onasi eridan.

Eri ham:

– O‘ng ming rupiy, undan kam bo‘lmaydi, – dedi.

Soat to‘qqizda kinematagrafchilar kelishdi. Ulardan biri keksaroq, barmoqlariga gavhar ko‘zli uzuklar taqib olgan, ikkinchisi yoshroq, nihoyatda olifta, tivit kastum kiyib, gardishsiz ko‘zoynak taqib olgan edi. Kuttining dadasi ularni o‘tirishga taklif qildi, shalog‘i chiqib ketgan kursilarga o‘tirishdi. Bu g‘arib xonada ularning savlati yanada oshib ko‘rinardi: ular shu darajada baland edilarki, xuddi uy shifti pasayib, naq ularning boshiga qo‘nganday, hatto ular biroz engashib turganday edilar.

Birmuncha vaqt hol-ahvol so'rashish bilan o'tdi, shundan keyin olifta kiyingani:

– Vaqtimiz ziq. Balki, qizchani chaqirarsizlar? – dedi.

Kutti mehmonxonaga kirdi. Onasi uni bu tantanali marosimga atayin qo'g'irchoqday yasantirgan: sochlari qattiq o'rilgan va gullar bilan bezatilgan, egniga katak shohi yubka, mosh rangli kofta kiygan, peshanasiga to'q qizil xol qo'yilgan edi. Dadasi g'urur bilan unga qarab qo'ydi.

Keksa kinematografchi qizchaga shokoladli paketcha uzatdi. Kutti olishga ikkilanib, ruxsat so'ragandek otasiga qaradi. Keksa kinematografchi o'rnidan turdi, qizchanning qo'liga paketchni tutqazib:

– Kinoni yaxshi ko'rasanmi, qizaloq, deb so'radi.

– Yo'q, – Kutti otasining tizzasiga suykilib, tutilmasdan javob berdi.

– Nega endi?

– Chunki kinoda qorong'i bo'ladi, – deb javob berdi Kutti. Olifta yigit bu paytda qizchanning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib turardi. U xayolga berilib ketdi:

– Men qizchani kalta ko'ylakda va sochlarini yoyib turgan holda ko'rishni istar edim. Bu qadimiy libosda u o'z yoshiga nisbatan kattaroqqa o'xshab ko'rinyapti. Siz qizchani boshqatdan kiyintira olasizmi?

– Hozirning o'zida-ya? – so'radi Kuttining dadasi va shoshib qoldi. – Bor, Kutti, ko'ylak kiyib, sochlaringni yoyib chiq, – deb buyurdi.

– Yelkangda yoyilib tursin, – dedi olifta kiyingani.

– Gullarni nima qilaman? – so'radi qizcha, – gul taqmasa bo'lmaydi.

– Ha mayli, sochlaring shundayligicha qola qolsin, faqat ko'ylak kiyib ol.

– Men shu yubkamni yaxshi ko'raman, – dedi Kutti.

– Yaxshi, kiymay qo‘ya qol. Bu keyin ham bo‘lavera-
di, – dedi olifta. – Sen bizga anavi kuni maktabda aytgan
qo‘shig‘ingni aytib, o‘ynab berasanmi?

– Yo‘q, – dedi Kutti. – Men hammasini unutib yubor-
ganman.

Keksa kinematografchi cho‘ntagini kovlab yana shoko-
lad oldi.

– Qani bo‘la qol, jajji qiz, o‘sha qo‘shiqni aytib ber-
sang, manavi shokoladni ham olasan. – Qizcha dadasiga
qaradi.

– Qani bo‘la qol, – dedi dadasi, bu uning: „Ha,
shokolodni olishing mumkin“, degani edi. Qo‘shni xo-
nadan onasining: „Ayta qol, Kutti, o‘zing esli qizsan-ku“,
degan ovozi eshitildi. Shundan so‘ng Kutti baland, kes-
kin ovoz bilan Krishnaning Xudoga murojaatini kuylay
boshladi. Xuddi Krishna shu yerda, uning oldida turgan-
day qizchanning ko‘zlarigacha raqs tushardi, qo‘llari uni
o‘z yoniga chorlar, oyoqlari esa pol uzra pildirab ketmoq-
da edi. Qizchanning a‘zoyi-badanidagi har bir mushak
qo‘shiqqa jo‘r bo‘lardi. U tug‘ma raqqosa, tug‘ma aktrisa
edi. Ovozi bilan, xatti-harakati bilan, yuz ifodasi bilan
jonli manzaralar yarata olardi. Raqsni tamomlagan qiz-
cha nafasini rostlab, o‘z tomoshabinlariga nazar tashladi.
Olifta kiyingan kinematografchi qizchani bag‘riga bosib
o‘par, hech qo‘yib yuborgisi kelmasdi. U hamrohiga:

– Odamni hayratga soladi bu qizaloq! Film uchun
aynan shu qizcha kerak! Agar siz shu qizni olmasangiz,
men bundan keyin ishlashdan mutlaqo bosh tortaman,
vassalom... Tushudingizmi?

Hamrohi tasdiq alomatini bildirdi.

– Soat to‘rtida biz yana kelamiz-da, qizchani studiyaga
sinov uchun olib ketamiz! – deyishdi. Xayrlashayotganda
keksa kinematografchi Kuttining dadasiga:

– Qizingiz bizga juda yoqib qoldi. Bunday istedod bilan shuhrat qozonadi, deb o'ylayman. Agar kechqurun vaqtingiz bo'lsa, siz bilan ba'zi masalalarni muhokama qilmoqchi edim.

– Unga parovoz bilan tepakal qo'g'irchoq olib berishni unutmang. Qizimiz kecha-yu kunduz shularni orzu qilib yuradi. Menimcha, narxi olti rupiydan xiyol ortiq bo'lsa kerak. Soat uchda Kutti tayyor bo'ldi, onasi uning sochlarini yoyib, kalta ko'ylak kiydirib qo'ydi. Kuttining rosa achchig'i chiqdi. „Men bu ko'ylakni yomon ko'raman, nimaga siz menga bu yomon ko'ylakni kiygizib qo'yingiz-a?“ u alam bilan sochlarini tortqiladi. „Bularni lenta bilan bog'lab qo'ying. Men bog'langan sochni yaxshi ko'raman.. Menga bog'langan soch yoqadi“. Onasi uni bir amallab tinchitdi va o'ynab kelish uchun hovliga chiqarib yubordi.

– Ehtiyot bo'l, kir qilma ust-boshingni! – tayinladi onasi.

Soat to'rt-da, kinematografchilar kelishganda Kuttining dadasi qizini qidirib hovliga chiqib ketdi. Qizcha hech qayerda ko'rinmadi. U xotinidan:

– Kutti qani? – deb so'radi. Hovlida yurgan edi. Ehtimol, qo'shninikiga kirgandir. Men hozir qarab kelayman. – Bir necha daqiqadan keyin ayol qaytib keldi. – Qiziq, qo'shni uyda ham, undan keyingisida ham yo'q, qayoqqa ketdi ekan?

Olifta kiyingani qizni chorak soat kutib turdi. Keyin:

– Biz studiyada bo'lamiz. Topgan zahoti qizchani o'zinglar olib boringlar, kelishdikmi? – dedi...

Qidiruv boshlandi. Onasi ko'chaning u boshidan bu boshiga zir yugurib chiqdi. Dadasi maktabdan surishtirdi. Butun uyni titib chiqishdi. „Kutti! Kutti“ deb chaqirishdi, kimdan iloji bo'lsa shundan so'rab chiqishdi. Onasi yerga uzala tushib olib dodlayverdi, dadasi bo'lsa nima

voqea yuz berganiga aqli yetmay ostonada qaqqyganча turib qoldi.

Xotining qayg'usi unga ham ta'sir qildi. Bolani birov o'g'irlab ketmaganmikan, degan xayolga ham bordi. Bunaqa ishlar ham bo'lib turadi. Kuttining dadasi xotiniga „Men hozir qaytib kelaman“, dedi-da, politsiya uchastkasidagi tanishlari bilan maslahatlashishga ketdi. Yig'lab, holdan toygan ona o'rnidan turdi. U yana hamma xonalarni qarab chiqdi, burchaklarni tekshirib ko'rdi. Kiraverishdagi xonadagi kir saqlanadigan savat sal qimirlab ketganday bo'ldi. Ona qopqonni ko'tardi. Savatning tagida kulcha bo'lib, yoyilib ketgan sochlari yuzini berkitgan Kutti yotardi.

– Kutti! – chinqirib yubordi jonholatda onasi va savatni siltalay boshladi. Qizcha qimir etmadi. Onasi amal-lab savatchadan chiqarib oldi, bag'riga bosganча uydан chiqdi. – Voydod, bolam o'ldi! Yordam beringlar! – zorlanib nola qilardi u.

Bir aravakashning onaga rahmi kelib, aravasiga chiqazib oldi-da, kasalxonaga yurdi. Vrach qizchani tomirini ushlab, yuragiga quloq solib ko'rdi:

– Hushidan ketgan. Tashvishlanmang, o'ziga kelib qoladi. – Kuttini stolga yotqizib qo'ydi. Anchadan keyin qizcha ko'zini ochdi, boshini ko'tardi, onasini bo'ynidan mahkam quchoqlab oldi.

– Oyi, agar ular biznikiga yana keladigan bo'lishsa, men savatga berkinib olaman-da, hech qachon qaytib chiqmayman!

– Qo'rqma, jon qizim, endi bezovta qilishmaydi. Men buning chorasini ko'rib qo'yaman! Pullari kerak emas... kunimizni ko'rarmiz bir amallab!

Siddiqa A'ZAMOVA tarjimasi

Somerset MOEM
(Buyuk Britaniya)

IJOD ALANGASI

Missis Foresterning „Axilles haykali“ nomli ilk de-
tektiv asari chop etilganda u 57 yoshni qoralagan, bir
qator asarlari bilan ko‘zga ko‘rinib qolgandi. Avvallari
uning o‘ziga xos iste’dodi o‘quvchilar nazariga tushma-
gan, bu esa uning kitoblari sotilmasligi sababli edi. Lekin
tanqidchilar Foresterning yangi asarini maqtab ko‘klarga
ko‘tarishdi.

Ijod bilan birga bu ayol siyosatda ham kuchini sinash
va hatto parlamentga chiqish fikridan ham xoli emasdi.
U har shanba kungi ziyofatida ko‘pchilik qatnashishini
istardi. Bazmlarga faqat bir kishi, ya’ni eri Albert Fores-
terning xushi bo‘lmasdi, xolos. Ko‘pchilik uni ziqnaligi
bois ziyofatlarga ishtiyoqi yo‘q deb hisoblardi. Forester
xonimning unga qanday turmushga chiqqani ham jum-
boq edi. Albertning marka yig‘ishga moyilligini sezgan
tanish-bilishlar unga „Filatelist“ deb laqab qo‘yishgan-
di. Albert kattagina boylikka ega biznesmen edi. O‘zi
g‘amgin, ma’yus yursa-da, goho huda-behuda so‘zlab
qolar, egnidan ohori to‘kilgan kiyimlar tushmasdi. Bi-
roq xotini bunga mutlaqo e’tibor bermas, aksincha, unga
mehribon, o‘rni kelganda erini mensimaganlarni izza
qilardi. Missis Foresterning hayotini tubdan o‘zgartir-
gan voqea yil oxiridagi ziyofatda sodir bo‘ldi. O‘sha
kuni stol atrofida bu ayol barchani og‘ziga qaratgan edi,

butun vujudi bilan tinglayotgan mehmonlar faqat savol berish mavridi kelgandagina notiqning soʻzini boʻlishardi. Ziyofat qizigandan qizib borardi. Kutilmaganda shovqin-suron koʻtarildi.

– Nima boʻldi, Karter? – deb soʻradi missis Forester oqsoch ayoldan. – Uy qulab tushmadimi mabodo?

– Kechirasiz, xonim, yangi oshpaz jomadoni bilan kirayotib qoqilib ketdi.

– Yangi oshpaz deganing nimasi?

– Missis Bulfinch bugun ishga chiqqani yoʻq.

– Janob Foresterning xabari bormi? – soʻradi xonim goʻyoki bu ishga eri masʼuliyat bilan qarashi lozimdek.

– Janob Forester chiqib ketganlar. Mana bu xatni yetkazishimni aytdi, – deya oqsoch buklangan qogʻozni uzatdi.

Xat mazmuni missis Forester kayfiyatini asta-sekinlik bilan oʻzgartira boshladi. Uning yuz ifodasidan Albertdan butunlay ajralganligini uqib olish mushkul emasdi.

Forester xonim oʻqib boʻlgach, xatni gʻijimlagancha yigʻlab yubordi:

– Qanday nohaqlik! Qanday dahshat!

– Nima boʻldi? Tinchlikmi? – soʻradi hamkasbi janob Simmons.

– Olib oʻqing, – dedi xonim gʻijimlangan qogʻozni uzatarkan.

Janob Simmons koʻzoynagini taqib oʻqishga kirishdi: „Azizim, missis Bulfinch ishini oʻzgartirganligi va usiz yolgʻiz qololmasligim bois birga ketishga qaror qildim. Bunday hayotdan sabr-kosam toʻlgan. Missis Bulfinch-ni nikoh qiziqitirmaydi, ajrashishni istasang, qaytadan oila qurishga qarshi emas. Uning joyiga yangi oshpaz yolladim. U bilan til topishasan degan umiddaman. Biz Kenington-rouddagi 41-uydamiz. Albert“.

Uzoq davom etgan sukunatni janob Simmons buzdi:

– Bu nima qiliq?

– Bu qanday xo'rlik! Chidayolmayman, – baqirdi Forester xonim qo'llari bilan yuzini yashirgancha. Vaziyatni tushunib turgan janob Simmons vazminlik bilan nasihat qildi:

– Agar osuda hayotni ma'qul ko'rsangiz, uning oldiga borishdan o'zga chorangiz yo'q.

– Uni deb men oshpaz bilan urisha olmayman, axir, – jahl bilan gapirdi Forester xonim.

– Aslzoda ayollar sizga ziyon yetkazmaydi. Biroq bunday ayollar adoyi tamom qilishadi sizni, – tushuntirishga harakat qildi Simmons.

– Bugungi ishni ertaga qo'ymasdan borishingiz kerak, – qo'llab quvvatladi mehmonlardan biri.

– Xo'sh, bir qarorga keldingizmi? – Missis Forester biroz o'ylanib turdi, qo'llari musht bo'lib tugildi, so'ngra javob berdi:

– Xon-u monimdan kechamanmi, obro'siz bo'lamanmi, baribir, uning oldiga bormasdan qo'ymayman.

Missis Forester ertasiga yo'lga chiqqanida kun choshgohdan oshgandi. Janob Simmonsning sa'y-harakati zoye ketmadi, u tez fursatda manzilni topib berdi. Qo'ng'iroq chalingandan so'ng peshvoz chiqqan ayolni u tanigan edi.

– Salom, Bulfinch. Ahvollaringiz tuzukmi? – hol-ahvol so'radi o'zini bardam va mardona tutgan missis Forester. – Xo'jayiningiz uydami?

Bekasini ko'rib, garang ahvolda turib qolgan Bulfinch salomlashgandan keyingina o'ziga kelib, mehmonni ichkariga taklif qildi:

– Keling, xonim, kiravering... Albert, missis Forester keldilar, – xabar berdi u keng xonaga bosh suqib. Forester

xonim uyga kirganda Albert kamin oldida, kursida gazeta o'qish bilan band edi.

– Ahvollar qanday, azizim, – so'rashdi u eski qadrdonlarcha gazetani chetga irg'itib.

– Aft-angoringdan chakki emas, – ko'zini uzmay xulosa chiqardi janob Forester javobni ham kutmasdan.

– Marhamat, o'tiring, xonim. – joy ko'rsatdi Bulfinch.

– Men xoli gaplashsak degandim, Albert, – deya maqsadini bayon qildi mehmon.

– Buning iloji yo'q, – dedi Albert bosh chayqab.

– Nachora, unda shunday gaplashaveramiz, – rozilik bildirdi missis Forester.

– Xo'sh, azizim, qulog'im senda.

Forester xonim vazminlik bilan gap boshladi:

– Albert, bu odatdagi hazillaringdan biri bo'lsa kerak. Uyga qaytsang degandim.

– Vaqtni bekorga sarflayapsan. Meni endi hech narsa sen bilan yashashga majbur qila olmaydi.

– Men bilan baxtli emasmiding? – so'radi missis Forester yuragi qalqib.

– 33 yil durustgina yashadik. Ma'lum ma'noda sen o'zingga xos eding, ammo menga emas. Sen ijodkorsan, men esa yo'q.

– Lekin men har doim ish bilan ovunmaganman, seni ham qiziqtirishga harakat qilganman. Bir zum ham e'tiborimdan chetda qolmagansan.

– To'g'ri. Hayotimning bir tekisligiga, balki, o'zim aybdorman. Biroq bunday hayot, umuman, barchasi jonimga tekkan. Meni bir narsa qiziqtiradi. Shu mehmonlarningning, yeb-ichishdan bo'lak, qo'llaridan biror ish kelarmikan?

– Bu nima deganing, Albert? – suhbatga aralashdi Bulfinch.

– Bulfinch ishdan bo'shshimni iltimos qilyapti, davom etdi Albert avzoyini buzmay. – Hamkasblarim bilan maslahatlashdim. Hal qilamiz deyishdi. Daromadim 900 pound bo'lsa, uchalamizga yiliga 300 pounddan tushadi, – deya hisob-kitob qildi u.

– Bu pulga qanday yashab bo'ladi? – so'radi lablari titragan missis Forester.

– Sening qalaming bor, – eslatdi Forester muloyimlik bilan.

– Kitoblarim daromad keltirmayotgani ayon-ku senga, – qoshlarini chimirdi ayol.

– Detektiv hikoyalar yaratib ko'ring-chi, – taklif kiritdi oshpaz ayol to'satdan. Forester xonim bexosdan aytilgan gapni kulgiga oldi va xitob bilan dedi:

– Menmi? Bu aqlga sig'maydi. Bunday hikoyalar bilan odamlar talabini qondirib bo'larkanmi? O'zi detektivga qaramagan insonman.

– Yomon fikrmas, – tasdiqladi Albert.

– Detektivlar jon-u dilim. Kutubxonada tungi ko'ylakda hushdan ketgan ayol haqidagi sujetni o'qisam, hikoyani qanday tugatganimni sezmay qolaman, – entikib gapirdi Bulfinch xonim vujudida ajib bir yengillik his etib.

– Men esa Xayd-parkda tillo soatli jentelmenning o'lib yotishini afzal ko'raman. Bunday voqea jiddiy e'tibor uyg'otadi, – dedi Albert qizishib.

– U muhim sirni bilgan. Qotillar unga og'zidan gullamaslik sharti bilan omon qoldirishni va'da berganlar.

– U dushmanlaridan qochishga ulgurmagan, – lo'nda qilib yakun yasadi Forester xonim.

– Sen yaxshigina detektivlar yaratishing mumkin, dalda berdi Albert uni ijodga chorlab. – Qo'limdan o'tmagan detektivlar bo'lmasa kerak.

— Sening-a? — ko‘zlari chaq nab, so‘radi Forester xonim.

— Mana shu narsa missis Bulfinch bilan ikkimizni bog‘ladi. O‘qib bo‘lgan kitoblarni unga bermadim. Bir-biriga o‘xshashlarini topolmaysan. Solishtirsang, o‘ziga xos bo‘lgan fazilatni topasan, — past, osuda tovushda gapirdi janob Forester.

— Oramizdagi tafovutni endi angladim, — dedi missis Forester ovozi qaltirab va iztirob bilan bosh chayqab. — O‘ttiz yildan buyon adabiyotdan pano h izlagan ekansan-da.

— To‘g‘ri anglabsan. Detektiv haqida o‘ylab ko‘r.

Bulfinch xonim mehmonni kuzatarkan, undan taksida ketish-ketmasligini so‘radi.

— Tramvayga chiqaman, — javob berdi xonim.

— Missis Forester, siz janobdan xavotirlanmang. Ro‘zg‘orni binoyiday eplayman. O‘zingiz bilasiz, oyday oshpazman...

Missis Forester og‘iz ochishga chog‘langanda, bekatga tramvay kelib to‘xtadi va u chiqib oldi.

Vaqt ni so‘rash uchun u yoniga o‘girildi-yu, tillo soatli, salobatli kishiga ko‘zi tushdi. Bu Xayd-parkda o‘lib yotgan, Albert tasvirlagan kishi edi. U konduktor-dan to‘xtashni iltimos qildi va tushib, kichik, qorong‘i ko‘chaga kirib ketdi. Nima uchun? Xayd-parkda tushish fikri Forester xonimning miyasiga yashindek bir kuch bilan urildi. U Axilles haykalidan biroz o‘tgach, to‘xtadi, haykalga razm soldi.

Yuragi haddan ziyod tez urardi.

Edgar Allan Po detektivlari mana shu tariqa dunyoga kelgandir.

Uyga kelgach, zaldagi bir necha shlapalarga ko‘zi tushdi. Hamma jamuljam edi. Xonim ko‘ksini to‘ldirib nafas oldi va asta mehmonxonaga kirdi.

– Kuttirib qo‘yganim uchun uzr. Choy ichdilaringizmi?

– Bizdan tashvishlanmang.

– Men muhim bir yangilik aytmoqchiman. Endi detektiv hikoyalar yozishga kirishmoqchiman.

Mehmonlar bu gapdan hang-u mang bo‘lib qolishdi.

– Detektivni adabiyot cho‘qqisiga ko‘taraman. Ilk hikoyamni „Axilles haykali“ deb nomlayman.

– Albert nima bo‘ldi?

– Umi? U butunlay yodimdan ko‘tarilibdi.

– Uni ko‘rdingizmi?

– Kelinglar, Albertni o‘z holiga qo‘yaylik. Hozir uni o‘ylaydigan vaqt emas. Men detektiv hikoyalar yozmoqchiman, – takrorladi baland ruhda yana Forester xonim.

– Siz judayam ajoyib ayolsiz! – maqtashdi mehmonlar uning soz kayfiyatidan mamnun bo‘lib.

Ingliz tilidan

Hulkar MUHAMMEDOVA tarjimasida

Paulo KOELO
(*Braziliya*)

BAXT KALITI HAQIDA RIVOYAT

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti – sirini bilib kelish uchun jo'natibti. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuribdi va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'ribti. U qidirgan Donishmand shu qasrda yashar ekan.

Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurlashar, sozandalarning kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiq taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi.

Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi.

Nihoyat, Donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti – siri nima-da ekanini tushuntirib berishga vaqti yo'q ekanini aytdi. Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga – zalga qaytib kelishni buyurdi.

„Sendan yana bir iltimosim bor, – dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog‘ solingan choyqoshiqni uzatib. – Bu qoshiqni o‘zing bilan olib yur, faqat ehtiyot bo‘l, ichidagi yog‘i to‘kilib ketmasin“.

Yigit qoshiqdan ko‘zini uzmagani holda qasrni aylandi, uning zinalaridan tepaga ko‘tarildi, pastga tushdi va nihoyat, ikki soat o‘tgach, Donishmandning ro‘parasida yana namoyon bo‘ldi.

„Xo‘sh, qalay, – deb so‘z qotdi Donishmand. – Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo‘ldimi? Benihoya mirishkor bog‘bonlar o‘n yildan beri ko‘zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog‘dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo‘lyozmalar-chi?“

Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko‘rmaganini tan oldi, negaki uning butun diqqat-e‘tibori Donishmand ishonib topshirgan ikki tomchi yog‘da bo‘lgan edi.

„Bor, orqangga qayt, uyimdagi hamma mo‘jizalarni ko‘rib kel, – dedi Donishmand. – Odam qayerda va qanday yashashini bilmay turib, unga ishonib bo‘lmaydi“.

Qo‘lida qoshiqcha bilan yigit yana zallar va yo‘laklar bo‘ylab aylana boshladi. Bu gal u o‘zini ancha erkin his qildi va xonalarni bezab turgan hamma noyob va g‘aroyib narsalarni ko‘rdi. U bog‘larni va qasr tevaragidagi tog‘larni tomosha qildi, gullar jozibasidan mohirlik bilan joylashtirilgan haykallar-u rasmlardan bahra oldi. Donishmandning huzuriga qaytib kelib, ko‘rgan narsalarning hammasini birma-bir sanab berdi.

„Qoshiqchadagi yog‘ qani?“ – deb so‘radi Donishmand.

Shu choq yigit qarasaki, yog‘ to‘kilib ketgan ekan.

„Senga berishim mumkin bo‘lgan birdan bir maslahatim ham shu, – dedi donolar donosi. – Baxtning kaliti – siri ana shunda: bu dunyoni bezab turgan, unga joziba, ajiblik ato etgan nimaiki bo‘lsa, hammasini ko‘ra bilmog kerak va ayni chog‘da o‘sha choyqoshiqdagi ikki tomchi yog‘ni ham zinhor-bazinhor unutmaslik zarur“.

Ozod Sharafiddinov tarjimasida

Patritsiya XELLET
(Yangi Zelandiya)

SHUNDAY KUN KELADI

– Shunday kun keladiki, o‘g‘lim, sen dadang bilan juda-juda faxrlanib yurasan, – bu so‘zlarni aytar ekan, onam qarshimda qo‘llarini qovushtirib, jilmayib turar edi.

U ko‘pincha mening aqlim yetmaydigan narsalar to‘g‘risida gapirar, lekin men, qandaydir ichki tuyg‘u bilan uning juda muhim gap aytayotganini his qilib, diqqat bilan tinglardim.

– Shunday kun keladiki, o‘g‘lim, o‘shanda sen quyoshga ham tik qaray olasan. Ko‘chalarda yuragingni hovuchlamay, bemalol yurasan. Otang va unga o‘xshagan juda ko‘p kishilar sening ajoyib kelajaging uchun kurashishyapti.

Bu gaplarni aytar ekan, u jilmayib qo‘yar, keyin mungli bir kuyni xirgoyi qilgancha, torgina kulbamizning yumushlariga sho‘ng‘ib ketardi.

Onam ham, otam ham qora tanli edilar. Men besh yashar bo‘lsam-da, o‘zimning ham qora ekanligimga aqlim yetarli. Mening endigina atak-chechak qila boshlagan kichkinagina singilcham bor edi, u ham qora, tishlari oppoq, qo‘y ko‘zlarining oqi juda tiniq edi.

Men oq tanli bolalarni yoqtirmasdim. Chunki, ular aftlarini bujmaytirib, meni mayna qilishar, ba‘zan esa ikki-uch kattaroqlari bir bo‘lib olib, „habash“ yoki „qora tappi!“ deb qochishardi.

Men o'sha paytlardayoq, biz qora tanli bo'lganimiz uchun ko'p narsalarni qilishga haqsizligimizni bilib olgandim. Oq tanli bo'lishni juda-juda istardim. Yolg'iz qolganlarimda esa: „Parvardigori olam, mening tanimni oq qilib qo'y“, – deb Xudoga iltijo qilardim.

Otam gavnali kishi edi. Qo'llari ham katta-katta edi. Ba'zan men uning qo'lini olib, kaftidagi chiziqlar ustidan barmoqlarimni yurgizardim. Shunda bu chiziqlar yo'l, mening barmoqlarim esa bamisoli avtomobil bo'lardi.

Otamning ko'zlari shunday ediki, qarshingizda siz bilan gapirishayotganday bo'lardi. Men bu oqi tiniq, jigarrang ko'zlarga qarab turib, dadamning nima haqda o'ylayotganini bilib olardim.

Derazadan qarab o'tirganida, dadam xomush bo'lib qolardi. Shunday paytlarda men udan:

– Ota, nega derazadan qaraganingizda xafa bo'lib qolasiz? – deb so'rardim.

U jilmayib qo'yar, ko'zlari xuddi ikki yonma-yon turgan ko'lga o'xshab namxush porlardi.

– Derazadan qaraganimdan emas bu, – derdi u mening jingalak sochlarimni silab. – Shunday, o'zim xayol sur-yapman.

– Unday bo'lsa xayol surmang, – derdim men.

– To'g'ri aytasan, bolakayim, – derdi dadam.

O'zining katta, kuchli qo'llari bilan mening kichkina qo'limni avaylab siqib:

– O'lay agar, gaping to'g'ri, – derdi.

Bu so'zlardan men terimga sig'may ketardim.

Ba'zan otam onam bilan shivirlashib nima haqidadir gaplashardi. Bir xil paytlarda u juda hayajonlanib ketardi, ko'zlari chaqmoqdek chaqnardi. Otam doim qo'llarini silkib-silkib gapirardi. Onam uning so'zlarini kulimsiragan holda tinglab o'tirardi.

Onam doim birdek og'ir, bosiq, irodali ayol edi.

Dadam kun chiqmasdan ishga ketib, qorong'ida qaytar edi. Shag'al to'kilgan yo'lakda uning oyoq tovushi eshivilishi bilan singlim Syuzi ikkovimiz kiraverishdagi eshikning orqasiga bekinib olardik. Dadam bizni hech payqamasdi. Faqat Syuzining hiringlagan kulgusigina bizni bildirib qo'yardi. Unga, „Jim tur“ deb shuncha tayinlaganim bilan baribir o'zini tutolmasdi. Onam: „Syuzi bekinmashoq o'ynashni bilmaydi“, derdilar.

O'shanda biz ko'p narsalarni bilmas ekanmiz. Dadam Syuzining kulgisini eshinishi bilan darrov o'girilib ikkalamizni ko'tarib olardi, osmonga irg'itib, yana darrov ilib olardi. Biz quvonchdan yayrab kulardik. O'sha kezlarda hammamiz baxtiyor edik!

Kechki ovqatdan keyin onam bizga ashula aytib berardi. Syuzi otamning tizzasiga o'tirib olib, yuzini otamning tizzasiga surkar, qo'lchalari bilan hali dadamning, hali o'zining yuzlarini silab ko'rardi.

Men bo'lsam, yerga, onamning oldilariga o'tirib olar edim. U ish tikib, ashula aytar edi. Ashulaning hamma so'zlarini tushunmasam ham, onamning ovozi juda yoqimli ekanini bilardim. Otam ham ko'zlarini yumib olardi-da, jilmaygancha ashulani tinglardi. Onam kuylaganda alla aytayotganga o'xshardi. Shuning uchun ko'pincha, Syuzi boshini otamning yelkasiga qo'ygancha uxlab qolardi. Mening ham uyqum kelardi.

– Nega Xudo bizlarni oq tanli qilib yaratmagan? – so'rardim onamdan, meni yotqizayotganida. – Axir bu to'g'ri emas-ku!

– Xudo hammamizni bir xil qilib yaratgan, – javob berardi onam. – Aqlimiz rangimizga qarab belgilanmaydi.

Men zo'r berib bu so'zlarning ma'nosini tushunib olishga harakat qilardim.

Ba'zan oq-qoralik haqidagi gaplarni butunlay unutib qo'ygan paytlarim ham bo'lardi. Lekin buni menga kimdir, nimadir eslatib turardi. Yana qoraligimdan o'ksib, Xudodan meni oq tanli qilib qo'yishini tilardim. Bir vaqt, nazarimda, qandaydir o'zgarish bo'layotganday tuyuldi. Otam ishdan kelib ovqatlangach, yana qayoqqadir ketadigan bo'lib qoldi. Onam bizga: „Otangning majlisi bor“, deb tushuntirardi. O'zining esa nimadandir tashvishlanayotgani ko'rinib turardi. U ham xuddi otamga o'xshab derazadan xomush tikilib qolar, sovqotayotgan odamday hadeb bir qo'li bilan ikkinchisini ishqalardi.

Men uning yoniga borib, ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lardim. Shunday paytlarda onamning jilmayishini juda-juda istardim. Uning ham, otamning ham xomush bo'lishini sira-sira yoqtirmasdim. Shunda onam meni qattiq achomlab olardi.

– Shunday kun keladiki, sen o'z otang bilan faxrlanib yurasan. Boshqalar bilan birga u ajoyib ish qilyapti. U buni sen va Syuzi uchun, sizlar katta bo'lganingizda baxtiyor yashashigiz uchun qilyapti.

Otam uyga horg'in qaytadigan bo'lib qoldi. Bir kuni ko'zimga u oqarayotganday bo'lib ko'rindi. Uning shuncha ishlari uchun, juda yaxshi ota bo'lgani uchun Xudo yorlaqayapti, deb o'yladim.

– Otajon, siz oqaryapsiz, – dedim sochlarini ko'rsatib. – Onajon, qarang-a!

– Rost, oqaryapsiz, – kulib qo'ydi onam. Otam ham kulib yubordi.

– Qo'y, o'g'lim, qora va oq degan gaplar bilan kichkinagina boshingni qotirma. Katta bo'lganingda bu gaplarning sariq chaqaga arzimasligini bilib olasan. Faqat bir narsa muhim. U ham bo'lsa – sen yaxshi odam bo'lib yetishasanmi yo yomonmi? Hamma gap shunda.

O'sha paytda men otam bu bilan nima demoqchi ekanligiga tushunmagandim. Bir kuni men shag'al yo'lkadan otamning oyoq tovushlarini eshitib, Syuzini ogohlantirdim. Ikkalamiz shosha-pisha eshik orqasiga berkindik. Onam kastrulkadagi qandaydir mazali ovqatni kovlayotgandi.

— Jim, — shivirladim men Syuziga. U otamnikiga o'xshash qo'y ko'zlari bilan menga qaradi. Menga taqlid qilib u ham „Jim“ dedi.

Kuta boshladik. Birdan qattiq qarsillash ovozi keldi. Otam qichqirib yubordi. U shunday qattiq qichqirdiki, mening ham dodlab yuborgim keldi. Eshik oynasi chilchil sinib, dahlizga to'kildi. Onam boshini qo'llari bilan changallagancha yugurib chiqib ketdi. Uning ko'zlari katta-katta bo'lib ketgandi. U bizni ham ko'rmay, yo'l-kaga, otamning yoniga yugurdi. Men qo'rqib ketganimdan Syuzining qo'lini mahkam ushlab oldim. Biz ham onamning ketidan chopib ketdik. Otam yo'lkada yotardi. Men uning yuzini ko'rolmadim. Oyim ovozining boricha o'kirib yig'lab yubordi. Shu payt dadamning har doimgidek uyga kirib kelishini, oyimning ashula aytib o'tirishini juda-juda xohlab qoldim. Odamlar yugurib kelishdi. Men ularning gaplaridan qandaydir kishi to'pponcha bilan otamni otganligini tushundim. Ammo nega o'sha oq tanli kishi bizning baxtli bo'lishimizni istamaganini tushunmadim. Bir kishi (uni men bir marta ko'rgandim) Syuzini ko'tarib oldi. Meni esa yetaklab o'zi bilan olib ketdi.

— Ota, otajon, yuring, ketamiz, — derdi Syuzi qo'lchalarini cho'zib, — ota, yuring!

Men yana yig'lab yubordim. Endi otamning hech qachon o'rnidan turmasligini bilardim. Mana, men katta

bo'lib qoldim. Ko'p narsani tushunaman endi. Men otam va unga o'xshash kishilarning qilgan ishlari tufayli vaqti kelib oq yoki qora tanli bo'lishning ahamiyati qolmasligini bilaman. Shuning uchun, meni oq tanli odam qilgin, deb Xudoga yalinmayman ham. Hamma gap mening yaxshi yo yomon odam bo'lib yetishishimda!

– Ona, – dedim men bir kuni derazadan yo'lkaga tikilib turgan onamga, – biz otam bilan chindan faxrlanamiz.

U singlim ikkovimizga qaradi-da, qo'llari bilan ko'zini artib:

– Men bilaman... bilaman... Sizlarning hayotingiz, albatta, yaxshi bo'lishiga ishonaman, – dedi jilmayib. – Shunday kun keladi...

Rus tilidan

Nasiba ERGASHEVA tarjimasi

Zu VINTER
(Germaniya)

ILK MUHABBAT

Bu voqea sodir bo'lgan paytda, qizcha endigina o'n yoshga to'lgan edi. O'sha kezlarda u maktab hovlisida va yo'laklarda, bolalar orasida shodumon yugurib yurardi. Bolalarning sho'xliklarini biroz tartibga solish uchun o'qituvchilar yuqori sinf o'quvchilaridan navbatchilar tayinlaydigan bo'lishdi. Yuqori sinf o'quvchilari esa bu ishga chinakamiga kirishib, qattiq nazorat o'rnatishdi. Kichiklar nazarida, navbatchilar qandaydir samoviy qudratga ega edilar. Bolalar ikki qator bo'lib sinflarga ko'tarilayotganlarida ular zinaning ikki tomonida turib kuzatishar, tanaffus paytlarida esa yo'lka bo'ylab yurishar va sinflarni tekshirishardi. Kimdir yugurishdan o'zini to'xtata olmasa yoki biror nojo'ya ish qilayotganda qo'lga tushib qolsa bormi, uning holiga voy – tanaffusning qolgan qismini eshik yonida tik turib o'tkazishga majbur bo'lardi. Bola – bola-da, shumtakalar aksiga olib, yangidan yangi beboshliklar bilan nazoratdagilarni aldab, begunohlarni jazoga giriftor qilishardi. Qizcha shunaqa shumlikka duchor bo'ldi. U eshik yonida turganida o'g'il bolalardan biri kelib orqasidan shasht bilan itarib yubordi. Qizcha eshikdan otilib chiqib, tartibni nazorat qilib yurgan yuqori sinf o'quvchilaridan biriga borib urildi. Yigit uning qo'lidan mahkam ushlab, eshik yoniga olib keldi:

– Sho‘xlik qilganing uchun mana shu yerda turasan!

Qiz boshini ko‘tarib yigitga qaradi. Bu ishni uning o‘zi ataylab qilmaganligini, o‘g‘il bolalar itarib yuborishganini aytmoqchi bo‘ldi-yu, aytolmadi. Tomog‘iga bir narsa tiqilib, ko‘zlaridan marjon-marjon yosh yumalab tusha boshladi. Yig‘isini tiyolmayotgan bo‘lsa-da, jazolayotgan yigit ahyon-ahyonda unga qarab qo‘yayotganini payqadi...

Qizcha eshik yonida qotib turar, ko‘zlaridan hamon yosh oqardi. Nihoyat, yigit uning yoniga kelib, cho‘ntagidan dastro‘mol olgancha qizning ko‘zlarini artib qo‘ydi. Nega bunaqa qilganini, ehtimol, o‘zi ham bilmasdi, balki, shu tariqa qizga ozgina yordam bermoqchi, ko‘nglini ko‘tarmoqchi bo‘lgandir.

Qiz yigitga minnatdorchilik bilan qarab qo‘ydi, bir necha daqiqa ularning nigohlari to‘qnashdi. Yigit qiz o‘ylaganchalik yengiltak va toshbag‘ir emas, uning ko‘zlarida chuqur ma‘no, oliyjanoblik va mehr bor edi. Keyingi darslarning qanday o‘tganini qiz payqamadi. Yigitning nigohi qizning ko‘z o‘ngidan ketmas, murg‘ak qalbida allaqanday mavhum, tumanli, ammo shirin tuyg‘ular uyg‘ongan edi...

Dars tugab, uyga qaytayotganda qiz: „Balki, u orqamdan qarab turgandir“, degan o‘yda boshini mag‘rur ko‘tarib ketdi. Biroq bu paytda orqada yigitning qorasi ham ko‘rinmasdi. Kechqurun uyquga yotayotganda yana o‘zining eshik yonida turgani, yigit kelib cho‘ntagidan dastro‘mol chiqargancha ko‘zlarini artib qo‘ygani qizning xayolidan ketmadi.

Ertasiga u maktabga o‘qdek uchib bordi. Ehtimol, bugun ham ular uchrashib qolishar... Qizcha bu uchra-shuvdan quvonar, birozgina qo‘rqardi ham. Katta tanaffus

paytida u bir necha bolalar bilan quvlashib, ataylab yigitning atrofidan aylanib chopdi, ammo yigit unga e'tibor bermadi. U to'polonchi o'g'il bolani ogohlantirib turgan edi. Sinfda o'tirganida qiz: „Keyingi tanaffus paytida o'g'il bolalar bilan janjallashaman, keyin u kelib meni eshik yoniga turg'izib qo'yadi, shunda yaxshilab ko'rib olaman“, deb ko'ngliga tugib qo'ydi. Qizning bu rejasini ham amalga oshmadi, chunki keyingi tanaffus yigit yo'lakda ko'rinmadi.

Ertasiga qiz zinadan ko'tarilayotganda ular tasodifan yuzma-yuz kelib qolishdi. Yigit qizning ko'zlariga termilib qaradi, qizcha ham unga tikildi-yu, uyalib ketdimi, darrov ko'zlarini olib qochdi. Nigohlarning shu bir lahzalik uchrashuvi qizning bir necha haftalar davomida shirin-shirin tushlar ko'rishi uchun yetarli edi. U yigitga ro'baro' kelgan kezlari zavq-shavqqa to'lib ketar, ko'rishmagan paytlari esa rutubatli kuz kunlaridek zerikarli va g'amgin o'tardi. Yigitni deb u bir marta tushlikka kechikdi, onasini ancha kuttirib, xavotirga solib qo'ydi. O'shanda yuqori sinf bolalari maktab hovlisida qo'l to'pi o'ynayotgan edilar. Qiz jildini devorga suyab qo'yganicha, yigitning qanday o'ynayotganini kuzatish uchun tomoshabinlar orasidan joy oldi. Hovli burchagida jimgina o'tirib, uning har bir harakatini zimdan kuzata boshladi. Qizning shu yerdaligini payqagan yigit esa bolalarning barchasidan yaxshiroq o'ynardi. Ba'zan u raqib darvozasi yonida to'pni qo'lga olib balandga sakrar va bir lahza havoda go'yoki muallaq turib qolardi. Darvozabon uning harakatlaridan aldanib o'zini bir tarafga olar, yigit esa to'pni ikkinchi tarafga sekingina tashlab qo'yar va tomoshabinlarning qiyqiriqlariga sazovor bo'lardi. Qizcha o'zining shu yerdaligi yigitga qanot bag'ishlayotgani-

ni g'ira-shira his etsa-da, bunga o'zini ishontirolmasdi. Yigit, uning nazarida, baland bir cho'qqida, o'zi esa... Odatda, o'ninchi sinf bolalari yosh qizchalarni unchalik pisand qilishmaydi-da...

O'quv yili tugadi. Yigit maktabni bitirib ketdi. Qiz g'amgin bir holga tushib qolgan, shu bilan hammasi tamom bo'ldi, deb o'ylar edi. Ta'til kunlari tugab, yangi o'quv yili boshlandi. Yigitning o'rnida endi kichkin-toylarni boshqa bir bola nazorat qilar, bu esa qizchanning murg'ak qalbiga bitmas-tuganmas jarohatlar solardi. Biroq yillarning o'tishi, har kuni yangi-yangi voqealar yuz berib turishi natijasida qizning ko'z o'ngida yigitning surati avvaliga xiralashib, so'ngra o'chib ketdi. Vaqt har qanday dardni davolaydi, deganlari rost ekan. Qizning g'amlari biroz bosilganday bo'ldi. Surati ko'z o'ngidan ketgan bo'lsa-da, u yigitni butunlay unutmadi. Yillar o'tib, boshqa bir yigit undan ilk bo'sa olganda ham, qiz buni birinchi muhabbatim, deb atolmadi. Izhor etilmagan birinchi muhabbatini u yuragining eng to'rida, eng maxfiy joyida, bolalik damlarining sehrli va ohanrabo ertagi sifatida avaylab-asrab kelardi...

Qiz turmushga chiqdi. Farzand ko'rdi. Qizchasi ikki yoshga to'ldi. Sentabr oyining o'rtalari edi. Kasbdoshlari uni ziyofatga taklif etishdi. Kimdir institutni sirdan tamomlagan ekan. Barcha bir restoranga yig'ildi. Ayol quvnoqlar davrasida gul-gul ochilib o'tirar, qozonilgan muvaffaqiyat sharafiga atrofdegilar bilan qadah urishtirar edi. Bir vaqt qo'shni stol atrofida o'tirgan yigitlardan biri o'rnidan turib, uning yoniga keldi va raqsga taklif etdi. Qiz yalt etib qaradi-yu, qalbining to'rida yashirinib yotgan tuyg'ular yuzaga chiqib, butun vujudini yondirib yuborganday bo'ldi. Qaltirab ketdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki,

bu o'sha – murg'ak qalbning shaffof ehtiroslari ila sevib qolgan, ko'z o'ngidan, baribir, surati ketmagan yigit edi!

Ular raqsga tusha boshladilar. Bir-birlarining qo'llaridan tutib aylanisharkan, ayolning o'zida ham hozir kulgili bo'lib tuyulayotgan o'tmish bolaligi to'g'risida so'zlab berish istagi tug'ildi. Ammo u yigitning ko'zlariga tikilib qaray olmadi. Yigit esa uni ohista o'ziga tortib, yuzini uning jingala, qo'ng'ir sochlariga qo'yganча qulog'iga shivirladi:

– Bilasizmi, ehtimol, siz meni masxaralab kularsiz, ammo bir vaqtlar, maktabda o'qib yurganimizda men sizni juda qattiq sevib qolgan edim.

Nemis tilidan

Yo'ldosh PARDAYEV tarjimasi

Alevtina RASSKAZOVA

(Rossiya)

ESON-OMON UYGA QAYT!

Ular ayni Yangi yil arafasida uchrashib qolishdi. Xuddi ko'kdan kimdir ularning ko'rishib qolishini aynan shu sehrli kunlarga to'g'irlagandek...

O'tgan haftada uchrashishga kelishib olishgandi. Lenada bir hafta davomida o'z ustida mayda-chuydalar-gacha o'ylashga, bugun eng go'zal ayolga aylanish uchun harakat qilishga yetarli vaqt bo'ldi. Albatta, ikki bolali ayol sohibjamolga aylanishi uchun ancha muncha vaqt ketdi. Eri bo'lsa unga ko'zlarini katta-katta ochib tikildi-da, bu go'zallik faqat ungagina tegishli ekanidan g'ururlanib qo'ydi. Ammo bu urinishlar eri uchun emas... Maksim — uning orzusi edi. Bugun nihoyat ayol bariga chek qo'yib, eri bilan munosabatlarini uzishga qaror qilgan.

Maktabni bitirganlariga ham yigirma yil to'lay debdi. Ammo ular uchun hech nima o'zgarmagan: Lena doimgidek serkulgi, peshonasiga tekis gajak tushirgan. Maksim ham o'shanday jiddiy, keng yelkali va mushakdor, xuddi Gollivud yulduzlarini eslatadi. O'sha payt ikkisi nima sababdan urishib qolishgan, hech kim eslolmaydi. Birinchi sinfdan boshlangan bu do'stlik rishtalari keyinchalik muhabbatga aylangan, ammo nimadir bo'lib arazlashib ketishgandi. Ular Rossiyaning boshqa-boshqa maskanlarida yashashdi. Lekin taqdir baribir ularni yana uchrashtirdi. Bu uchrashuv tasodifan yuz bergan bo'lsa-

da, ikkisi ham buni taqdir inoyati deb bilishdi. Lena bu uchrashuv bejiz emasligini, hayotini o'zgartirishi lozimligini shunda anglab yetdi.

Shuncha yillar davomida u Maksimni unutmagan, ilk muhabbatini bir daqiqa bo'lsa-da xayolidan o'chirolmagan... Ularning onalari qo'shni bo'lgani uchun doim gaplashib turishardi. Lena sobiq suygani haqda onasidan eshitardi. Onasidan bilganlari shuki, Maksim institutni qizil diplom bilan tamomlagan. Lena unga qasd qilib atay aspiranturani ham o'qidi. Yigit ilk mashinasini 1991-yilda xarid qildi. Buni eshitgan qiz ham undan qolishmaslik uchun borini yig'ib, kamiga qarz olib bir haftadan so'ng xuddi shu mashinadan sotib oldi. Maksim poytaxtga ko'chib ketganini eshitgach, uyam shuning dardiga tushdi. Eri va ikki yosh bolasi bilan katta shaharga kelishdi. Poytaxtda avvaliga ijarada yashashdi. Mana, hozir Moskva markazida o'zlarining uch xonali kattagina uylari bor. Endi bu uyni eri va bolalariga tashlab ketadi. Maksim bilan ishlab o'zlari uchun boshqa yaxshi uy xarid qilishadi hali. Umuman, uy haqda o'ylashning nima keragi bor, yonida Maksim bo'lsa bas! Ikkisi birga bo'lsa, tog'larni talqon qilishga qodirdek. Axir ular bir-biri uchun yaratilgan! Bir-biriga mos... Eri-chi? Lenaga sira munosib bo'lmagan. Bari joniga tekkan!

Lena erini tashlab ketadi, Maks bo'lsa xotinini... Bolalar-chi? Ular ancha katta bo'lib qolishgan, o'z kunlarini ko'raverishadi. Lena o'zini Maksimdan boshqasiga kerak emasdek sezardi. Aslida, ikkisining hayoti bir-biriga juda o'xshab ketadi. Ular bir paytda oliy ma'lumot olishdi. Maksim 1989-yilda uylandi, Lena esa undan uch oy avval turmushga chiqqandi. Maksimning Lena kabi ikki farzandi bor. Yigit o'z shaxsiy firmasini ochgandi. Lenaning ham do'koni bor edi. Farqi shuki, qiz muzqaymoq sotar-

di, yigit bo'lsa sharob. Keyinchalik ishlari yurishib, ikkisi ham yuqori lavozimlarga ko'tarildi. Maksim qo'shma korxonaning vitse prezidenti, Lena bo'lsa xolding firmaning direktor o'rinbosari. Hayotlari shunchalik o'xshash kechganki, go'yo birga yashash uchun yaratilgandek...

Hattoki ikkisi bir vaqtning o'zida Internetdagi ijtimoiy tarmoqqa a'zo bo'lishgan. Lena ikkisi uchrashib qolishgach, Maksim ham unga befarq emasligini, uni izlaganini, ammo qanday gaplashishni o'ylab, tortinganini bildi. Maksim bir haftadan so'ng uchrashib, yoshlik yillarini eslashga taklif etganda, Lena bajonidil qabul qilgandi.

Mana, uchrashuv joyiga ham yetib keldi. Maksim unga mehrlil va intiq ko'zlarini tikib ancha so'zladil. Lena bo'lsa faqat kulardi. Erkak unga o'zi haqida gapirib berdi. Muhimi, so'zlashuv emasdi. Nigohlarning sirlashuvi, qo'llarning tafti, yurak urishini tinglash ular uchun yetarli edi. Lena o'zini yettinchi osmonda sezardi. Tuyg'ularga asira bo'lib, hoziroq uniki bo'lishga tayyor turardi... Shu payt ayolning qo'l telefoni kuy taratib qoldi. Qarasa, eri.

– Azizam Lena, uzr, dugonalaring bilan uchrashuvingga xalal berib sim qoqyapman. Ishlaring joyidami?

– Hm... – arang javob berdi ayol.

– Bilasanmi, o'zimni g'alati his etyapman: xuddi seni yo'qotib qo'ygandekman. G'alati eshitiladi, to'g'rimi? Lekin sensiz qolishimni o'ylasam, dunyo ko'zimga qorong'i ko'rinib ketadi. Chindanam sog'-salomatmisan?

Erining ovozi shunchalik qayg'uli va tashvishli edi-ki, Lenaning ko'ngli ezildi. Nahotki, chindanam rafiqasi uni tashlab ketish arafasida ekanini sezayotgan bo'lsa? Ko'ngillar birligi shumikin? Lena beixtiyor bir necha yil avval o'zining birdaniga xastalanib qolganini esladi. O'shanda qo'llari o'zidan o'zi ishlaymay qoldi. Shifokorlar kesib tashlaymiz, deyishdi. Ammo mo'jiza tufayli qo'llari

yana ishlab ketdi. Biroq sakkiz oy davomida to'shakda yotib qolgandi. O'shanda eri har doim yonida qo'llaridan ushlab turdi, ayoli chekkan azoblarni birga tortdi.

Lena shularni eslarkan, erining „Dugonalaringga salom ayt, kechki payt bolalar bilan sen uchun alohida kechki taom tayyorlab beramiz“, degan so'zlarini eshitmadi.

– Iltimos, eson-omon uyga qayt... – dedi eri xayrlasharkan. Lena bu so'zlarni aniq-tiniq eshitdi.

– Qaytaman... albatta, – dedi so'ng pichirlab. U qarshisidagi sobiq sinfdoshini ham payqamas, telefonini ko'ksiga bosganча „Qaytaman“, deb shivirlardi. Yangi libosiga tomgan ko'zyoshlarini ham sezmedi. So'ng Maksimga qarab „alvido“ dedi-da, uyi sari shoshdi.

Nodirabegim tarjimai

L. NOLAN

(Angliya)

ESKI YILDA QOLGAN YOLG'IZLIK

Bugun Yangi yil oqshomi. Qiz davrada bazmga xos libosda o'tirar, do'st-u dugonalari bilan deyarli ishi yo'q edi. Bar tashqarisidan Nyu Yorkning bor go'zalligi namoyon bo'lar, qarshisida esa qadahlar jarangi tinmasdi. Atrofda chiroyli odamlar, chiroyli libos-u chiroyli taqinchoqlar, chiroyli tabassumlar... Quloqqa esa sokin jazz musiqasi orom bag'ishlardi.

Qiz esa erinchoqlik bilan zaytun sharbatidan ho'plar, shokoladi erib, satin libosiga tomar edi. Do'stlari kelgusi yildagi rejalari, maqsadlari va orzulari haqda to'lib-toshib so'zlashardi. Kimdir oshkora, kimdir esa zimdan yanagi yil hayotlarida mo'jiza yuz berishini istardi. Qizning esa mo'jiza kutmay qo'rganiga yuz yillar bo'ldi. Bu yil ham har yilgidek...

Qiz yolg'iz edi. To'g'ri, atrofda do'st-u tanishlari bisyor, biroq u baribir qalban yolg'iz... Yon-veridagilarga qanchalik sinchiklab boqmasin, yuragini jiz ettiradigan, olov bag'ishlaydigan hech narsani topolmasdi. Mana bu yoqimtoy yigitlar-ku, toza dimog'dor edilar. Birdan qizning bu yerlardan qochib ketgisi keldi. Shunday qildi ham. Soat millari o'n bir-u o'ttizni ko'rsatar edi. Ko'cha ancha sovuq, odam ko'p. Sochlarini shishirib, jinsi kiygan ayollar, soqol qo'yib, kovboycha kiyingan, ko'zlari olazarak erkaklar... Qiz go'yo sezmagandek, ularning orasini yorib o'tardi.

– Yangi yilga o'n daqiqa qoldi! – kimdir mikrofon orqali bildirdi.

Qiz Yangi yilni har galgidek yolg'iz kutib olishga kirishdi va xoli joy izlay boshladi. Ha, eng yaxshi makon – temiryo'l relslari. Toshloq yerda yurish yoqimli, u yerdan shaharning qiyqirig'i eshitilib turadi.

Sevgan yigiti sentabr oyida uni tashlab ketdi. O'sha kuni qizning tug'ilgan kuni edi. Shundan so'ng yigitni boshqa ko'rmadi. Yigit uni so'rab kelmadi... Qiz uning uncha chiroyli bo'lmagan chehrasini, qora, mahzun ko'zlarini, tartibsiz turadigan sariq sochlarini qo'msardi. Yigit uni boshqa qiz tufayli yoki karyerasini deb tashlab ketmagan. Har holda, qiz shunga ishonadi.

Qizning ko'zlari unga tikilib turgan nigohlarga tushdi. U ham yolg'iz edi, qo'lida ichimlik. Ammo u qizga biror so'z aytmadi.

– Yangi yilga besh daqiqa qoldi! – Bu ovoz jarangladi yana.

Qiz negadir bu tantanali so'zlardan ta'sirlandi va beixtiyor yigit tomon qadam tashladi.

– Yolg'izmisiz? – so'radi yigitdan.

– Ha, – boshini qimirlatdi u.

– Men ham...

– Shundaymi? – yigit jilmaydi.

– Sizdan bir narsa so'rasam maylimi?

– Xo'p...

– Yangi yilga uch daqiqa qoldi! – odamlar qiyqirishdi.

– 1998-yilga siz bilan birga kirib borsam maylimi? – qiz boshini egdi.

Yigit esa jilmaydi va, roziman, degandek boshini qimirlatdi. So'ng qizga ichimlik uzatdi.

– Tabassumingiz chiroyli ekan, – yigit samimiy so'z qotdi.

Keyingi ikki soat davomida ular raqs tushdilar, bir-birlarining ko'zlariga tikilganicha uzoq suhbat qurdilar. Yigit shaharga yaqindagina kelgan, bu Nyu-Yorkdagi ilk Yangi yili ekan. Shevasida boshqa davlatning ufuri sezilar, kiyimlari ham oliftalarnikiga o'xshamasdi. Qizning nazari-da, u davradagi eng yoqimtoy yigit edi.

Qizning taklifiga ko'ra, ular temiryo'l so'qmoqlarida sayr qilishdi. Osmonda yulduzlar charaqlagan, havo toza va musaffo edi. Temiryo'l shag'allarida tosh o'ynab o'tirishar ekan, qiz umrida hali bunchalik ajoyib Yangi yil kutmaganini tan oldi. Shu payt poyezd kelayotgani eshitildi. Yigit darrov hushyor tortib, qizni o'rnidan shart turg'izdi. Poyezd shovqini ichra ular ovozlari boricha hayriqishdi. Ichlaridagi g'uborlar tarqab ketguncha baqirdilar. Yigit bilardi: qizning ko'nglidagi tugun yechildi, u endi yolg'iz emas... yolg'iz emaslar.

Ingliz tilidan
Mohimbegim tarjimasini

Jek LONDON
(AQSH)

KEKSA ASKAR HIKOYASI

(Muallifning otasi boshidan kechirgan hayotiy hikoya)

U vaqtlar zamon g'alati edi, front esa sarguzashtlar o'tkazadigan joy emas edi. Urush davomida boshimdan o'tgan eng tahlikali voqealarning ba'zilari shundoqqina uyimizda sodir bo'lgan edi. Qilichim yonida osilib turadigan eski Kolt revolvorni ko'rgansiz-a? Uni armiyadagi besh yilim davomida olib yurganman va u bir necha marta eng og'ir vaziyatlardan chiqib ketishimda yordam bergan.

Oltmish uchinchi yil o'ttiz kunlik mehnat ta'tilida, yaqinlarimni ko'rish, shuningdek, yangi askarlar yig'ish uchun uyga keldim. Ta'tilim tugagunga qadar, nihoyatda omadim kelib, yigirma besh-o'ttiz nafar xizmatga yozilmoqchi bo'lgan ko'ngillilarni topdim. Ular orasida olib ketishimga zo'r berib uringan bir yosh yigitcha bor edi. Uning o'zi xohlashiga qaramay, otasi o'jarlik qilib, ketishiga yo'l qo'ymasdi. Buning bor-yo'q sababi shu ediki, jo'xori archish mavsumi hali tugamagan, o'g'li Hiram esa bu ishga kerak edi. Pirovardida, otasini rozilik berishga undagan birdan bir sabab bu – mukofot edi. Armiyaga qo'shilgan har bir kishi uchun yuz dollardan taklif qilinayotgan edi. Hiram esa uning har bir sentigacha otasiga berishga va'da bergan edi. Shunda qariya Zek, agar men uning o'ringa qolib, jo'xori archishga yordam bersam, rozilik berishini aytdi.

O'ttiz kunlik ta'tilim poyoniga yetdi, biroq o'sha paytlar yosh va beg'amligim sabab, bunga e'tibor qilmadim.

Boshqa ko'ngillilar ham jo'xori archish tugagunga qadar qolish istagida ekanligini bilardim, bundan tashqari, o'ttizta azamat yigit bilan polkimga borganimda, men ga jin ham urmaydi degan xayolda edim. Shunday qilib, men ham o'z hissamni qo'shdim. Ikki hafta deganda qariya Zekning barcha jo'xorilari archib bo'lindi va men jo'nashga shay edim.

Biletlar olingan va tongda Rok Aylendda Quinsiga jo'naydigan poyezdga chiqishga tayyor edik.

U yerda shaharchamizdan chiqqan bunchalik ko'p ko'ngillilar e'tirof etilishi, shuningdek, qasamyod qilishlari va va'da qilingan mukofotni olishlari kerak edi. Biroq men ta'tilimda uzoq qolib ketishdan tashqari, bir narsani unutgandim, ya'ni bosh zobitni. Bu zobitlar har yerda uchraydigan, ko'chada hayvon tutib yuruvchilardan ham jirkanchroq kimsalar edi. Ularning vazifasi qochoqlarni tutish, maoshi har bir tutilgan qochoq uchun yigirma besh dollar bo'lgani uchun ham, anglaganingizday, qulay fursat kelganda aslo xatoga yo'l qo'ymasdi. Qaniydi, ular faqat asl qochoqlarni qo'lga olishganda edi. Xalq ularni shuning uchun ham yomon ko'rardiki, ular bor-yo'q aybi uyida uzoq qolib ketgan yoki arziyas xatoga yo'l qo'ygan yaxshi, halol askarlarga zahmat keltirardi. Bosh zobit ziyrak, sherday kuchli edi va okrugimizda bitta pastkash bo'lsa, u ham o'sha edi. Biroz oldin Tommi Jingles polkimdan uyiga kelgan va beparvolik qilib, ta'tilda uzoq qolib ketgan edi. Uchinchi kuni armiyaga qaytish uchun, Rok stansiyasida shundoq poyezdga chiqayotganida, Devi Mak Gregor uni qo'lga oladi va qamoqqa jo'natib yuboradi. Yigirma besh dollar mukofot va xarajatlar bechora Tommining maoshidan undirib olinadi. Tommi esa qochishni xayoliga ham keltirmagan edi. Bu esa Devi Mak Gregorning bu qadar shafqatsiz ish tutishining birgina misoli edi.

Hikoyamga qaytadigan bo'lsam, o'shanda uydagi so'nggi tunim edi, tushimda urush janrlarini ko'rardim. Jang bulutlarida olg'a intilib borardim. Mushket do'l yog'ishiga o'xshab taraqlar va biz birinchi avanpost shiddat bilan baqirib, yugurib borayotgan ekanmiz. Shu payt eshikning qattiq taqillashidan uyg'onib ketdim.

– „Chiq, Simon, senga keldim“.

Bu Devining ovozi edi, nega kelganini yaxshi bilardim. Unga javob bermadim, sekin kiyina boshladim. Bir lahzada uning taqillatishi uyni larzaga solib yubordi. Kiyinayotganimda singlim xonaga sekin kirib keldi. Men unga pichirlab, nima qilish kerakligini aytdim. U eshikka tomon bordi, uni ochmasdan turib Devi bilan gaplashdi. Devi shubhalandi va oshxona eshigidan qarash uchun, uy atrofida o'ralashib yurgani eshilib turardi.

Sezganingizday, uning uyda ekanligimga ishonchi komil edi, eng yaxshisi, ketishim kerak, degan to'xtamga keldim. Otamni, onamni va singlimni o'pib, bolalarga xayr deb qo'yishini va oldingi eshikni ehtiyot bo'lib ochishini tayinladim. Oy yog'dusi tushib turar va shubha qilganimday, Devi uyimiz orqasida poylab turardi. Oyog'imni qo'lga olib, har bir ko'lanka imkoniyatidan foydalanib va nafas olish uchun o'zimda zo'rg'a kuch topib, emaklab omborxonaga bordim. Otamning katta qora ayg'irini egarlashga tushdim, hammasi tayyor bo'lgach, zambarakning o'qiday ombordan otilib chiqdim.

Devi yo'lga qarab yugurdi, qo'limda koltni ko'targancha katta-katta qadamlar bilan yaqinlashayotganimda, u to'pponchalarini silkitgancha to'xtashga buyruq berib, yo'limni to'sdi. To'g'ri uning ustiga haydaganimda, u o'zini chetga olmasdan ikki qo'lidan o'q uzardi. Uni bosib ketishim muqarrar edi, lekin o'zini chetga olishga ulgurdi.

U maqsadiga erishgandi, chunki birinchi o'qi boshimni tilib o'tgan joyidan kuchli og'riq sezildi.

To'xtovsiz, oldinda yigirma sakkiz mil bo'lgan Rok stansiyasi tomon yelday uchib borardim. Doim yaxshi otda yuradigan Devi, mendan ko'ra mohirroq edi. Lekin otlarimiz birday borardi. Muyulishdan aylanib o'tayotganimizda, dastlab u meni havodan o'qqa tutdi, lekin tezda to'xtatdi. Mil ketidan mil yurib, kutilmagan falokatga ro'baro' bo'lganimdagina qochib ketishga ishonch hosil qila boshladim. O'zimni qator cho'zilgan o'rmonlar ichiga urganimda, tong ortda qola boshladi. Chunki u yer hali tundagidek qorong'i edi. Yo'l esa mashaqqatli bo'lib, o'tning tuyoqlari tovush chiqarmasdi. Kutilmaganda zimistondan, ya'ni qarshi tarafdan o'tli chavandoz paydo bo'ldi. Qochishga juda kech edi. Otlarimiz ko'ksini urishtirdi. Notanish ot va chavandoz yerga irg'ib ketdi, lekin menga jiddiy ziyon yetmadi. Negaki otamning ayg'iri kuchli edi. U silkindi, ingrab yubordi va birdan sakrab turdi.

Biroq otim og'ir yaralangandi, shu sabab tezligini yo'qotayotgan edi. Devi meni sekin, diqqat bilan kuzata boshladi. Birozdan so'ng, u jilovimni ushlashga urinib yaqinlashdi. U to'pponchalarini bo'shatib bo'lgandi, shuning uchun ham ota olmasdi. Qayta-qayta uni o'qlangan koltim bilan nishonga oldim, lekin u jasur odam edi, sira qo'rqmasdi.

Aslida, uni otish niyatim yo'q edi, lekin uni o'ldirish, qochoq degan isnodni ko'tarib yurishdan yaxshiroq edi. Ko'rganingizday, qochish o'rniga, haqiqiy qochoqlarga kulgili bo'lgan holat – armiyaga qaytib borishga harakat qilayotgan edim. Lekin men otmadim, basharti otishim kerak bo'lsa-da, revolverimdan foydalanishni xohlamasdim.

Keyin biz yonma-yon o'n, o'n ikki milcha ot chopdik. Otim tobora holdan toya boshladi. Devi otini himoya qilish uchun mendan uzoqda chopishi kerak edi. Har gal u yu-

ganimdan tortishga uringanda, qo'liga og'ir revolverim bilan tushirardim, u esa darhol ortga tisarilardi. Bildimki, ayg'ir ortiq davom etolmasdi. Bo'ynimga qo'yilgan asossiz isnod-dan xalos bo'lish uchun nimadir qilishim kerak edi. Tabia-tan mehribon, yuvosh odamman, tilsiz hayvonlarga nisbatan juda beozorman, lekin nima qilgan bo'lsam, zarurat majbur qildi. Men G'arbda o'rgangan hiylani qo'lladim. U „gangi-tish“ deb ataladi va ko'pincha yovvoyi otlarda qo'llaniladi. Ularni shunday otishadiki, o'q bo'ynini tilib o'tadi, lekin bu otga jiddiy jarohat yetkazmaydi. Uni biroz gangitib qo'yadi, biroq besh daqiqadan so'ng avvalgi holiga qaytadi.

Yashin tezligida egardan engashib, revolverimning uchini Devi otining ensasiga qo'ydim va tepkini bosib yubordim. Devi darhol pastga tushib, yugurishda davom etdi. U meni piyoda quvlab o'tayotganida, bechora otim zo'rg'a o'zini chetga olishga ulgurdi.

Soatimga qaradim. Birinchi poyezdga ulgura olardim. Rok stansiyasiga bor-yo'g'i besh mil qolgandi. Otim bu masofani bosib o'tolmasdi va men nima qilishni bilmas-dim. Biroq Devi menga g'oya berdi. Yo'lning muyulishini aylanib o'tishda, shaharga borayotgan fermerning aravasi-ga yetib olishning uddasidan chiqolmadim. Yigirma qa-dam narida, bir xil yo'nalishdagi boshqa bir arava kelayot-gan edi. Devi birinchisini to'xtatdi va qamchi bosib, olg'a yurdi. Bu g'oya edi. Men bir ayol boshqarib kelayotgan ikkinchi aravani to'xtatdim va nima bo'lganini tushuntir-dim. U bosh zobit haqida hammasini bilgani uchun ham rozi bo'ldi. Biz bir paytda to'xtab, otga mingan edik, men yigirma qadamcha oldinda edim. Omad ko'proq u tomon-da edi. Sababi uning oti yaxshiroq edi, lekin u beparvolik bilan ularni olg'a yurishga undar, ot esa irg'ib ketardi.

Natijada, men bir necha yuz qadamlar ilgari lab ket-dim. Rok Aylendga yetib kelganimizda hamon bir qan-

cha masofa oldinda edim. Shaharni qanday hayratga solgan edig-a! Biz asosiy ko'chada ot choptirib borardik, bosh zobitdan nafratlanuvchi xalq meni olqishlardi. Biz ko'plab to'siqlardan zo'rg'a o'tib, poyezd jo'namoqchi bo'lib turgan temiryo'l stansiyasi tomon ot choptirib ketdik. Men olomon orasida ot chopishga botina olmadim, otdan tushib, shiddat bilan yugurib ketdim. Ulkan revolverini silkitganча, g'azabga mingan, qalpoqsiz askarga olomonning qanday joy bo'shatib berganini taxmin qilayotgan bo'lsangiz kerak.

Tirishib oldinga intilayotgan Devi shundoqqina orqamda edi. Unga yuzlanib, to'pchon bilan tahdid qilib to'xtatmoqchi bo'ldim. U o'qlanmagan edi, lekin u buni bilmasdi. Agar menga qo'l tekkizadigan bo'lsa, tepkini bosishim haqida qo'rqitib, orqaga chekindim. Olomon bosh zobitni tahqirlab, hushtak chalib, mening tarafimni ola ketdi. „Yashasin askar!“, deb baqirishdi. „Bosh zobitga la'nat!“ „Ot uni, askar, ot!“ „Bechora Tommi Jinglesni kim qamoqqa olgan edi?“ „Devi Mak Gregor, yaramas zobit“. „Ura, askarni olqishlang!“

Shu tarzda ular uni turtib, itarib orqasidan borishardi. Keyin ular qo'pollashdi, men perronga yetib olganimda, olomon uning oyoqlariga tepishar, kamzulidan tortishar va uni futbol to'piga o'xshatib bukib qo'yishgandi. Konduktor signal berdi, olomonning so'nggi olqishi bilan poyezd Quinsga yurib ketdi. O'sha kuni u yerda men o'zim yig'gan askarlarni uchratdim. Navqiron yigitlarni polkimga oborib, hammasini aytib berganimda, Polkovnigimiz shunday dedi: – „Barakalla, Simon, bu ketishda o'ylaymanki, tez orada ikkinchi ta'tilni qo'lga kiritasan.“

Ingliz tilidan

Shahlo OBLOQULOVA tarjimasi

Gratsia DELEDDA

(Italiya)

ONAIZOR RUHI

Tuz-u yod aralash quruq holatda burnaki isকাশning nafi shunchalar zo'rki, aynan shu hol tinmay gap soti-shing, hatto qo'lingdan kelgancha ashula aytishing, yana ham yaxshisi, yuz-xotirga bormay (bemor sherigingning ra'yi, to'la-to'kis ijozati bilan) homuza tortishing uchun durustgina imkon beradi. Chuqur andisha ichra yoshgina kelinchak Lula ham qo'lining tashqi tomonini labiga tek-kizgan ko'yi esnab o'tirar, lekin bunday g'ayriixtiyoriy, asabiy esnoqlar haligi yod hididan-da o'tkirroq allaqanday tuman bilan qalbining eng chuqur tubiga qadar chulg'ab olgan noayon ruhiy va jismoniy horg'inlik, bezovtalik bois qo'zg'algandi. Ayni shu chog' Lulani yo'tal tutdi-yu, uzundan uzoq yig'idan, aynan volidasining o'limi sabab sassizgina oqquvchi, yutilguvchi ko'zyoshlardan yo-rilayozgan bo'g'zi ham birmuncha bo'shshdi.

Uning onasi ko'p yil yurak xastaligidan azob che-kib, yaqindagina vafot etgandi. Ammo Lula xo'jayinning o'g'li bilan uydan qochib ketdim-u, aynan shu qilig'im onamning boshiga yetdi, degan xayolda edi. Qiz o'n besh-ga, anavi yigit esa o'n sakkizga kirgan bo'lib, ikkovi rosa sakkiz kun shunday bir yo'sinda bekinib yurdiki, hatto iziga tushib ham politsiya ularni topolmadi. Aynan o'sha sakkiz kun ichida Lulaning onasi qazo qildi-yu, xo'ja-yin modomiki ikki oshiq-ma'shuq turmush qurishmoqchi

ekan, unda uyga qaytishsin, degan mazmunda chor atrofga e'lonnamo bir narsa tarqatdi. Mana, sevishganlar qaytib ham kelishdi. Xo'jayin bo'lsa shu zahoti qizga ko'zyosh to'kishni qat'iyon taqiqlab qo'ydi. Chunki avvalambor, bu odamga dilgir, xafaqon kishilar yoqmasdi. Buning ustiga, tiriklar boshiga tushguvchi bu yanglig' g'am-u musibatdan mangulik orom chog'i bezovta bo'lmaslik uchun marhumlar ham ularning yig'i-sig'i qilishlarini sira xohlamaydi.

Atrof-javonibni qurshagan tutun, motorning bo'g'iq tovushi, terchilagan derazalar sirtida so'nib borayotgan g'ira-shira nur butun vujudiga muqarrar bir bo'ronning mudhish ko'lkasini tashlab turarkan, Lula jun ipdan tez-tez chog'roqqina bosh kiyim to'qiganicha ich-ichidan oh chekardi: „Ha, onajon, jon tanadan chiqqan hamono Yaratganning dargohiga qaytadi, shunday ekan, uvvos solmagan, dod-faryod ko'tarmagan ma'qul, yo'qsa tiriklarni qiyonovchi azob-u uqubat mas'ud ruhlarni-da iskanjaga olib, ularni foniy dunyo sari tortaveradi, va shu bois marhumlar xuddi farog'at damlarida ko'rilganidek o'z yaqinlariga madad berishga xuddi shu tobda ojizlik qiladi, deb o'zing ham aytarding-ku... Shundayku-ya, onajon, lekin baribir...

Lekin baribir, ayniqsa, hayhotdek eski uyidan uzoqda o'tkazgani o'sha kunlarda, garchi ko'rkam-u shukuhli esa-da, o'ziga harnechuk begona bo'lmish ayni shu joy, butunlay o'zga bir muhitda Lula uchun alam-u iztirobni yengib o'tishning iloji yo'q edi. Va buning ustiga, doimiy besaranjomlik tahluka-yu endigina tug'ilayotgan onalik sezgisiga xos anchayin qo'rquv, vahima hissi-la omixtalanib borardi.

Bu orada dahliz odamlarga to'lgandi. Xo'sh, kim edi o'zi ular? – Ro'yo-yu sharpalar, albatta. Kiraverishdagi eshik xayoliy bir g'ildirak misol ohista tebranar va shu sabab ora-sira burnakining harir tumani ichra yon-atrof-

ga ehtiyotkorona boqqancha o'tirishga joy izlayotgan biron bir qiyofa ko'rinardi. O'rtadagi stolni esa qo'ng'ir tus parsimon bir shakl-shamoyilda rang-ro'yi sekin-asta xiralashib, so'nib borayotgan kishilar o'zlarining das-ta-dasta qarta-yu zoldir qutilari bilan allaqachon band qil-gandi. Endi bo'lsa bu hol ortiq ko'zga tashlanmas, soqqa o'ynovchilarning gap-so'z, qiyqiriqlari o'rnini birmuncha asabiy bir jimlik egallagan. Tuyqus shu jimlikni buzgan-cha tenor ovozi bilinar-bilinmas kuchayaverdi. O'sha tenor deganimiz Rodolfo ismli kishi ediki, u olis shimolning qay bir burjidan, taftsiz, haroratsiz baland chordoqdan tu-rib shoirona jozib kuchining aks-u ko'zgusi-la Parijdagi bo'g'ot tomlar uzra tovlanmish dud va tutundan ko'z uz-masdi. Biroq qaysidir nuqtaga yetganda dimog'ini burna-ki hidi qitiqladi-yu, yarador oqchorloqning nola-yu fig'oni misol ovozi ham bo'g'ilib, so'nib qoldi. Shunda hamma chapak chalib, masxaraomuz kuldiki, urchuq bilan nari-dan beri to'qilgan jun qalpog'i-la ko'zini to'sishi uchun Lulaga shuning o'zi yetarli bo'ldi. Qizning ko'zyoshlari esa hali-hanuz bo'm-bo'sh yotgan uyaga kechki tuman chog'i to'kilgan tomchilar yanglig' yuragining tub-tubi qadar sizib kirdi. So'ng ayol kishining ana o'sha mub-ham, tushuniksiz muhitda, ochig'i, nojoiz ham tuyulmas qandaydir taklif-u undovi eshitildi:

– Dasturxon yozilsinmi-a?!

Bu taklif yakdil bir quvonch, zo'r mamnuniyat ila ma'qullangach, kursilar o'rnidan surilib, g'ichirladi-yu, yana boyagi ovoz keldi:

– Arvohlar bilan so'zlashuvchi biron kishi bormi orangizda?

– Men, xonim...

Bu esa Rodolfoning hayajondan hapriqqan haroratli ovozi ediki, unga qarata qanjiq itga xos bir irjayish bilan

javob qaytarildi. Qanday bo'lmasin, endilikda haligi taklif qabul qilingan, shu yo'sin oldinma-кетин cho'kkan jimlik ham o'sha zahoti ko'tarilgan yengil kulgi orqasida buzilgan edi. Ayni chog'da „Mimining o'zi qo'llasin“ degan boshqa bir ovoz eshitildi.

Shu tobda Lula darddan qutulib, oyoqqa turgan, nimanidir ilg'ab olish uchun bolalarcha qiziquvchanlik bilan yon-veriga sergak boqardi. Qiz „ruhlar“ o'yini bo'layotganini shu ondayoq tushungan va bunday yangilikdan mamnun edi. Yo'q, u albatta bekorchixo'jalarning shunchaki vaqtichog'ligi deb arvohtar bu dunyoga qaytishlari mumkinligiga ishonmasdi. Shunga qaramay, Rodolfo bosiq va qat'iy ohangda „Uning ismi Napoleon“, deya hammaga e'lon qilgan chog' Lulani yelkasi uchiga cha allaqanday titroq bosdi.

Hozir hazilning mavridi emasdi. Ammo, aftidan, jumlayi jahondagi jamiki shomon-u kohinlarning chorlovidan charchagan shekilli, Napoleon indamadi. Aksincha, San Leo qal'asidagi o'raga qamalib, tiriklayin ko'milgan-da tortgan shuncha azob-uqubatiga qaramasdan, Kalios-tro degani uning o'rniga javob berishga tutinib, aynan do'zaxga tushish to'g'risida so'yladi. Illo to'planganlarni junbishga keltirgan xabar bu emas, balki Lulagacha yetib kelib, ko'rgan jabr-u sitamiga qizni qayta yo'liqtirguchi nekbin bir ogohlantiruvdir.

Haligi do'zaxi esa „Bu yerdan jo'nashim bilanoq o'tish yo'lini bekitib tashlang, yo'qsa biron iblis kelib, sizga daxl qilishi mumkin“, dedi. Biroq o'sha iblis deganlari, balki, allaqachon dahlizga kirib olib, hali-hanuz quyuq tuman ichra izg'ib yurgandir. Aks holda go'yo o'zini oyoqqa turg'izgan bahaybat bir qo'l tepaga azot ko'targandek, tuyqus Lula vujudi toshday qotib qolgani-yu esi og'ayozganini his etarmidi. U shunday bir g'alati ohang-

da „Onamni chaqiringlar..“ deya iltijo qildiki, bu holatda o‘z ovozinini hatto taniyolmasdiyam. So‘ngra o‘tirishga chog‘lanib, ko‘zlarini yumdi-da, uyqu oldi qushlar yuzini qanotlari-la to‘sgandek, u ham qo‘li bilan yashirgan ko‘yi boshini quyi soldi.

Shu payt bir rahmdil ayol „Onangizning ismi nima edi?“ deb so‘radi-yu, ammo afsus-nadomat-u chuqur andisha ichra qaytib og‘iz ochgani botinmadi. Boyagi o‘yin bo‘lsa sekin-asta tinayotgan motor shovqinidan qizigancha shu taxlit davom etaverdi.

Lula yakkash ko‘ksiga egilgan boshini ushlar, yuragi mashinanikidan-da tez urayotganini sezib turar, shunda qonini oqizgancha bir bosh qora uzum misol shu yurakni qandaydir bir qo‘l mahkam siqib, ezg‘ilayotganday tuyulardi unga. Lekin bunday tasavvur vujudida sof havoga to‘yingan allaqanday hissiyotni uyg‘otardiki, o‘sha narsa og‘rig‘-u qiynoqdan otilib chiqqan bulg‘anch qon edi-yu, shu qon qizni nihoyat darddan forig‘ qilgandi go‘yo. So‘ng Lulaga o‘z qo‘rg‘onidagi uzumzor – allaqachon pishib yetilgan mevasi-la butkul vazminlashgan tokzor ko‘ringanday, qay bir ovoz shu uzumni yig‘ib olishga undayotganday bo‘lib tuyuldi.

– Ona, onajon!

Lulani chulg‘agan bu galgi titroq chunonam kuchli ediki, qizning ko‘ksidan o‘rlagancha har bitta qon tomirini bosib o‘tarak uni cho‘g‘day qizigan to‘r bilan chirmab tashlagandi. Shunda qiz nogahon yana onasining ovozinini, ammo bu safar qalbining eng teran yeridan kelayotgan ana o‘sha sadoni eshitdi. Nazarida, volidaning madadkor ruhi endi uni sira tashlab ketmaslik uchun shu yoqqa kelgan edi.

Bu orada Lula ko‘zlarini qaytib ochdi. Motor tovushi endilikda o‘chgan, tuman ham tarqagandi. Stol atrofi-

da bo'lsa yana qizil, yashil, nafarmon kabi turfa ranglar ko'zga tashlanar, allaqaysi boldoqning marvarid ko'zi bulutlar qo'ynidagi yulduz yanglig' tovlanardi.

Hatto, ehtimol, chindan-da o'z jigarporasiga jon baxsh etish uchun onaizor ruhi shu tobda uning vujudiga ingandi deya aytishgan chog'da ham qiz bu holning sababini aslo tushuntira olmasdi-yu, ammo u hozir ta'rifga sig'mas shodlig-u sururdan boshi tamoman ko'kka yetganini sezdi. Sanoqli kunlardan keyin batamom sog'ayib, uyga qaytishini o'yladi-yu, ko'ziga hamma narsa nurli va jozib ko'rinib ketdi – oydek charog'on xo'jalikni po'lat sovut kiygan soqchi singari tun-u kun qo'riqlab turgan baland terak, butun kechani o'tkazish ilinjida tut daraxti ustiga maymundan ham ildamroq sakrayotgan tovuqlar, tuyog'i ustida silkinmish toshday qattiq dumiga kunchi it tegishgan zahoti suykali-erkalanish uchun boshini egasining quchog'iga kirgizib olgan to'riq toy, turmush o'rtog'ining bo'ynida hilpirayotgan pushtirang bo'yinbog', cherkov qubباسi monand pichanxona ortiga botayotgan quyosh – barcha-barchasi...

Italyan tilidan

Rustam IBRAGIMOV tarjimasi

Alvaro YUNKE

(Argentina)

ATIRGUL O'G'RISI

*Bolalik – umrning eng baxtiyor kezlaridir,
deganlari hali-hanuz yodimda...*

„O'tmish gumrohligining zilol suvlari“

Bertran RASSEL

Gyugo Gomerning otasi – shoir. Yaqinda Gyugo Gomer to'qqizga to'ladi. Katta bo'lsa u ham, albatta, shoir bo'ladi. Har tugul, o'g'liga qarab o'z bolaligini, to'g'rirog'i, uning mislsiz sururini ko'rgan ota shunday deydi. Gyugo Gomer – g'alati bola, o'qituvchilari, do'stlari, qarindoshlari – hamma shuni ta'kidlaydi. Otasi esa aksincha, uni sog'lom, mutlaqo sog'lom hisoblaydi. „Janob Alvares Xunko“, – dedi bir kuni ma'yus tantanavorlik bilan Bruno Andon – bo'ychan, qoqsuyak, yuzi nafarmon, ko'zlari kirtaygan, qoshi qalin badqovoq kishi. U Alvares Xunkoning qo'shnisi, ilgari moliya vazirligida xizmat qilgan nafaqaxo'r, boy atirgul kolleksiyasi ko'rki bo'lgan xushmanzara hovli egasi.

– Janob Alvares Xunko, – dedi bir kuni Bruno Andon va yo'talib oldi. – Qanchalar og'ir bo'lmasin, sizni ogohlantirib qo'yish burchim: o'g'lingiz – o'g'ri...

Ayblanuvchining otasi o'zini xotirjam tutarkan:

– Muhtaram qo'shnijon, – dedi, – marhamat qilib da'voyingiz sababini aytib bersangiz.

– Ha, albatta, bor gapni aytib beraman, janob Alvares Xunko! Gapning indallosi, anchadan buyon bog'imdagi

atirgullarni uzib ketishayotganini sezib qoldim. Kuzata boshladim. Nafaqadaligimni hisobga olsak, buning tagiga yetish uchun yetarlicha vaqtim bor. Avvaliga o'g'ri o'z ishini – agar birovning mulkiga ko'z olaytirishni „ish“ deydigan bo'lsak, xullas, avvalboshda men o'g'ri tunda keladi, deb o'ylovdim. Biroq necha tunni mijja qoqmay o'tkazib angladimki, yanglishibman. Hatto vaqtiniyam aniqladim: ertalabki sakkizlar atrofi. „Sabr tagi – sariq oltin“, deganlaridek, toqat bilan kutganim natija berdi, al-qissa, yettidan qirq yetti daqiqa o'tganida Gyugo Gomerni, erkatoy o'g'ilchangizni bog'imdan oq atirgul uzayotgani ustida ko'rib qoldim. Unga „Nega atirgul uzyapsan?“ deb baqirdim ham. O'g'lingiz esa, ma'zur tutgaysiz, Alvares Xunko, dilingizni siyoh qilish niyatim yo'q edi, ammo o'g'ilchangizning bir tuki qilt etmadi, xijolat bo'lmadiyam. Bundan tashqari, menga iljayib bir nima dedi, nima deganini eshitmay qoldim – qulog'im og'irroq va boadabona qalpog'ini ko'tarib qo'yib, yo'liga ketdi. Gulniyam olib ketdi!

– Gyugo Gomer ekanini aniq ko'rdingizmi?

– O'z ko'zlarim bilan, janob, o'z ko'zlarim bilan ko'rdim! Tangriga ming qatla shukrlar bo'lsinki, yetmishni qarshilagan bo'lsam-da, haliyam ravshan ko'raman, – dedi Bruno Andon g'azabdan hayqirib. – Siz gapimga ishonmaysiz chog'i?

– Qo'ysangiz-chi, qo'shnijon, bu nima deganingiz! Nima bo'lgandayam, o'g'limni chaqirib, oldingizda so'roq qilaman. Rosti, bu voqea meni xavotirga solib qo'ydi...

– Bo'lmasam-chi, janob! Hali go'dakkina-ku, halitdan...

– O'sha so'zni tilingizga olmang! – deya uning gapini shart kesdi Alvares Xunko. – Bolani ayblashdan avval uni eshitishimga qo'yib bersangiz. Bu mojaro meni birmuncha xavotirga qo'ydi.

– O'ringizda bo'lsaydim, juda achchig'im chiqqan bo'lardi!

– Bundan xavotirdaman, – Gyugo Gomerning otasi boyagi vazminligini yo'qotmay so'zlardi, – negaki mening o'g'lim odobli, tarbiyasi, farosatli va nozikta'b bola...

– O'zidan so'rang, janob Alvares Xunko! – dedi darg'azab Bruno Andon deyarli buyruq ohangida.

– Shunday qilaman ham, qo'shni.

Janob Alvares qo'shni xonaga qarab o'g'lini chaqirdi:

– Gyugo Gomer!

Gyugo Gomer kirib keldi, tabassumdan ko'zlari porlardi.

– Labbay, otajon? Xayrli kech, taqsir, – deya Bruno Andon bilan so'rashdi. Janob Andon miq etmadi. Otasi qo'shning ayblovini birma-bir so'zlab bergach, gapining so'ngida so'radi:

– Bunga nima deysan?

– Chindan shunday bo'ldi, ota.

– Demak, qo'shnimizning bog'idan atirgul o'g'irlab-san-da?

– O'g'irlamadim, ota, janob Andonning bog'idan atirgul uzib oldim.

– Ikkisiyam bir qilmish emasmi? – g'azabdan qizarib ketgan Bruno Andon gapga aralashdi.

– Yo'q, janob. Atirgul bog'dan ko'chaga chiqib turgandi, demak, u sizga tegishli emas. Ko'chaga o'tganmi, demak, u ko'chadan o'tgan yo'lovchilarga qarashli. Men biron marta atirgul olaman deb panjaradan oshib o'tmadim. Uzgan atirgullarimning bari to'siqdan ko'chaga o'tib turgandi.

– Bahonasini qarang! – hayqirdi atirgullar egasi qahrdan bo'g'ilib.

– O'g'lim o'zini oqlash uchun bunday gap chiqarganiga ishonmayman, qo'shni, – dedi Gyugo Gomerning otasi.

– Nim-ma?! – o‘zidan ketib qichqirdi Bruno Andon va ortiq so‘z topolmay o‘sha zahotiy oq jimib qoldi; uning yuziga qon tepdi, peshanasidagi tomirlari aniq-tiniq bo‘rtib chiqdi.

– Atirgulni nima uchun uzding? – so‘radi ota boladan.

– Ilgarigi tarbiyachimga, ikkinchi sinf muallimasi Mora xonimga bergani. U judayam chiroyli! Ovozi shunaqangi yoqimlik, og‘zida obaki bormikin deysiz, ko‘zlari esa yulduzdek porlaydi. Yana xira yulduz deb o‘ylamang, xuddi tonggi cho‘lponning o‘zginasi. Buning ustiga, u menga judayam mehribon edi! Uning qo‘lida o‘qiyotganimda, menga qanchadan qancha ajoyib kitoblar sovg‘a qilgan! Nahotki, to‘rtinchi sinfda o‘qiyotganim uchungina uni esimdand chiqarishim kerak bo‘lsa?

– Azizim! – qichqira ketdi Bruno Andon, u bolaga „siz“lab murojaat qilardi. – Sobiq muallimangizni, go‘zal va mehribon qizni unutib yubormaganingiz tahsinga loyiq, albatta. Ammo nega mehringizni mening hisobimdan ko‘rsatishingiz kerak? Nima uchun qizga atirgullarimni uzib berasiz?

– Sizga boya aytdim, janob, atirgullar to‘siqdan oshib o‘tgandi.

– Shuning uchun sen, – darg‘azabligidan yana „sen“lab ketdi u, – gullarni meniki hisoblamaysan, shundaymi?

– Ha, janob.

– Hakamlar boshqa fikr bildirishgan bo‘lardi, o‘g‘rivachcha!

– Janob Bruno Andon, – gapga aralashdi ota, – aziz avliyolar haqqi, bolani qiynamang. O‘zingiz ko‘rib turib-siz, bo‘zdek oqarib ketdi, lablari titrab, ko‘zlariga yosh to‘ldi, hozir yig‘lab ham yuboradi.

– Axir, siz, janob Alvares Xunko, menga ma‘lumki, yozuvchisiz, bo‘lmag‘ur mulohazalar o‘ylab topib o‘zini

oqlashga urinayotgan manavi to'qqiz yashar mishiqlining axloqsizligi sizni g'azablantirmaydimi?

– Yo'q, qo'shnijon, adashasiz: o'g'lim o'zini oqlash uchun hech qanday mulohaza o'ylab chiqarmayapti. U o'zini oqlashga harakat ham qilmayapti. Bola atirgullaringiz to'siqdan tashqarida o'sarkan, sizniki bo'lmay qolishiga chin yurakdan ishonyapti. Qolaversa, sotish uchun uzib olmagan. Agar gullaringizni sotganida edi – chindanam o'g'ri bo'lardi. Ularni sovg'a qilgan-ku. Yana bir narsa, agar atirgullarni hozirgi o'qituvchisiga berganida va shu orqali uning e'tiborini qozonganida edi, men xuddi siz kabi o'g'lim o'g'irlik qilgan, derdim. Ammo u endi o'ziga hech qanday aloqasi bo'lmagan ikkinchi sinf muallimasiga, go'zal, dilbar, zebo hamda mehribon ayolga bergan. Atirgullaringiz, qo'shnijon, eng yaxshi taqdirga munosib bo'libdi. Ular nafosatga va ehtimolki, muhabbatga to'liq ajib xotiralarni uyg'otishga xizmat qilibdi...

– Aytmoqchisizki, – xitob qildi Bruno Andon ach-chiqlanib, – men axir, gapingizdan shunaqa fikr kelib chiqyapti-da – atirgullarimni uzgani va go'zal, ko'rkam allaqaysi Xudo urgur muallimaga eltib bergani uchun bo'langizdan minnatdor bo'lishim kerak, shundaymi? Bilib qo'ying, janob Alvares Xunko, agar o'g'lingiz gullarimni uzib, karteziyanlar ordeni asoschisi, men nomini ko'tarib yurgan va chin dildan hurmatlagan yagona inson – Avliyo Brunoning mehrobiga eltib qo'ysayam, baribir u atirgullarimni o'g'irlagan, deb hisoblardim. Nahotki, fikrimga qo'shilmasangiz, janob?

– Yo'q, qo'shni.

– Demak, to'qqiz yashar o'g'lingizning kurakda turmaydigan, bo'lmag'ur, noqonuniy qarashlariga sheriksiz, shundaymi? Shundoq bo'lsayam uning xulqini... Hatto nima deb atashni ham bilmay qoldim. Uning yonini ol-

ganingizni esa, janob Alvares Xunko, hech ikkilanmay jinoyat deyman. Bolangiz, bechora o'g'lingiz ajoyib tarbiya olyapti! Omon bo'ling, janob!

Bruno Andon pishillagancha shlapasini bostirib chiqib ketdi, ammo zum o'tmay uning qizarib ketgan basharasi eshik oldida paydo bo'ldi:

– Bir narsani aytib qo'ymoqchiman, janob, bundan buyon men bilan so'rashaman deb o'zingizni qiynab o'tirmang. Sizga javob qaytarmayman.

– Bo'пти, qo'shni.

– Ogohlantiraman: agar o'g'lingiz yana bir marta bog'imdan atirgul uzib ketgudek bo'lsa, o'z qo'llarim bilan sizdek tuturiqsiz ota qilishi lozim bo'lgan ishni qilaman, jazolayman!

– Tahdid qilyapsizmi?

– Ha, ammo, yaxshisi, men undan ham ma'qulroq ishni qilaman: bundan buyon ko'cha o'g'rilarini qiziqtirmasligi uchun to'siq yonida o'sgan o'sha butani bugunoq ildiz-pildizi bilan sug'urib tashlayman!

– Yo'q, unday qilmang! – qichqirdi bola. – Bu buta judayam chiroyli. Yulib tashlamang uni! So'z beraman, sira atirgullaringizga tegmayman...

– Men esa sug'urib tashlayman, tamom-vassalom! – bo'kirdi Bruno Andon va eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.

– U aqldan ozgan! – dedi Gyugo Gomer.

– U, albatta, o'zini aqliraso sanaydi, – so'z qotdi otasi. – U va boshqalar – shaxsiy mulkning mohiyatini bo'rttiradigan kimsalar – bizni telbanamo hisoblaydilar. Nima bo'lgandayam, kelgusida bunaqangi mojarolardan qochish uchun birovlarning bog'idan atirgul uzmasliging kerakligini tushunyapsanmi, o'g'lim?

– Ular hatto to'siqdan tashqariga oshib o'tgan bo'lsayammi?

– Ha, bo'talog'im, hatto to'siqdan oshib o'tgan bo'lsayam. Men esa har hafta sevikli muallimang uchun atirgul sotib olishingga yetarlicha pul berib turaman.

Bola quvonganidan chapak chalib yubordi:

– Bo'пти, otajon. Bilasizmi... – u jimib qoldi.

– Nima demoqchiyding? – so'radi otasi.

– Bilasizmi, unga atirgul berganimda, u egilib, muchchi olishim uchun yuzini tutadi. Uning yuzi xuddi barxitdek, haqiqiy barxit: yoqimli va xushbo'y. Otajon... – u yana to'xtadi.

– Gapir, gapiraver, o'g'lim. Nima demoqchisan?

– Dada, yigirmaga kirganimda muallimamga uylansam bo'ladimi?

– Yana o'n bir yil kutishingga to'g'ri keladi. Uning yoshi nechchida?

– Yigirmada. O'zim so'rab oldim.

– Demak, yigirmaga kirganningda u o'ttiz birda bo'ladi. Aftidan, sen uning qiziga uylanganing ma'qulroq chog'i. Nima deysan?

– Qiziyam shunday chiroyli bo'ladimi?

– Albatta-da.

– Bo'пти, ota, unday bo'lsa qiziga uylanib qo'ya qolaman.

Rus tilidan

Alisher FAYZULLAYEV tarjimasida

Mixail LAKERBAY

(Abxaziya)

DONISHMAND JASIB

Keksa Jasib nabirasi Chigitsni o'g'irlik va qimor yo'lidan qaytarishga ko'p harakat qilibdi. Ammo, hamma harakatlari zoye ketibdi. Qarichilik emasmi, kuni bitganiga aqli yetgan Jasib oxirgi marta nabirasini oldiga chaqirib:

– Umrin oxirlab qolganga o'xshaydi, – debdi. – Yaqinda omonatimni topshirsam kerak. Ammo, seni o'ylab ko'nglim notinch. Umr bo'yi o'z bilganingdan qolmading. So'zlarimga quloq tutmading. Xulosa qilmading. Ixtiyor o'zingda, umringni shu tariqa davom ettirishing mumkin. Ammo, u dunyoda tinch yotishimni istasang, so'nggi iltimosimni bajarishga so'z ber. Yoshi ulug' bo'lgan va eng tajribali o'g'ri bilan qimorbozni qidirib topgin-da, kasblarining butun sir-asrorlarini senga o'rgatishlarini mening nomimdan iltimos qilgin. Aqlli odamlarning ta'biri bilan aytgandek: „O'z kasbining ustasi bo'lgan odamning nasibasi ham butun bo'ladi“. Sening ham nasibang butun bo'lishi uchun tanlagan kasbingning hamma iker-chikirlaridan xabardor bo'lishing kerak.

Nabira bu so'zlarni hayrat bilan tinglabdi. Ammo, ajali yaqinlashib qolgan buvasining gapini ikki qilishga jur'at qilmay, so'nggi istakni bajarishga so'z beribdi.

Tez kunlarda kekxa Jasib hayotdan ko'z yumibdi. Nabirasi esa bergan va'dasiga binoan dastlab eng katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan o'g'rilar „qirolini“ qidirib topibdi.

Ko'z oldida namoyon bo'lgan achinarli manzara uni hayratga solibdi: „qirol“ pastqam, nuray boshlagan va deyarli jihazlanmagan uyda yashar, uying to'rida singan eski yotoq turar, uying har burchagida esa yuvuqsiz idish-tovoqlarning singan parchalari yoyilib yotardi.

Mudhish manzaradan xafsalasi pir bo'lgan yigit ichkariga kirishini ham, qaytib ketishini ham bilmay turganida ichkaridan: „Kiraver“, – degan ovoz kelibdi. Yigit asta yurib kelib, xonada o'tirishga boshqa narsa bo'lmagani sababli o'g'ri yotgan omonat yotoqning bir chetiga ohista cho'kibdi.

– Qo'rqma, – debdi „qirol“, – sinib ketmaydi. Sendan ham og'irlarni ko'targan. Xo'sh, xizmat?

– Bobom o'limi oldidan meni yoniga chaqirib, eng usta o'g'rini topishimni va undan bu kasbning barcha sir-asrorlarini o'rganishimni vasiyat qilgan edi, – debdi Chigits.

O'g'rilar „qirol“ning yuragi bu so'zlardan iftixorga to'lib, bir to'lg'anib qo'yibdi.

– Bobong aqlli odam ekan. U senga juda yaxshi maslahat beribdi. Sen ham turmadan boshi chiqmaydigan chuldurvaqalarning yoniga emas, aynan mening oldimga kelib to'g'ri qilibsan. Bizning ishimizda asosiysi iste'dod. O'g'rilikni orzu qilgan odam mahorat va epchillik darslarini olmagan bo'lsa, boshi turmadan chiqmasligi aniq. Nimasini aytasan! Bugun oqshom tushishi bilan uyimga kelsang, bunga o'zing amin bo'lasan.

– Rahmat, – debdi Chigits va bu uyga ikkinchi marta kelmaslikni ko'ngliga tugib, chiqib ketibdi.

O'g'rining uyida ko'rganlari: og'ildan farq qilmaydigan xona va yo'qchilik unga rahmatli bobosining hamma o'gitlaridan ko'ra ko'proq ta'sir qilgan edi. „O'g'rining

baxti“ shu bo‘lsa, bu baxtdan benasib o‘ta qolay“, – deb ko‘nglidan o‘tkazibdi Chigits.

O‘g‘rining uyidan chiqib, va‘daga binoan qimorbozlar „qirolini“ qidirib ketibdi. Topibdi ham. Ammo, u yerda ko‘rganlari unda yana ham og‘ir taassurot qoldiribdi: sochlari hurpayib ketgan qimorboz cho‘kkalab tushib olib, shosha-pisha yerda qarta suzar, ko‘zlari ola-kula bo‘lib, o‘zicha nimalarnidir g‘o‘ldirar edi.

Qulay fursatdan foydalanib, yigit muddaosini aytgan ekan:

– Yigitcha! Mening oldimga kelib to‘g‘ri qilibsana, – debdi qimorboz faxr bilan. – Men o‘ttiz yildan beri qimor o‘ynayman va bu hunarning hamma sir-asroridan xabardorman. Istasang, senga ham o‘rgataman.

U boshini qartadan ko‘tarib, qizarib ketgan ma‘nosiz ko‘zlarini yigitga tikibdi va... yana boshini quyi solib, shahd bilan qaytadan qarta suza boshlabdi. Shu alfozda Chigitsni ham o‘yinga da‘vat etgan ekan, yigit kekxa qimorbozga minnatdorchilik bildirib, uydan tezroq chiqib ketishga shoshilibdi. Qari qimorboz ham umrini behuda o‘tkazgan ekan-da...

Shunday qilib, kekxa Jasib nabirasini asrab qolgan ekan.

Rus tilidan

Rustam SHARIPOV tarjimasida

Andrey **PLATONOV**
(*Rossiya*)

YUSHKA

Bundan ancha ilgari, otamzamonda ko'chamizda ko'rinishidan keksa bir odam yashardi. U katta Moskva yo'li chetidagi temirchilik ustaxonasida bosh taqachining yugurdagi bo'lib ishlardi, nega desangiz, boyaqishning ko'zlari xira ko'rar, o'zi ham kuchdan qolgandi. U ustaxonaga suv, qum va ko'mir tashir, bosqon bilan o'choqqa dam berar, bosh taqachi bolg'alayotganda qizib turgan temirni sandonga qo'yib kaj ombur bilan ushlab turardi, otlarni dastgohga qo'shar va boshqa mayda-chuyda yumushlarni bajarardi. Uning ismi Yefim edi, lekin odamlar uni Yushka deb chaqirishardi. Past bo'yli, ramaqijon edi; ajindor yuzida soqol-mo'ylov o'rniga yakkam-duk-kam oq tuklar o'sib chiqqandi; ko'zlari so'qirnikiday oqish, qachon qarama bu ko'zlar namiqqan edi.

Yushka ustaxona egasining uyida, oshxonada yashardi. Tong sahar ketib, kechasi tunaganigina kelardi. Xo'jayin uni non, shovul sho'rva va bo'tqa bilan siylar, choy, shakar va kiyim-boshni Yushka o'zining maoshiga sotib olishi lozim edi. Oyiga yetti so'm-u oltmish tiyin. Ammo Yushka na choy ichar, na shakar sotib olardi, quruq suvning o'ziga qanoat qilardi, kiyim deganlari esa uzoq yillar egnidan tushmasdi: yozda qora mehnatdan kir-chir uvaldaga aylangan, charxtoshdan sochilgan uchqunlardan ilma-teshik bo'lib ketgan cholvor-u yaktakda yalangoyoq yurar, qishda esa yaktagi ustidan otasidan qolgan poch-

po'stin kiyar, oyog'ida kuzda qo'lbola qilib tikib olgan piyma etik bo'lardi.

Yushka saharardonlab ustaxonaga yo'l olganda chol-kampirlar, ana, Yushka ishga ketyapti, turish kerak, degan cha yosh-yalangni uyg'otar; oqshom mahali Yushka qo'nalg'asiga qaytayotganda esa Yushka ham qaytyapti, uxlash kerak, deyishardi.

Bola-baqra, hatto bo'yi yetib qolgan o'smirlar ham bita-bitta qadam sanab kelayotgan qari Yushkani ko'rishlari bilanoq o'yin-po'yinlarni ham tashlab, unga ergashgan cha:

– Ana, Yushka kelyapti! – deb qichqirishardi.

Bolalar, kaltak bormi, tosh bormi, qo'lga ilinganini olib Yushkaga otishardi.

– Yushka! Sen rostdan ham Yushkamsan?

Chol miq etmas, hatto xafa ham bo'lmasdi; asta yo'lida davom etar, yuziga kelib urilayotgan shag'al-u xas-cho'plarga parvo ham qilmasdi.

Bolalar Yushkaning sog'-omonligini, achchig'i kelmayotganini ko'rib hayron bo'lishardi. Keyin esa tag'in cholga qichqirishardi:

– Yushkamsan o'zi yo yo'qmi?

Keyin bolalar yerdan tosh-posh olib otishar, yugurib kelib, boyaqishni turtib-urib ko'rishar, choli tushmagur nega xivchin ko'tarib quvlayotganiga sira tushunishmasdi. Bolalar bunaqangi tebsa-tebranmas odamni ko'rishmagandi, ular Yushka tirikmi o'zi-yo'qmi, deb o'ylashardi. Yushkani ushlab yoki urib ko'rib, uning tirik va bardam ekaniga ishonch hosil qilardilar.

Shundan so'ng bolalar Yushkaga kesak otishga tushishardi, ha-da, tirikmi, g'azabini ko'rsatsin. Lekin Yushka og'ziga tolqon solgan cha yo'lida davom etaverardi. Shunda bolalar yana qiliq ko'rsata boshlashardi. Yushkaning miq etmagani, ularni quvlab-qo'rqitmagani bolalar

zerikib qolishar, o'yinning ham qizig'i qolmasdi. Ammo qo'y og'zidan cho'p olmagan Yushka ularga sira tegmasdi.

Bolalar Yushkani to'xtatvolib, joniga qattiq ozor berishaverishgach, nihoyat, tilga kirardi:

– Qo'ysanglar-chi, azizlarim, mittivoylarim! Nima, meni yaxshi ko'rasizlarmi? Hammangizga kerakman-a?.. Voy, shoshmanglar, ko'zimga qum kirib ketdi, hech narsani ko'rmay qoldim.

Qani endi bolalar uni eshitishsa. Ular beshbattardan Yushkani turtib, ustidan kulishaverardi. Ular Yushkani istagan ko'yga solish mumkinligidan qiqirlashardi.

Yushka ham shodlanardi. Bolalar uni nega qiynashayotganini bilardi. Ishonardiki, bolalar uni yaxshi ko'rishadi, faqat qanday yaxshi ko'rishni bilishmaydi-da, shu bois dilozorlik qilishadi.

Ota-onalar bolalari yaxshi o'qishmasa yoki quloqsizlik qilishsa: „Yushkaning o'zi bo'lasan-qolasan – yozda yalangoyoq, qishda teshik etik kiyib shildirab yuraverasan, seni o'lguday qiynashadi, shakarchoy icholmaysan, kunning quruq non-suvga qoladi“, deb urishib berishardi.

Kattalar ham ko'chada Yushkani uchratib qolishsa, ba'zan xafa qilishardi. Kattalar ko'pincha darg'azab, ichlari zardobga to'la yoki shirakayf yurishadi. Ana shunday paytlarda jahl otiga minishadi. Ustaxonaga yoki qo'nalg'asiga yo'l olgan Yushkani ko'rishlari bilanoq:

– Ha, nimaga talmovsirab yuribsan? Turqingga bir qarasang-chi. Nimalarni ko'zlayapsan? – deb o'shqirishardi.

Yushka esa joyida jim turgancha quloq solib, g'ing demasdi.

– Tilingni yutganmisan nima balo, mol! Sen xuddi menday odmi va halol yasha, bir nimalarni zimdan ko'zlama! Ayt, shunaqa yashaysanmi? Yashamaysanmi? Shoshmay tur, kuningni ko'rsataman hozir!

Boyagi odam Yushkaning og'ziga tolqon solib olganidan barchasiga u aybdor ekaniga ishonch hosil qilib, mushtumzo'rlikka o'tardi. Yushkaning mo'min-qobiligidan zardasi qaynab, mushtiga erk berar va shu bilan vaqtinchalik o'z hasratidan forig' bo'lardi.

Yushka yo'l o'rtasida changga qorilib uzoq yotardi. Ko'zini ochib, o'zi turar, goho taqachining qizi uni olib ketgani kelardi.

– Bu kuningdan o'lganing yaxshi edi, Yushka, – derdi bekacha. – Nega nafas olyapsan-a?

Yushka unga angrayib boqardi. U yashash uchun tug'ilganida, nega o'lishi kerakligini tushunmasdi.

– Meni ota-onam dunyoga keltirgan, bu ularning ixtiyori, – javob qiladi Yushka, – o'lmasligim kerak, ustaxonada otangga ko'maklashaman.

– O'rningga bitta-yarimta topilib qolar.

– Meni, Dasha, odamlar yaxshi ko'radi!

Dasha kuladi.

– Yuzing qonga bo'yalgan, o'tgan haftada qulog'ingni uzib olay deyishgandi, gapingni qara-yu, „Odamlar yaxshi ko'radi“mish!

– Ular meni fahmiga yetmay yaxshi ko'radi. Odamlarning yuragi ko'r bo'ladi.

– Yuraklari so'qir bo'lsa, ko'zlari ochiq-ku! – e'tiroz bildiradi Dasha. – Qani, tura qol! Yurakdan hushlashadi-yu, alamdanda kaltaklashadi.

– Ha, to'g'ri, alamlarini menga sochishadi, – tan oldi Yushka. – Ko'chada yurishga qo'yishmaydi, mayib qilishadi.

– Eh, seni qara-yu, Yushka, Yushka! – xo'rsinadi Dasha. – Axir, sen, otamning aytshishicha, hali munkillamagan bo'lsang!

– Qanaqasiga munkillay! Bolaligimdan ko'kragim og'riydi, shu kasallikni deb yoshim katta ko'rinadi...

Xastaligi tufayli Yushka har yozda bir oyga xo'jayinidan ruxsat so'rardi. Olis qishloqqa piyoda yo'l oladi. Aftidan, u yerda xeshlari bor. Qanaqa qarindosh, birov bilmaydi.

Buni hatto Yushkaning o'zi ham esdan chiqarib qo'yardi, bir yozda qishloqda tul qolgan singlim bor, desa, boshqa safar jiyanim o'zi qolgan, deydi. Bir gal qishloqqa, yana bir gal Moskvaning o'ziga ketyapman, deydi. Odamlar olis qishloqda Yushkaning suyuqli qizi yashaydi, deb taxminlashdi. Otasi singari yuvosh, nomatlub.

Iyun yoki avgustda Yushka non to'la yo'lxaltasini yelkasiga ilib shahardan chiqib ketadi. Yo'lda o't-o'lanlar va o'rmonning xushbo'yidan bahra olar, musaffolikda yuzib-tarqab ketayotgan oqpar bulutlarni kuzatar, toshdan toshga urilib shovullayotgan daryolarga quloq tutardi. Shunda Yushkaning ko'kragi tin olardi. Betobligi sal bosilganday bo'lardi. Yiroqlarda, xilvatnishin yerlarda tirik jonzotlarga bo'lgan mehr-muhabbatini yashirib o'tirmasdi. Engashib, dam urmay gullarni o'pib qo'yar, daraxtlar po'stini silab, so'qmoqda yer tishlab yotgan kapalak va qo'ng'izchalarini qo'lga olar, ularsiz endi o'zini yanada g'arib sezib, mo'ltillagani mo'ltillagan edi. Ammo ko'kda qushlar sayraydi, maysalar orasida so'zanaklar, chigirtkalar shodon chirillaydi. Shu bois Yushkaning kayfi chog' bo'lar, o'ftob nuriga cho'mgan gullar isidan ko'ksini to'ldirib nafas oladi.

Yo'l-yo'lakay Yushka dam olardi. Yo'l yoqasidagi daraxt soyasiga o'tirib, tinch va osuda mizg'iydi. Tin olgach, xastaligini unutilib ham yuborar, to'rt muchasi sog' odamday shahdam-shahdam qadam otardi. Aslida, u qirqni qoralagan, lekin kasallik uni anchadan buyon ichdan yemirardi, shu sabab u qartayib qolganday tuyulardi.

Shu tariqa Yushka har yili dalalar, o'rmonlar va daryolar osha uni kimdir kutayotgan yoki kutmayotgan olis qishloqqa yoki Moskvaga yo'l olardi.

Bir oydan so'ng Yushka shaharga qaytib, yana-tag'in ustaxonada erta-yu kech qora mehnatga sho'ng'irdi. Yana o'sha eski hammom, eski tos – ko'chada uchragan odam Yushkani yozg'irib, kalaka qilishga tushadi.

Yushka kelasi yilning yozigacha g'ing demasdan tishini tishiga qo'yib chidardi, yoz o'rtasida esa oziqxaltasini yelkasiga tashlab, boshqa xaltaga esa yil davomida topgan-tutgani – bor-yo'g'i yuz so'mni joylab, noma'lum taraflarga qarab yo'lga chiqardi.

Lekin yildan yilga Yushkaning darmoni qurib bora-verdi, ko'krak xastaligi uni ramaqiga aylantirdi-qo'ydi. Shundan so'ng bir safar jo'nash fursati yetganda, Yushka hech qayoqqa ketmadi. Odatdagiday ustaxonadan xo'jayinning uyiga bir-bir odimlab ketaverdi. Yushkani tanib qolgan bir o'tkinchi uni mazax qilishga tushdi:

– Nega bizning yerimizni toptayapsan, taviya?! O'lib-netib ketsang yaxshi bo'larmidi, odam zerikyapti axir...

Shunda Yushka umrida ilk bor g'azablandi:

– Senga... sizlarga nima yomonlik qildim? Meni otanom dunyoga keltirgan, sen kabi men ham yorug' olamga kerakman, mensiz, demak, iloji yo'q...

O'tkinchi Yushkani eshitib o'tirmay zahrini sochdi:

– Hali shunaqami? Tiling chiqib qolibdimi? Meni, meni-ya, o'zing bilan tenglashtirishga qanday hadding sig'di, devona?

– Tenglashtirmayapman, – dedi Yushka, – lekin ehtiyojga ko'ra hammamiz baravarmiz...

– Bilimdonlik qilma menga! – baqirdi o'tkinchi. – Sendan ko'ra aqlliroqman. Buni qarang-a, chakagi ochilib-dimi, aqlingni kiritib qo'yaman!

Musht o'qtalgancha o'tkinchi Yushkani ko'ksidan zarb bilan itarib yubordi. Yushka chalqanchasiga yiqildi.

– Damingni ol, – dedi o'tkinchi va uyiga yo'l oldi.

Yushka arang yuztuban bo'lib oldi va shundan so'ng qaytib na qimirladi, na o'rnidan turdi.

Oradan ko'p o'tmay shu atrofdan mebel ustaxonasida ishlaydigan duradgor o'tib qoldi. Yushkani chaqirib ko'rdi. Keyin uni ag'darib, Yushkaning katta-katta ochiq ko'zlarini ko'rdi. Shom qorong'isida Yushkaning og'zi qop-qora bo'lib ko'rindi; duradgor kafti bilan uning labini artди. Quyuq qon. Yushkaning boshi yotgan yerni paypasladi – nam ekan. Demak, Yushkaning bo'g'zidan qon oqqan.

– Uzilibdi, – xo'rsindi duradgor. – Alvido, Yushka! Hammamizni kechir. Odamlar seni yaroqsizga chiqarishdi, Xudo qozi!

Ustaxona sohibi Yushkani dafn qilishga tayyorladi. Ustaning qizi Yushkaning jasadini yuvdi. Mayyitni ustaning uyidagi stolga yotqizishdi. Marhum bilan vidolashgani hayotligida uning ustidan kulgan barcha yosh-u qari keldi.

Keyin Yushkani tuproqqa qo'yishdi va uni unutishdi. Ammo Yushkasiz yashash qiyin bo'ldi. Endilikda jami gina-kuduratlar odamlarning o'zlariga sochiladigan bo'ldi, chunki yot-begonaning qahr-g'azabiga, ichiqoraligiga jimgina toqat qiladigan Yushka endi yo'q.

Yushkani kech kuzakdagina yodga olishdi. Yog'ingarchilik dillarni xufton qilgan bir kunda temirchilik ustaxonasiga yoshgina, durkun qiz kirib keldi va Yefim Dmitriyevichni qayerdan topish mumkinligini so'radi.

– Qaysi Yefim Dmitriyevich? – hayratlandi temirchi. – Bizda bunaqasi sira bo'lmagan.

Qiz ketmadi, jimgina nenidir kutib turaverdi. Usta unga razm soldi: shunday o'yib olayotgan havoda uni bu yerga nima yetaklab keldiykin? Ko'rinishidan jikkak, lekin istarali chehrasi shunchalik dilbar, ma'sumki, mana hozir jiqqa yoshga to'lishga tayyor ko'k ko'zlari shunday hasrat-la boqadiki, ustaning ko'ngli iyib ketdi. Shunda birdan fahmlab qoldi:

– Yushka emasmidi u? Xuddi shunday – pasport bo‘yicha Dmitrich deb yozardi...

– Yushka, – shivirladi qiz. – To‘g‘ri. U kishi o‘zlarini Yushka deb atardilar.

– Siz unga kim bo‘lardingiz? Qarindoshmi?

– Hech kim. Yetim edim, Yefim Dmitriyevich meni Moskvada jo‘jabirday jon oilaga berdilar, keyin esa pansionga topshirdilar... Har yili meni ko‘rishga kelib, bir yillik o‘qishim va tirikchilik qilishimga yetadigan pul berardilar. Mana endi katta bo‘ldim, universitetni bitirdim, Yefim Dmitriyevich esa shu yili yozda meni ko‘rgani kelmadilar. Aytgim menga, qayerda u kishi? Sizda yigirma besh yil ishlaganini qistirib o‘tgandilar...

– Oradan chorak asr o‘tibdi, birga keksayibmiz, – dedi usta.

U ustaxonani yopib, mehmonni qabristonga boshladi. Qiz o‘zini, bir umr na shakar, na choy nimaligini bilmay, yedirib-ichirgan marhum yotgan yerga cho‘k tushdi.

Qiz Yushkaning dardini bilardi, mana endi o‘zi vrachlikka o‘qib, jondan aziz kishisini davolagani kelgandi...

O‘shandan beri ko‘p suvlar oqib o‘tdi. Shifokor qiz shahrimizda butunlay qoldi. Sil bemorlar kasalxonasida ishlab, uyma-uy yurib shifotalablarni davolashga tushdi. Lekin biron-bir bemordan bir miri ham olmaydi. Endilikda uning o‘zi ham qartaydi, shunga qaramay kasallarni davolab, ko‘nglini ko‘tarishni, dardlarini aritib, ajalni quvib solishni kanda qilmaydi. Garchi Yushkaning o‘zini ham, qo‘li yengil shifokor ayol uning qizi emasligini ham allaqachon unutishgan bo‘lsa-da, shaharchada hamma uni qalbidaryo Yushkaning qizi deb biladi.

Rus tilidan

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimai

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Lev Tolstoy. Ilohiy nur	
<i>Sa'dulla Siyoyev tarjimasi</i>	5
Korrado Alvaro. Kuz bo'roni	
<i>Italyan tilidan Rustam Ibragimov tarjimasi</i>	9
Lourens Blok. So'z qadri	
<i>Rus tilidan Dilshodbek Asqarov tarjimasi</i>	17
Ernest Xeminguey. Oddiy tekshiruv	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	21
Jek Ritchi. Ushlab turilgan xat	
<i>Rus tilidan Sarvinoz Omonova tarjimasi</i>	27
Lourens Blok. „Bu kishi o'lsa“	
<i>Rus tilidan Dilshodbek Asqarov tarjimasi</i>	32
Nodar Dumbadze. Yuragimning bir parchasi	
<i>Rus tilidan Orif Tolib tarjimasi</i>	43
Rey Bredberi. Yangi muallima	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	56
Jon Golsuorsi. Eski etik	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	60
Anil Chandra. Yozning mayin shabbodasi	
<i>Rus tilidan Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	71
Gi de Mopassan. Sovuq kunlar	
<i>Ingliz tilidan Shahnoza tarjimasi</i>	77

Ernest Xeminguey. Yolg'izlik <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	85
R.K.Narayan. Kichik aktrisa <i>Siddiqa A'zamova tarjimasi</i>	93
Somerset Moem. Ijod alangasi <i>Ingliz tilidan Hulkar Muhammedova tarjimasi</i>	99
Paulo Koelo. Baxt kaliti haqida rivoyat <i>Ozod Sharafiddinov tarjimasi</i>	106
Patritsiya Xellet. Shunday kun keladi <i>Rus tilidan Nasiba Ergasheva tarjimasi</i>	109
Zu Vinter. Ilk muhabbat <i>Nemis tilidan Yo'ldosh Pardayev tarjimasi</i>	115
Alevtina Rasskazova. Eson-omon uyga qayt <i>Nodirabegim tarjimasi</i>	120
L. Nolan. Eski yilda qolgan yolg'izlik <i>Ingliz tilidan Mohimbegim tarjimasi</i>	124
Jek London. Keksa askar hikoyasi <i>Ingliz tilidan Shahlo Obloqulova tarjimasi</i>	127
Gratsia Deledda. Onaizor ruhi <i>Italyan tilidan Rustam Ibragimov tarjimasi</i>	133
Alvaro Yunke. Atirgul o'g'risi <i>Rus tilidan Alisher Fayzullayev tarjimasi</i>	139
Mixail Lakerbay. Donishmand Jasib <i>Rus tilidan Rustam Sharipov tarjimasi</i>	146
Andrey Platonov. Yushka <i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	149

Adabiy-badiiy nashr

ALFONS DODE

ATIRGUL O'G'RISI

Hikoyalar to 'plami

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Oybek Xaydarov</i>
Badiiy muharrir	<i>Maftuna Vahobova</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Umar Qodirov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
20.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₃₂.
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 89--20.
Buyurtma raqami 407-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz